

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAN, TA'LIM VA  
INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**MAMATALIEV A.R.**

**"JIGAR VA O'T YO'LLARI KASALLIKLARINI  
PATOMORFOLOGIYASI"**

**O'QUV QO'LLANMA**



**"KAFOLAT TAFAKKUR"  
ANDIJON - 2023**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAN, TA'LIM VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**MAMATALIEV A.R.**

**"JIGAR VA O'T YO'LLARI KASALLIKLARINI  
PATOMORFOLOGIYASI"**

**O'QUV QO'LLANMA**

Bilim sohasi:	<b>900000 - Sog'liqni saqlash va ijtimoiy taminot</b>
Talim sohasi:	<b>910000 - Sog'liqni saqlash</b>
Talim yo'nalishlari:	<b>60910200-Davolash ishi</b> <b>60910300-Pediatriya ishi</b> <b>60910400-Tibbiy profilaktika</b>

**"KAFOLAT TAFAKKUR"  
ANDIJON - 2023**

**UDK:** 616.091./36

**BBK:** 52.51

**M22**

**Tuzuvchi:**

**Mamataliev A.R.** - Andijon davlat tibbiyot instituti patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrasi mudiri, t.f.n., dostent.

**Taqrizchilar:**

**Don A.N.** - Toshkent davlat stomatologiya instituti fiziologiya va patologiya kafedrasi dosteni, t.f.n.

**Raxmanov R.R.** - Andijon davlat tibbiyot instituti tibbiy biologiya va histologiya kafedrasi mudiri, dostent, t.f.n.

Ushbu o‘quv qo‘llanma patologik anatomiya fani bo‘yicha bakalavriat - kurs talabalari uchun patologik anatomiya fanidan yangi namunaviy dasturlar asosida tuzilgan o‘quv rejasiga muvofiq yozilgan.

O‘quv qo‘llanmadagi ma’lumotlar klinikagacha fanlar (tibbiyot va biologiya fanlari) blokiga kiradi va o‘quv rejasiga muvofiq 5-6 semestrlarda o‘qitiladi. Qo‘llanma fandagi jigar va o‘t yo‘llari patologiyalari patomorfologiyasi malumotlarini o‘z ichiga oladi, darslik materiallarini to‘ldiradi.

O‘quv qo‘llanma zamonaviy malumotlar asosida tayyorlangan bo‘lib, fanni mukammal o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Andijon davlat tibbiyot instituti ilmiy Kengashi tomonidan tasdiqlangan. 2023 yil "25" oktyabr kuni, №3 -sonli bayonnomasi.

**ISBN: 978-9910-9447-4-1**



9348

© MAMATALIEV A.R.  
© KAFOLAT TAFAKKUR

## KIRISH

Ingliz tilida jigar so‘zi “liver” - “live” so‘zi oxangida ifodalanib, yashash degan tushunchani bildiradi. Qadimiy Sharqda shifokorlar jigar – rujni saqllovchi joy deb hisoblashgan. Hozirgi vaqtida jigarning 500dan ortiq vazifalari isbotlangan, u bu vazifalarni bajarishda organizmni tozalaydi, organizm uchun zarur bo‘lgan birikmalarini yaratadi, ko‘plab birikmalar jiga to‘planadi va u ularga depo hisoblanadi.

Jigar va o‘t yo‘llari kasalliklarini patomorfologiyasi bo‘yicha yozilgan ushbu o‘quv qo‘llanma tanishish mobaynida bakalavrlar ushbu patologiyalar bo‘yicha mustaqil va erkin fikrlashga, bilimlarni bosqichma-bosqich boyitishga, mukammallashtirib borishga, mustaqil talim olishga, yangi bilimlarni o‘quv adabiyotlaridan izlab topish ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Ular tushunarli, sodda va ravon tilda yozilishi, malumotlar talabalar tomonidan imkon darajasida oson va qiyinchiliksiz qabul qilinadigan, xotirada saqlanadigan tarzda berilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma yordamida talabalar jigar va o‘t yo‘llari patologiyalarini etio-patogenezini, morfologiyasini, bir-biridan farqini va oqibatlarini, ushbu jarayonlarini struktur asoslarini, ushbu patomorfologik o‘zgarishlarini klinik belgilari bilan solishtirib, taxlil qiladi. Shuningdek qo‘llanmada umumpatologik jarayonlarda yuz beradigan moddalar almashinuvi buzilishlari, nekroz, gemodinamik va yallig‘lanish o‘zgarishlari, o‘smalarini patogenezi, oqibatlari, klinikadagi ahamiyati o‘rganiladi.

Ushbu qo‘llanmadagi mavzular mohiyati va mazmuni fan dasturida belgilangan hajmlarda izchillik bilan yoritgan, u orqali talim oluvchilarga berilishi zarur bo‘lgan kompetenstiyani shakllantirishga qaratilgan.

Zamonaviy bilimlarga asoslangan malumotlardan tashkil topgan, u bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish, qiziqish uyg‘otish va mustaqil fikrlashga yo‘naltira oladigan xususiyatlarga, talim oluvchilarni bilimi, uquvi va ko‘nikmalarini nazorat qilish imkoniyatiga ega.

Mavzularda “oddiydan murakkabga” tamoyillarga rioya etilgan. Talim oluvchilarni mustaqil talim olishga qiziqtirishga, ijodkorlikka, etishmaydigan bilimlarni mustaqil tarzda to‘ldirishga yordam berishga yo‘naltirilgan.

## **JIGAR VA O‘T YO‘LLARINI ANATOMIK, GISTOLOGIK VA FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Embriogenezda inson kurtagini 12 b.i. devorida jigar murtaklari aniqlangan (uzunligi 2,5mm). Embriogenezni birinchi yarmida jigar - oraliqlarida venoz sinusoidlar bo‘lgan to‘rsimon kurtaklanayotgan epitelial hujayralarni plastinkalaridan tashkil topadi, ikkinchi yarmida esa tomirlar bo‘ylab jigar ichkarisiga glison qobig‘ini davomi biriktiruvchi to‘qima (jigar parenximasini alohida fragmentlarga – bo‘laklarga bo‘luvchi) o‘sib kiradi. Jigar ichidagi o‘t yo‘llari jigar hujayralarini differenstirovkasi yo‘li bilan rivojlanadi. O‘t kanalchalari homila rivojlanishini 6-xaftasida diametri 0,8-1,5mkm bo‘lgan hujayralararo tor tirqish ko‘rinishida hosil bo‘ladi. Shakllanayotgan bo‘laklararo o‘t yo‘llari portal sohada homila rivojlanishini 2-oyi oxirida aniqlaniladi. O‘t yo‘llarini epithelial hujayralari va gepatostitlar o‘rtasida oraliq shakllar kuzatiladi. Jigarichi o‘t yo‘llarini shakllanishi homila rivojlanishini 3-oyi ohirida yakuni topadi.


Jigar qorin bo‘shlig‘ini o‘ng yuqori qismida diafragma ostida joylashib, katta yoshli insonlarda bir qismi o‘rta chiziqdan chapga chiqib turadi. Jigarni yuqori va pastki chegaralari yonbosh va oldingi tana yuzalari proekstiyasiga to‘g‘ri kelib, o‘ngda 10-qovurg‘alararo o‘rta - qo‘ltiqosti chiziq bo‘ylab va chapda 5-qovurg‘alararo o‘rta-o‘mrov osti oraliqga to‘g‘ri keladi. Normada jigarni pastki qirralari qobirg‘alar yoyidan tashqariga chiqmaydi.

Katta yoshli insonlarda (1300-1800g) jigarni og‘irligi 1/36-1/50 tana og‘irligi qismini (yangi tug‘ilganlar va 1yoshgacha bo‘lgan bolalarda 1/18) tashkil etadi, o‘lchamlari 25\*15\*10dan 30\*20\*15sm-ni tashkil etib, yoshga bog‘liq tarzda o‘zgarishi mumkin.

Jigarda 2ta yuza va 2ta qirralar farqlaniladi. Oldingi - yuqorigi yuzasi (diafragmal) bo‘rtgan bo‘lib, diafragma bog‘iga mos keladi, pastki (vissteral) yuzasi pastki va orqaga qaragan, atrof a’zolarni ezishi oqibatiga relefli notejis

bo‘ladi. Yuqorigi va pastki yuzalari bir - biridan o‘tkir oldingi qirrasi bilan yuqorigi - orqa qirrasi esa o‘tmas bo‘ladi.

Jigarda 2ta bo‘lak: o‘ng – katta va chap – kichik bo‘laklar farqlaniladi. Bo‘lak o‘rta chegarasidagi yuqorigi bo‘rtgan yuzasi o‘roqsimon bog‘lamni yopishadagan joyi bo‘lib xizmat qiladi. Pastki yuzasi chegarasini chap va o‘ng ko‘ndalang egatlar tashkil qiladi. Jigarni o‘ng bo‘lagi pastki yuzasini botiqligini oldingi bo‘limida o‘t pufagi joylashgan. Jigarni o‘ng bo‘lagini pastki yuzasini chuqur ko‘ndalang egatlarida jigar venasi joylashadi. Jigar darvozasi orqali jigar arteriyasi va portal vena, nervlar birgalikda kiradi, jigardan umumiy o‘t yo‘llari va limfatik tomirlar chiqadi. Jigar darvozasi o‘ng bo‘lakni kvadrat va dumli bo‘laklarga bo‘ladi.



Rasm-1. Jigarning bo‘laklari , o‘t yo‘llarini turli proekstiyalardagi joylashuvi.

Jigarni bo‘lagi, segmenti, sektori deb, turli o‘lchamda, qon va limfa aylanishi, innervastiyasi va o‘tni oqishi o‘ziga xos bo‘lgan kattaliklariga aytiladi. Bo‘lak, sektor va segmentlar bir – biridan kam miqdordagi tomirli egatchalar bilan chegaralangan. Har bir bo‘lagi glison oyoqchalariga ega, unda darvoza (portal) venalarni, jigar arteriyalarini va jigarichi o‘t yo‘llari joylashadi.

S.Souinand (1957) jigarni 2ta bo‘lagini (o‘ng va chap), 5ta sektorini va 8ta segmentini farqlagan.

Jigar to‘qimasi makroskopik qizg‘ish-jigarrang rangda bo‘lib, nisbatan mo‘rtligi bilan ajrab turadi.

Jigar diafragmaga tegib turgan orqa yuqorigi yuzasidan tashqari qorin parda bilan qoplangan. Qorin pardani seroz qatlami ostida yupqa fibroz qobiq – glison kapsulasi joylashadi. Jigarni darvoza sohasida glison kapsulasi qalinlashadi, tomirlar bilan birgalikda jigar parenximasiga kirib borib, a’zoni retikulyar stromasi va portal sohani biriktiruvchi to‘qimasini hosil qiluvchi yupqa qatlamlarga tarmoqlanadi. Jigardan boshqa a’zolarga o‘tayotgan qorin parda uni bog‘lovchi apparatini tashkil qiladi. Jigarni o‘roqsimon bog‘lamni uni qabariq yuzasi va diafragma o‘rtasida tortilgan. Oldingi qismidan bu bog‘lam kindik venasiga joylashgan bevosita jigarni yumaloq bog‘lamiga o‘tadi. Homiladorlik davrida kindik venasi yo‘ldoshni darvoza venasi bilan bog‘laydi. Tug‘ildan so‘ng bu vena to‘liq bo‘lmagan holda obliterastiyalanadi, bundan dori moddalar kiritishda, kontrast moddalar kiritishda foydalaniladi. O‘roqsimon bog‘lamni orqa qismi toj bog‘lamga o‘tadi, qatlamlari orasida qorin parda bilan qoplanmagan jigarni diafragmal yuzasi joylashadi. Toj bog‘lamlarni oxirgi qismi jigarni diafragma bilan bog‘lovchi chap va o‘ng uchburchak bog‘lamiga o‘tadi.

XVIII - asrda K.Hering jigarni hujayralar to‘plamlaridan iboratligi, oraliqlariga sinusoid tomirlar kirib borganligi, parenxima plastinkasi bitta hujayra qalinligiga ega eganligini ko‘rsatib o‘tgan, uni N.Elias(1949) rekonstruktiv tekshirishlarda tasdiqlangan. Gepatostitlar bir qator hujayralardan anostomozlangan plastinkalarni hosil qilib, sinusoidlarni tomirli labirintlari bilan yaqindan aloqada bo‘ladi. Jigarda hujayra elementlarini miqdoriy nisbati

quyidagicha: gepatostitlar 84,2%, endotelial hujayralar 14,7%, duktulyar – 0,6%, qon tomirlari hujayralari – 0,3%, biriktiruvchi to‘qima hujayralari – 0,2% (Gates et al., 1961).

Mikroskopik tekshirishlarda aniqlanadigan, jigarni funkstional – morfologik birligi (gepaton) – 1666y. Malpigi yozib qoldirgan geksagonal jigar bo‘lagidir. Ularni miqdori 500000taga teng deb hisoblashadi. Bo‘lakni ko‘ndalang kesimi 0,5-20mkm-ga teng. Struktur funkstional birlik sifatida jigar bo‘lagini shakllanishi embrional davrda boshlanadi. Jigar bo‘lagini yakuniy morfologik differenstirovkasi tug‘ilgandan so‘ng 30-kunida - hujayra organellarini miqdorini ortishi, maxsus vazifani bajarish uchun qulay tartibda joylashuvi bilan yakuniga etadi.

Geksogonal bo‘lakni markazi jigar venasi bo‘lib – jigardan oqib o‘tib va pastki kovak venaga tashuvchi - venoz kollektorni boshlang‘ich zvenosidir.

Bo‘lak parenximasi jigar venasiga konvergastiyanuvchi gepatostitlarni radial joylashgan ustunchalaridan tashkil topgan.

Qo‘shti ustunchalar sinusoidlar bilan bo‘lingan, ularda jigar arteriyasi va darvoza venasidan keluvchi arterio-venoz qon stirkulyastiya qiladi. Darvoza venasi va jigar arteriyalari yonma yon portal sohani biriktruvchi to‘qimasida joylashgan. Bo‘lak parenximasini portal sohalarda ajratib turuvchi terminal plastinkadan o‘tib, portal vena va jigar arteriyasi o‘zini qonini jigar sinusoidlariga quyadi. Darvoza venalarini oxirgi kurtaklari portal soha chekkasidan-da sinusoidlarga qonni quyadi, jigar arteriyalarini kurtaklari esa qon sinusoidlarga bo‘lak markazi va periferiyasidan quyadi. Darvoza venasini oxirgi kurtaklaridan sinusoidlar chiqish joyi va uni markazga quylishi sohasida bo‘lakga qonni kelishini boshqaruvchi silliq mushakli sfinkterlar bo‘ladi. Jigar bo‘lagida qonni bu tartibda aylanishi uni «ajoyib to‘r» deb atashga asos bergan.

Xrushev, Brodskiy, 1961, Rapoport, 1960yy. tekshirishlarda jigar parenximasi funkstional mayda bo‘laklarga bo‘linganligini, markaziy vena ikki jigar bo‘lagi va markazida portal soha bilan chegaralanishini (oddiy astinus) aniqlangan. 3-4ta shunday bo‘lakchalar murakkab astinusalarni ya’ni markazida

portal trakt va periferiyasini uch burchagida jigar venalari tashkil qiladi. 1970yilda E.Bloch tiriklikda uch o'lchamli rekonstruktiv kesimida jigarni funkstional birligi dinamik tuzilma ekanligini, o'zida Disse bo'shlig'i bilan o'ralgan sinusoidlarni, gepatostitlarni bir yarim diametriga teng yaqin joylashgan parenximanini va o't kanalchalarini kiritishi mumkinligi taxminini aytgan. Jigarni dinamik birligini bunday fazoviy hajmi a'zoni funkstional faoligiga mos ortadi.

T.Takahashi (1970) jigar tuzilmasini afferent va efferent qon tomirlar sistemasini joylashuvini o'zaro o'ziga xosligi bilan bog'liq deb hisoblaydi. Bunday joylashuvga tartibli «interdigitasiya» - olib keluvchi va olib ketuvchi tomirlarni ketma-ket joylashuvi xos bo'ladi. Shuning uchun u jigar struktur birligi markazi sifatida portal traktni ham, markaziy venani ham bo'la olmasligini ta'kidlaydi.

Bo'lak ichidagi sinusoidlar modifikastiyalangan qon tomir kapillyarlaridir. Tinch xolatda 75% sinusoidlar faol qon aylanishi holatida bo'lmaydi. Jigar sinusoidlarini uch bo'limi farqlaniladi: periferik, oraliq va markaziy. Oraliq bo'limi sinusoidlarni 90% uzunligini tashkil etib, kapillyarlardan farqliroq bazal membranaga ega emas. Qolgan bo'limlari esa basal membranaga ega bo'ladi.

Sinusoidlarni devorlari retikulyar tolalar va ShIK-ijobiy reakstiyani beruvchi glikoproteid kosplekslaridan tashkil topgan. Sinusoidlarni devorlari – endotelial hujayralarni anastomozlanayotgan chizimchalari bilan namoyon bo'lib, gistokimyoviy unda IF va ATF-aza faolligi aniqlangan. Sinusoidlarni endoteliylari gepatostitlardan perisinusoidal Disse tirkishi bilan chegaralanib, u periportal Molya bo'shlig'i va hujayralararo tirkishlar birlashmasidan iborat bo'lib, hujayralararo tirkish bilan birgalikda jigariichi limfatik sistemasini boshlang'ich zvenosi bo'ladi.

Sinusoidlar endoteliylari butun yuza bo'ylab yopiq membrana hosil qilmaydi, diametri 2mkm-gacha bo'lgan tirkishlar (tirkish, fenestrlar) saqlaydi. Bunday tirkishli endoteliylar gistogematik barerlar uchun xarakterli bo'lib, jigarga makromolekulyar metabolitlarni o'tishini ta'minlaydi. Disse bo'shlig'ida metabolitlarni gepatostitlar bilan bevosita ta'siri yuz beradi.

Endotelial hujayralar yuqori plastiklikga ega. Funkstional xolatiga qarab – xususiy endotelial hujayralar (tayan funkstiyani bajaradi), faol endoteliylar yoki Kupfer hujayralari (fagostitar funkstiyaga ega) va fibroplastik hujayralarga (biriktiruvchi to‘qimani yangilanishida ishtirok etadi).

Xususiy endotelial hujayralar – endotelial hujayralarni 48%ni tashkil etib, cho‘ziq shaklga ega, yadrosi va stitoplazma chizimchalari cho‘zilgan shaklda bo‘ladi. Bu hujayralarni stitoplazmasida mitoxondriyalar, oz miqdorda EPT, yaxshi rivojlangan Goldji apparati joylashadi.

Faol endotelial hujayralar – 1876 yilda Kupfer tomonidan yozilgan, katta o‘lchamga ega, noto‘g‘ri yumaloq yoki yulduzsimon shaklga ega bo‘lib, eozin va pironin bilan bo‘yaladi (uni bazofilligi). Endotelal hujayralar 40%ni Kupfer hujayralari tashkil etadi. Kupfer hujayralarini gistokimyoviy tekshirishlarda RNK, ShIK-musbat amilorezistent glikoproteidlar, yuqori faollikdagi IF aniqlangan. Bu hujayralarni faolligini elektron-mikroskopik belgisi – lizosomalar, pinostitoz pufakchalarini va autofagiyalangan vakuollalarni ko‘pligi hisoblanadi.

Kupfer hujayralari RESni asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Ular yog‘larni, xalok bo‘lgan eritrostitlarni yutadi, temir to‘planishida va bilirubin hosil bo‘lishida ishtirok etadi. Moddalar Disse bo‘shlig‘ida yutiladi, yutilgan moddalar ushbu hujayralarda uzok saqlanadi.

Fibroplastik endotelial hujayralar – cho‘zinchoq shaklliligi bilan xarakterlanadi (endoteliy hujayralarni 12%ni tashkil etadi), stitoplazmasida ergastoplazmani kengaygan pufaklarini, yirik Goldji apparatini va hujayra membranasi yaqinidagi fibrillyar materiallarni saqlaydi.

Jigar bo‘lagida nisbatan 3ta soha farqlaniladi: markaziy (jigar arteriyalari atrofida), oraliq va periferik(portal maydonda).

Jigar bo‘lagini periferik bo‘limlarida glikogen saqlamaydigan, bazofil stitoplazmali mayda qoramtil hujayralar qatlami joylashadi (terminal, chegaradosh plastinka). U bo‘lak parenximasini portal maydondagi biriktiruvchi to‘qimadan ajratib turadi. Bu qatlam gepatostitlar trabekulalariga nisbatan perpendikulyar joylashadi. Gepatostitlarni chegaradosh plastinkasi jigarni kambial qatlami

hisoblanadi. U orqali bo‘lakga darvoza venalarini bo‘laklararo kurtaklarini oxirgi murtaklari va jigar arteriyasi kiradi, bo‘laklararo o‘t yo‘liga quyiluvchi xolangiolalar(duktulalar) chiqadi. Gepatostitlarni chegara plastinkasi va portal sohani biriktiruvchi to‘qimasi o‘rtasida Molya bo‘shlig‘i joylashadi.

Portal maydon (portal trakt) – jigar bo‘lagini chekka sohasida joylashgan va noto‘g‘ri uchburchak shakldagi biriktiruvchi to‘qima darvoza venasi, jigar arteriyasi va bo‘laklararo o‘t yo‘llari, jigarichidagi limfatik sistema va nerv kurtaklaridan iborat bo‘lib - portal triada deb ataladi. Sog‘lom insonlarni portal maydonini biriktiruvchi to‘qimasida kam miqdorda limfostitlar, gistiostitlar, fibroblastlar, shuningdek plazmatik hujayralar bo‘ladi. Limfatik tomirlar endoteliy bilan qoplangan nozik tirqish sifatida portal venalarni, jigar arteriyasini va bo‘laklararo o‘t yo‘llari shoxchalari o‘rab, jigar darvozasida limfatik tugunlarga quyiladi va u joydan ko‘krak limfatik yo‘liga tashiladi. Jigar bo‘lagi ichida limfatik tomirlar uchramaydi. Portal sohadagi qon tomirlar atrofida nerv tolalariga boy bo‘ladi. Yupqa nerv tolachalari jigar bo‘lakchalariga gepatostitlar va endoteliy hujayralargacha kirib boradi.

Jigarni biriktiruvchi to‘qimasi fiziologik sharoitlarda quyidagi elementlardan iborat bo‘ladi:

- retikulyar tolalar – jigar bo‘lagida gepatostitlar yuzasi bilan tegib turgan keng tarqoq tartibsiz to‘r hosil qiladi. Ko‘ndalang va bo‘ylama tolalari farqlaniladi. MPS bo‘lganligi uchun bu tolalar argirofildir. Retikulyar tolalar ko‘ndalang kesimi elektron mikroskopik tekshirishlarda diametri 500-1000A bo‘lgan oval osmiofil donachalar to‘plami ko‘rinishida kuzatiladi. Yosh insonlarda tolalar nozik to‘rni, 30yoshdan keyin qalinroq, 60yoshdan keyin esa dag‘al tolalar to‘plamini hosil qiladi.

- kollagen tolalar portal traktni biriktiruvchi to‘qimasini hosil qiladi. Glikozamin saqlovchi tarkibiga MS kiruvchi skleroproteindan tarkib topadi. Kollagen tolalar pikrofuksin yoki Mellori bo‘yicha uch rangli usulda yaxshi namoyon bo‘ladi. Kollagenni elektron-mikroskopik tuzilishi uchun uni 640A bo‘lgan davriyligi xarakterlidir.

- Bazal membranalar – portal traktdagi sinusoidlarni, qon tomirlarni va o‘t yo‘llarini markaziy va periferik qismlari atrofida bo‘ladi. Bazal membrana tayanch funkstiyani bajaradi, shuningdek tomirlar va o‘t yo‘llari devoridan turli moddalarni tanlab o‘tishini ta’minlaydi. Bazal membrana tarkibiga kollagen tolalar kiradi.

Jigarni hamma biriktiruvchi to‘qimalari elementlarini fibroblastlar hosil qiladi. Bundan tashqari bazal membranani shakllanishida endotelial (tomirlarni bazal membranasi hosil bo‘lishida) yoki epitelial (o‘t yo‘llari bazal membranasi hosil bo‘lishida) hujayralar ham ishtirok etadi.

O‘t suyuqligini chiqaruvchi sistemanı boshlang‘ich element hujayralararo o‘t kanalchalar bo‘lib, ular IF, ATF-azaga ijobjiy reakstiya beradi. Bu tuzilma xususiy devorga ega emas, gepatostitlarni stitoplazmatik membranalaridan hosil bo‘lgan, bo‘shlig‘i 2 yoki undan ko‘proq gepatostitlardan tashkil topgan. O‘t kanalchalar jigar kanalchalar ichida keng anastomozlangan tarqoq to‘mi tashkil qiladi. Bu tuzilmalarni bo‘shlig‘i fiziologik xolatlarda 0,5-1mkm bo‘ladi. Gistologik aniqlanmaydi, gistokimyoviy IF yordamida va elektron mikroskopik aniqlaniladi. Gepatostitlarni chegaradosh o‘t kanalchalarini o‘rab turuvchi sohalarida tashqi stitoplazmatik membranani osmiofil qalinlashmalari kuzatiladi, desmosomalar deb ataladi. Desmosomalar stitoplazma kondensastiyasi va yuzasiga konvergastiya bo‘luvchi nozik fibril tolalar tahlami parallel joylashgan membrana o‘chog‘i bilan namoyon bo‘ladi.

Hujayralararo o‘t kanalchalar bir birlari bilan qo‘silib, jigar bo‘lagi chekkasida nisbatan yirikroq perilobo‘lyar o‘t yo‘llarini hosil qiladi (oraliq qismi, Gering kanalchalar, terminal duktulalar, xolangiolalar). Bu tuzilmalar bazal membranada ikki qator bo‘lib joylashgan yadrosi xromatinga boy, yorug‘ eozinofil stitoplazmali kubsimon epithelial hujayralardan tashkil topgan. Jigar hujayralaridan farqliroq bu hujayralar glikogen tutmaydi. Ularni stitoplazmasida mayda yog‘ tomchilarini topish mumkin. Bu hujayralarni elektron – mikroskopik tekshirishlarda yuzasida mikrovorsinkalar (ular kalta va miqdori kam bo‘ladi), stitoplazmasida esa oz miqdorda mayda mitoxondriyalar saqlaydi, silliq ERT,

Goldji apparati yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Gepatostitlarni terminal plastinkasidan periportal sohaga o‘tib xolangiolalar bo‘laklararo o‘t yo‘llariga quyiladi (duktalar, xolangiolalar). Bu yo‘llarni devorlari biriktiruvchi to‘qimadan iborat bo‘ladi (yirikrog‘ida silliq mushak tolalari qatlami ham bo‘ladi). Bo‘laklararo o‘t yo‘llari epitelial hujayralari kubik shaklda (yirikrog‘i stilindrik) bo‘lib, ShIK-musbat MPS ni ko‘proq miqdorda saqlovchi basal membrana yuzasida joylashadi. Ularni stitoplazmasi glikogen granulalari, lipid tomchilari, o‘t suyuqligini saqlaydi. Elektron – mikroskopik tekshirishlarda stitoplazmasida kristalari cho‘ziq mayda mitoxondriyalar ko‘riladi. EPT yaxshi rivojlangan, parallel membrana hosil qilmaydi, Goldji apparati bir necha joylarda aniq namoyon bo‘ladi. O‘t yo‘llarini epitelial hujayralari orasida ba’zan katta elektron zichlikga ega bo‘lgan tiklanayotgan hujayralar ko‘riladi.

Jigarni pastki yuzasida ko‘ndalang egatlar sohasida o‘ng va chap o‘t yo‘llari birlashadi, umumiy jigar o‘t yo‘llarini hosil qiladi, u esa o‘t pufagi bilan birgalikda 8-12sm uzunlikdagi umumiy o‘t yo‘lini tashkil etadi. Umumiy o‘t yo‘li 12 b.i. bo‘shlig‘iga faterov so‘rg‘ichi sohasida ochiladi (me’da osti bezi chiqaruv naylari bilan birga). Ushbu joyda umumiy o‘t yo‘lini distal sohasi kengaygan, devorida sillik muskul qatlami sezilarli rivojlangan bo‘ladi (Oddi sfinkteri).

Nemis patolog W.Eger (1952-1954) tadqiqotlarida jigar bo‘lagini turli bo‘limlari turlicha funkstiyalarni bajarishi ko‘rsatib bergen. U jigar bo‘lagini periferik va markaziy funkstional sohalarini farqlagan. Keyinchalik A.Novilkov(1959) gistokimyoviy va elektron – mikroskopik tekshirishlarga asoslanib jigar bo‘lagi gepatostitlarini geterogenligi tushinchasini kiritdi. Bunda u jigar bo‘lagini turli sohalarida gepatostitlar o‘zida pigmentlarni, glikogenni, nuklein kislotalarni turlicha tutishini, shuningdek fermentlar tarkibi va faoligini xam turlichaligini ko‘rsatib o‘tgan. Bunga bo‘lak periferiyasidagi gepatostitlarda RNK va oksireduktaza miqdorini ko‘pligi, markaziy sohadagi gepatostitlarda esa lipofusstin va gidrolazalarni ko‘pligi misol bo‘ladi. Oqsillar butun bo‘lak bo‘ylab bir tekis taqsimlanadi.

Jigar hujayralarini morfometrik tekshirishlar shuki ko‘rsatadiki, bo‘lakning stentrolobulyar gepatostitlari periferik gepatostitlarga nisbatan yirikrok, intermediar gepatostitlar esa oraliq holatda bo‘ladi. Gepatostitlarni bunday struktur farqlanishi ularni funkstional o‘ziga xosligini namoyon qiladi. Shunga asosan periferik sohadagi gepatostitlar turli moddalarni yig‘ish, shu jumladan makroergik bog‘li birikmalarni yig‘ish, detoksikastiyada ishtirok etadi, stentrolobulyar gepatostitlar esa bilurubin metabolizmi va bilirubinni va b. birikmalarni o‘t yo‘llariga ekskrestiya qilishida ishtirok etadi. Patologiya holatida gepatostitlar geterogenligini o‘rganish shikastlanishlarda bo‘lakni funkstional sohalarini siljishi, shikastlanmagan gepatostitlar shikastlangan jigar hujayralari funkstiyasini kompensastiya qilishi aniqlangan. Gepatostitlarni geterogenligi jigar bo‘lagini turli sohalarini qon bilan ta’minlanishini hziga xosligi bilan bog‘liq deb taxmin qilinadi. Kislorodga boy qon periportal gepatostitlarni «yuvadi», stentrolobulyar sohaga SO<sub>2</sub>ga boy qon keladi. Jigarni qon bilan ta’minlanishini o‘ziga xosligi jigar bo‘lagi sohalari gepatostitlarni toksik omillar ta’sirida turli darajada shikastlanishini ta’minlaydi. Darvoza venasi sistemasidan kelib tushuvchi gepatoksinlar jigar bo‘lagi periferiyasidagi gepatostitlarga ta’sir qiladi, jigar arteriyasi sistemasidan kelib tushuvchi toksinlar esa jigar bo‘lagini hamma sohalari gepatostitlarini shikastlaydi. Bunda oksigenastiyasi yaxshi bo‘lmagan stentrolobulyar gepatostitlar periferik qismiga nisbatan ko‘proq shikastlanadi. Gepatostitlarni funkstiyasi shuningdek fiziologik jarayonlarni kunlik ritmiga xam bog‘liq bo‘ladi. E.Forsgren (1935) tekshirishlarida assimilyastiya jarayonlari ustun bo‘lgan tungi vaqtarda jigarda glikogen - maksimal miqdorda, kunduzi - sekrestiya jarayonlari ustun bo‘lgan vaqtarda (masalan o‘t hosil bo‘lishida) glikogen miqdori sezilarli darajada kamayishini kuzatgan. Bunda glikogen eng birlamchi bo‘lakni markaziy sohasida kamayadi, to‘planishi esa periferiyadan markazga tomon ortgan bo‘ladi.

Gepatostitlar – noto‘g‘ri geksogonal shaklda, qirralari o‘tmas bo‘ladi. Uzunasiga o‘lchami 20-25mkm, eniga 15-20mkm. Gepatostitlarni vaskulyar rezorbtiv (sinusoid tomirlarga qaragan) va biliar sekretor (o‘t kanalchalariga qaragan) qutblari farqlaniladi.

**Sitoplazmatik matriks** lipidlarga boy bo‘lib, 3ta qatlamdan tuzilgan. StPM tashqi va ichki qatlami osmiofil, oraliqlarida kengligi 25-30A bo‘lgan tirqish ko‘rinishida osmiofob qatlam joylashadi. Gepatostitlarni hujayra membranasida StPMni tashqi muhit bilan bog‘lanishni ta’minlovchi diametri 50A-gacha bo‘lgan teshiklari mavjud. StAM ko‘plab o‘sintalar – mikrovorsinkalar hosil qiladi, ular ayniqsa vaskulyar qutbda yorqin namoyon bo‘ladi. Mikrovorsinkalarni soni, shakli va uzunligi hujayralarni funkstional xolatiga bog‘liq bo‘ladi. Bu o‘sintalar gepatostitlar StPMni faol funkstional maydonini ko‘paytiradi. Hujayralarning qo‘shni gepatostitlarga qaragan yuzasida ham hujayralarni bir – birlari bilan mustaxkam bog‘lanishini ta’minlovchi stitoplazmatik bo‘rtmalar bo‘ladi. Vaskulyar qutbda ko‘pchilik metabolitlarni mikrovorsinkalar tomonidan ushlanishi, shuningdek gepatostitlarni billiar qutbida sekretni (ekzostitoz) ajratib chiqarilishi – fermentlar sistemasi tomonidan boshqariladigan faol jarayondir, buni IF va ATF-azani ushbu tuzilmalarda yuqori faoliyida bo‘lishidan guvoxlik beradi. Ba’zi moddalar hujayraga StPM teshikchalaridan bevosita EPT stisternalariga o‘tishi taxmin qilinadi.

**Gialoplazma** – yoki matriks (gepatostitlar stitoplazmasini asosiy moddasi), kuchsiz osmiofil, asosan gomogen, sust namoyon bo‘lgan mayda granulalari, pufakchalar va fibrillalaridan iborat. Stitoplazma matriksini eruvchan komponentlari - bir qator oqsillarni, oz miqdorda RNK va lipidlarni, glikoliz fermentlarini, aminokislotalar, lipidlar sintezida ishtirok etuvchi fermentlarini tarkibiga kiritadi. Gialoplazmada stitoplazmatik organellalar va kiritmalar saqlanadi.

**Yadro** gepatostitlarni markaziy qismida joylashadi. Gepatostitlar asosan bitta pufaksimon shakldagi diametri 7-16mkm bo‘lgan yadrolarni saqlaydi. 5-8% gepatostitlar ikki yadroga ega. Ikki yadroli gepatostitlarda RNK ikkala yadroda ham bir tekis taqsimlangan bo‘ladi. Yadrolar tashqi qatlami aniqrok namoyon bo‘lgan ikki qatlamlı osmiofil membrana bilan chegaralangan. Yadro membranalarida o‘lchamlari 300-100A teshikchalar bo‘lib, ular orqali yadro va stitoplazma o‘rtasida makromolekulalarni almashinuvi yuz beradi. Gepatostitlar

nukleoplazmasi bir tekis taqsimlagan elektron zich, o'lchami 200Agacha mayda donachalar va yupqa fibrillarni saqlaydi. Bu yadro komponentlari nukleoproteidlarni namoyon qiladi.

Yadro xromatinida DNK va gisionlar (DNP kompleksi ko'rinishida), nordon oqsillar, r- va i-RNKLAR joylashadi. Gepatostitlar yadrosida oqsillar, RNK va DNK sintezida intirok etuvchi ko'p miqdordagi fermentlar aniqlangan. Yadro suyuqligida yadro oqsilini globulin frakstiyasi, sezilardi miqdorda r- va t-RNK va oz miqdorda i-RNK bo'ladi. Gepatostitlarni o'lchamlari o'zgarib turadi: mayda o'lchamligi - bo'lak markazi va periferiyasidagi gepatostitlar uchun xarakterli, intermediar gepatostitlar esa birmuncha yirikroq yadrolar saqlaydi. Yadro poliploidizastiyasi darajasini aks ettiruvchi geometrik progressiyada o'sib boruvchi (2:4:8) 3 yadro sinfi farqlaniladi.

**Yadrocha** odatda biroz eksstentrik joylashadi. U yadroga nisbatan elektron zich, membranaga ega emas, RNKga mos keluvchi donador va fibrilyar materiallardan iborat. Ba'zan yadroda 2-3 yadrocha bo'ladi. Yadrochani gipertrofiyasi oqsil sintezini ortganligini bildiradi. Yadrocha tarkibida ko'p miqdorda r-RNK, oz miqdorda i-RNK, fosfolipidlar va nordon oqsillar kiradi.

**Gepatostitlarni EPT** egri-bugri, parallel joylashgan membrana, pufakcha va stisternalar bilan namoyon bo'ladi. EPT ikki qismdan – donador (ergastoplazma) va sillik qismlardan iborat. Fiziologik sharoitlarda ergastoplazma EPT nisbatan rivojlangan bo'ladi. Ergastoplazma asosan yadro va mitoxondriyalar chekkasida joylashadi. Uni tashqi membranasida oz miqdorda diametri 120-150A bo'lgan osmiofil granulalar – ribosomalar (Pallada granulasi, RNK stitoplazmatik donachalari) bo'ladi. Ergastoplazmani granulalarida oqsil sintezi va aminokislotalarni to'planishi yuz beradi. Fiksastiya bo'lмаган ribosomalar stitoplazmada erkin yotadi yoki rozetkasimon komplekslarni (polisomalar, poliribosomalar) birlashtiradi. Bo'lakni periferik qismidagi ERT donador qismlari bir tekis joylashadi, ribosomalar betartib fiksastiyalanadi, erkin ribosomalar markaziy soha gepatostitlarga nisbatan ko'proq holatlarda polisom komplekslarini hosil qiladi. Gepatostitni billiar qutbida joylashgan silliq EPT membranasida

murakkab oqsillar (gliko- va lipoproteidlar), glikogen, xolesterin sintezi bo‘ladi. Periportal gepatostitlarni silliq membranasi yirik pufaksimon kengaymalarga ega bo‘lib, ko‘p miqdorda anostomozlar hosil qiladi. EPT bu ikkala sohasi ketma-ket keluvchi naychalar sistemasini namoyon qilib, o‘zaro bog‘liklikga ega. Ular steriodlar metabolizimida, dori va toksik moddalarni zararlantirishda, bilirubin konyugastiyasida ishtirok etuvchi fermentlarga boy bo‘ladi. EPTni marker fermenti G-6-F-azadir. EPT turli stitoplazmatik tuzilmalarni o‘zaro bog‘laydi (uni yadro bilan, Goldji apparati bilan, StPM bilan bog‘likligi yozilgan), bu EPT turli birikmalarni hujayra ichiga kirishini ta’minlovchi yaxlit transport sistema deb hisoblashgan asos beradi. EPT gepatostitlarni sezuvchan sistemasi bo‘lib, turli patogen ta’sirlarga boshqa tuzilmalarga nisbatan tezroq ta’sirlanadi.

Kengligi 0,2mkm bo‘lgan o‘t kanalchalar bilan o‘ralgan gepatostit stitoplazmasini sohasini «maxsuslashtirilgan ektoplazma sohasi» deb ataladi. Unda diametri 100-200nm bo‘lgan oddiy membrana vakuollalari o‘ralgan oz miqdorda pufakchalar, qisqa tubulyar tuzilmalar topiladi. Bu tuzilmalar EPT hosilalari hisoblanib, o‘t sekrestiyasi jarayonida ishtirok etadi.

**Mitochondriyalar** - gepatostitlar stitoplazmasida bir tekis joylashgan eng ko‘p va polimorf tuzilmalardir. Bir hujayrada ularni miqdori 1500-2000taga etadi, o‘lchamlari esa 0,5dan 7,0mkm-gacha bo‘ladi. Odatda mitochondriyalar yumalok, oval yoki cho‘zinchoq shaklda, uch qatlamlı membrana bilan o‘ralgan (ikkiasi osmofil va ular oralig‘ida osmiofob tirqish bilan) bo‘ladi. Membranani ichki qatlamini membrana to‘sиг‘и – kristalar hosil qiladi, unda diametri 85A-gacha bo‘lgan granulyar parchalar joylashadi (elementar parchalar, Grin granulalari). Elementar parchalarda oksidlanish fosforillanish sodir bo‘ladi. Mitochondriyalar matriksi mayda donador tuzilishga ega, 100A-gacha bo‘lgan RNK granulalarini, DNK-ni nozik ipchalarini va oz miqdorda 250A-gacha bo‘lgan lipid kiritmalarni tutadi. Mitochondriyalar stitoplazmani 22%ni egallaydi, uni membranasi yuzasini hajmi gepatostitdagidek –  $2900-3000\text{mkm}^2$  bo‘ladi (Bresler, 1969). Mitochondriyalarda hujayrani 50dan 95%gacha fermentlari saqlanib, ular muhim fermentativ majmualarga yo‘naltirilgan: ya’ni ular - Krebs stiklini fermentlari,

nafas zanjiri elektronlari tashuvchilari, dezaminirlash, transaminirlash, yog' kislotalarini oksidlash, DNK- va RNK polimerazalar. Jigar bo'lagini periferik sohasidagi mitoxondriyalar oval shaklga ega bo'lib, o'zida oz miqdorda kristalar tutadi. Mitoxondriyalarni regenerastiyasi bo'linish va kurtaklanish orqali yuzaga chiqib, yangilanish yarim davri 5kunga teng. Mitoxondriyalar judayam dinamik tuzilmalardir, turli shikastlovchi omillar ta'siri tez berilib, tezda shakli va o'lchamlarini o'zgartiradi, shishadi.

**Lizosomalar** - diametri 0,3dan 1mkm va undan yuqori bo'lgan organellalarni geterogen guruxi. Ular bir qavatli lipoproteid membrana bilan o'ralgan bo'lib, yumaloq yoki ellipsoid shaklda bo'ladi. Lizosomalar odatda gepatostitlarni billiar qutbida joylashadi, shunga mos ravishda peribilliar tanachalar deb ataladi. Jigar bo'lagini periferik sohasidagi lizosomalar oz miqdorda bo'lib, markaziy sohalardagidek o't kanalchalar bilan kontaktda bo'lmaydi. Oxirgi ma'lumotlar bo'yicha lizomomalarda 36 xil ferment bo'lib, bir funkstional guruxni tashkil qiluvchi - asosan gidrolazalar bo'ladi. Lizosomalarni marker fermenti NF-dir. Lizosomalarni fermentlari nofaol holatda bo'lib, ularni faollashuvi o'tkazuvchanlik ortganida yoki lizosomal membrana yorilganda kuzatiladi. Lizosomalar shuningdek fagostitlangan hujayra detritlari, ferritin kiritmalari, gemosiderin va lipofusstinni saqlaydi. Birlamchi (faqat gidrolaza saqlaydi) va ikkilamchi (gidrolaza va hazm qilinishi lozim bo'lgan substratlarni saqlovchi) lizosomalar farqlaniladi. Ikkilamchi lizosomalar bo'linadi: 1) hujayraga pino- va fagostitoz yo'li bilan tushgan ekzogen moddalarni lizisini bajaruvchi oziq vakuollari,

2) endogen materiallarni lizisni bajaruvchi autofag vakuolalar. Ularda stitoplazmatik organellalarni sekvestrlangan fragmentlari saqlanadi. 3) substratni parchalanishi tugallangan kompakt material saqlovchi qoldiq tanachalar yoki segresomalar.

Ayrim mualliflar fikriga ko'ra (Rayxlin, 1972), lizosomalar silliq EPT Goldji apparatini ichki tomonida joylashgan qismidan rivojlanadi deb hisoblashadi. Lizosomalar pinostitoz pufakchalarini qo'shilib ketishi natijasida yuza keluvchi hujayrani vaktinchalik tuzilmasi deb xam qaraladi. Lizosomalarni vazifasi turli –

tumandir, ular faqat hujayra ichi «hazmini» amalga oshirishdan tashqari, hujayrani sekretor faoliyatida (o‘t hosil bo‘lishida), himoya reakstiyalarida, hujayra ichi gomeostazni ta’minlovchi fiziologik va reparativ regenerastiyalarda ham ishtirok etadi.

**Goldji apparati** (kompleksi) ikki qavatlari membranadan: sillik, devorlari yirik vakuolalar va yassi, o‘lchami 40dan 400A-gacha bo‘lgan stisternalardan tashkil topgan mayda pufakchalardan iborat bo‘ladi. Goldji apparati gepatostitlarni sekretor sohasida – billiar qutbida joylashgan. Bo‘lak periferiyasi gepatostitlarida Goldji apparati markaziga nisbatan yirikroq bo‘ladi. Goldji apparatida proteinlarni konstentrastiyasi, glikoproteidlar va nordon mukopolisaxaridlarni fosforlanishi yuz beradi. Goldji apparatini membranasida nukleoziddifosfataza aniqlangan. O‘t suyuqligi sekrestiyasini fazasiga boqliq tarzda Goldji kompleksi komponentlari o‘zgarib turadi. Bu kompleksni kelib chiqishi oxirigacha aniqlanmagan, Goldji apparatini tuzilmalari EPT membranasidan yuzaga keladi deb taxmin qilinadi.

**Peroksisomalar** - grankulyar matriks va biroz zichroq kristall tuzilishli nukleozid saqlovchi, o‘lchami 50A-gacha bo‘lgan birqavatlari membrana bilan chegaralangan mikrotanachalardir. Peroksisomalar gepatostitlarni biliar qutbida Goldji apparati va EPT sohasida joylashadi. Peroksisomalar purinlarni oksidlanishi, d-aminokislotalarni degradastiyasida ishtirok etadi, glikolizda ahamiyatga ega.

**Sitoplazmatik mikronaychalar** - diametri 150-200A, devori protofilamentlardan iborat. Bu tuzilma hujayra ichi transporti va tanyanchida ishtirok etadi.

Organellalardan tashqari gepatostitlar sitoplazmasida turli kirimalar – paraplatzmatik hosilalar xam bo‘ladi. Bu kirimalar bitta holatda gepatostitlarni sekretor faoliyatida (o‘t), boshqa holatlarda esa ularni to‘planishi(glikogen, lipidlar, pigmentlar) natijasida paydo bo‘ladi.

**Glikogen** normada jigarni 20%ga yakin og‘rligini tashkil etadi. Fiziologik holatlarda glikogenni emirilishi va to‘planishi ritmik bo‘ladi, shuni hisobiga gistokimyoviy tekshirishlarda glikogen bitta holatda butun bo‘lak bo‘ylab diffuz

yoki uning ayrim sohalarida (stentrolobulyar yoki periportal) aniqlanishi mumkin. Glikogen maxsus gistokimyoviy reakstiyalarda (kesimlarni Schiff reaktivlari, Best karmini va b. bilan bo‘yalganida) stitoplazmasini butun yuzasini egallab mayda donador tuzilmalar ko‘rinishida aniqlaniladi. To‘qimalar spirtda fiksastiyalanganda glikogen granulalari hujayra membranasini bir tomoniga siljishi (artefakt) bilan namoyon bo‘ladi. Elektron-mikroskopik tekshirilganda glikogen granulalarini diametr 150-400A, yumaloq ko‘rinishda silliq konturli membrana sohasida aniqlaniladi, bu erda glikogen rozetkasimon to‘plamlar hosil qiladi.

O‘t suyuqligi- gepatostitlar tomonidan doimiy sekrestiya qilinadi. O‘t sekrestiyasini ma’lum bir kunlik ritmi mavjud. Fiziologik o‘latlarda o‘t hujayrada aniqlanilmagan.

**Lipidlar** – normada gepatostitlar stitoplazmada kam va oz miqdorda kuzatiladi. Fiziologik xolatlarda jigar to‘qimasida oz miqdorda erkin yog‘lar saqlanadi. Jigarda yog‘lar asosan histologik aniqlanilmaydigan LP komplekslaridan hosil bo‘lib, jigar og‘irligini 5-6%ni tashkil etadi. Bunda uni 90% fosfolipidlar, 10% esa triglisteridlar bo‘ladi. Histologik tekshirishlarda lipidlar yog‘larni erituvchilarida erib ketadi va ularni o‘rnida mayda bo‘sh vakuolalar kuzatiladi. Maxsus gistokimyoviy tekshirishlarda (muzlatilgan kesimlarni sudan yoki sharlux qizili bilan bo‘yalganda) gepatostitlar stitoplazmasida yog‘ kiritmalari qirmizi-qizg‘ish tomchi yoki vakuola ko‘rinishida aniqlaniladi. Osmiy kislotasi lipidlar bilan yaxshi bog‘lanadi, shuning hisobiga yog‘ kiritmalari elektronogrammalarda membranaga ega bo‘lмаган, qirralari hoshiyali, yumaloq yoki ellipsoid granulalar ko‘rinishida kuzatiladi. Ba’zan mitoxondriyalarda mayda lipid kiritmalar topiladi.

**Pigmentlar** – a’zo va to‘qimaga rang beruvchi, turli tabiatga ega bo‘lgan, tomchi, kristall yoki donacha ko‘rinishiga ega. Ekzo- va endogen lipidlar tafovut qilinadi. Endogen pigmentlar organizmda oqsillar(proteinogen) va gemdan hosil bo‘ladi.

**Lipofusstinlar** – tillarang-sarg‘ish rangdagi proteinogen pigment, mayda donador tuzilishga ega. Lipofusstinlar tarkibiga oqsillar, aminokislotalar, lipidlar


kiradi. Lipofusstinlar sarg‘ish flyuresstenstiya beradi, vodorod peroksidida rangsizlanadi, kislotalarga chidamli, ishqorlarga qisman chidamli, kumushni qaytaymaydi. Lipofusstinlarni hosil bo‘lishida yohlar ishtirok etib, ularni oksidlanishi jarayonida neytral va nordon yog‘lar, fosfolipidlar ketma - ketlikda hosil bo‘ladi. Normada lipofusstinlar jigar og‘irligini 3-4%ni tashkil etib, stentrolobulyar soha gepatostitlarini biliar qutbida joylashadi. To‘qimalarda ularni aniqlash uchun ShIK reakstiyasi (Shiff reaktiv)dan foydalaniadi. Lipofusstinlarni gistokimyoviy xususiyati ularni etuklik darajasiga bog‘liq. Elektronogrammalarda lipofusstinlar lizosomalarda joylashib, mayda donador tuzilishga ega va globulyar (pigmentni lipidli komponenti) va gomogen komponentlardan iborat. Yosh ulg‘ayishi va jigar atrofiyasida lipofusstin pigmentini miqdori ortadi (qarish pigmenti).


**Ferritin** – temir saqlovchi pigment, oqsil (apoferitin) va temirdan(17-23%) tarkib topgan. Boshqa pigmentlarga nisbatan kamroq kuzatiladi, uni maxsus bo‘yash usulida (kobalt) aniqlaniladi. Ferritin kristallari jigar bo‘lagini periferik sohalari gepatostitlarida joylashgan. Elektronnogrammada ferritin o‘lcham 95-600A elektron zich aglomerat ko‘rinishida gepatostitlar stitoplazmasida erkin yotuvchi yoki lizosomalarga birikkan (siderosomalar) pigment ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

**Hulosa qilib aytilganda:** jigar – odam organizmidagi eng yirik bez a’zo hisoblanadi, vazni 1200-1500g, tana vaznining 1/50 qismini tashkil qiladi. Gepatostitlar jigar vaznining 90%, xajmining 70% tashkil qilib, har bir milligramm jigar to‘qimasida 202 000 ta hujayra, undan 172 000 gepatostitlar, 30 000 stroma hujayralari mavjud bo‘ladi. Gepatostitlar ko‘p qirrali, dumaloq, to‘rt burchakli, kattaligi 30 mkm.-li hujayralar hisoblanadi. Gepatostitlar xayvonlar jigarida 150 kun umr ko‘radi. Jigar hujayralari juft-juft ustunlar paydo qilib joylashadi, ularni ikkala tomonadan ham Disse bo‘shlig‘i va sinusoid endoteliysi o‘rab turadi. Sinusoidlar endoteliysi orasida makrofag xususiyatiga ega bo‘lgan Kupfer hujayralari o‘rin egallagan. Disse bo‘shlig‘ida Ito hujayralari yoki lipostitlar joylashgan. Jigar to‘qimasi struktur birligi “markazida v centrals bo‘lgan chin


bo‘lakchalardan” iborat. Rappaport bo‘yicha uchta funkstional maydonlar (astinuslar) farq qilinadi. 1-si portal uchlik tomirlari atrofida; 3-si markaziy vena atrofida; 2-si ular oralig‘ida joylashgan. Ulardagi hujayralar funkstiyasi bo‘yicha farq qiladi. 1-maydonda Krebs stikli fermentlari ko‘p, moddalar almashinushi ustun, o‘t kislotasi ko‘p ishlab chiqariladi. 3-maydonda – dorilar metabolizmida ishtirok etuvchi stitoxrom R450 fermentlari va glutaminsintetaza ko‘p, zaharlar neytrallanadi, 2-maydonda glikoneogenez, glikoliz va ketogenet amalga oshadi.

Jigar qorin bo‘shlig‘ini yuqori bo‘limida, diafragma ostida joylashgan. Eng katta parenximatoz a’zo. O‘ng (kattaroq) va chap(kichikroq) bo‘lakdan iborat, oralig‘ida taqasimon bog‘lam chegaralab turadi. Yuzasi sillik, jigarrang rangda, og‘irligi katta yoshli insonlarda 1400-1600g. Jigar jigar arteriyasi(1/3qism) va darvoza venasidan (2/3 qism) qon bilan ta’milnandi. Jigarda o‘t suyukligi hosil bo‘lib, o‘t yo‘llari orqali chiqariladi.






Rasm -2. Jigarni normadagi bo‘lak va astinar tuzilishi (makro-mikroskopik ko‘rinishi).




Rasm -3. Jigarda arterial va venoz tomirlari, o‘t yo‘llarini joylashuvi sxemasi




Rasm -4. Jigarda arterial va venoz tomirlari, o‘t yo‘llarini joylashuvi sxemasi

**Etiologiyasi:** Jigar kasalliklari juda xilma-xildir. Ular irsiy va orttirilgan, birlamchi (haqiqiy jigar kasalligi) va ikkilamchi (boshqa kasalliklarda jigarni shikastlanishi) bo‘lishi mumkin. Infekstion (virusli hepatit, o‘tkir sariq isitma, leptospiroz, opistorxoz, tif isitmasi va boshqalar) va endogen (uremiya, tirotoksikoz) va ekzogen tabiatli intoksikastiyalar (alkogol, hepatotrop zaharlar, ovqatdan zaharlanish) ko‘pincha jigar kasalliklariga olib keladi. Qon aylanishining buzilishi (karaxtlik, surunkali venoz to‘laqonlilik, to‘yib ovqatlanmaslik (oqsil va vitamin kamligi) va metabolik o‘zgarishlar (jigarning metabolik kasalliklari) katta ahamiyatga ega.



Rasm -5. Jigarda shikastlovchi omillar ta'sirida yuz beradigan makroskopik o'zgarishlarni ketma-ketligi.



Rasm -6. Jigarda shikastlovchi omillar ta'sirida yuz beradigan mikroskopik o'zgarishlarni ketma-ketligi.

**Patogenezi:** Jigarda uning kasallikkari ostida yotgan morfologik o'zgarishlar hepatostitlarning distrofiyasi va nekrozi, stroma (portal yo'llar, sinusoidlar) va o't yo'llarining yallig'lanishi, disregenerativ va o'sma jarayonlari bilan namoyon bo'lishi mumkin. Jigarda hepatostitlarning distrofiyasi va nekrozi ustun bo'lgan holatlarda – u gepatoz, yallig'lanish ustunligi bo'lganda hepatit deyiladi. Jigar stirrozi asosida jigar to'qimalarining sklerozi va qayta tuzilishiga olib keladigan disregenerativ jarayonlar yotadi, bunda ko'pincha jigar o'smalari rivojlanadi.

## JIGARDA MODDALAR ALMASHINUVINING BUZILISHLARI


### Jigarda pigmentlarni to‘planishi

Jigarda **lipofusstin** pigmentini ko‘payishi (jigar lipofusstinozi) eng avvalo me’da ichak sistemasi kasalliklarida, nasliy kasalliklarda kuzatiladi. Pigment granulalarini soni (gepatostit stitoplazmasida 10tadan 45tagacha), o‘lchamlari (0,5dan 5,0mkm-gacha) turlicha (Dabina-Djonson sindromida, Jilber sindromida) bo‘ladi.

Kislotaga chidamli lipofusstin eksperimental chaqirilgan jigar stirrozida (dieta buzilganda) paydo bo‘ladi va steroid deb ataladi. Steroid – dag‘al donador, sarg‘ish-jigarrang rangdagi pigment, oksidlanishni dastlabi holatida bo‘ladi.

**Melanin** pigmenti – normada jigar to‘qimasida kuzatilmaydi, proteinogen pigmentlarga kiradi, dioksifenol hosilalarini tabiiy polimerizastiyasi mahsuloti hisoblanadi. Hosil bo‘lish manbai tirozin va triptofan hisoblanadi. Pigment flyuoresstiyalanmaydi, to‘q - qoramfir rangda, organik birikmalarda erimaydi, kuchli oksidlovchilarda rangsizlanadi ( $N_2O_2$  va b.). Melanin pigmenti Shmorli reakstiyasida aniqlaniladi. Dabina – Djonson sindromida, melanomani jigarga metastazida hepatostitlarda kuzatiladi.

**Gemosiderin** – donador tuzilishda, jigarrang-sarg‘imtir rangda. Normada jigarda aniqlanmaydi. Gemosiderinni to‘planishi jigar o‘lchamlarini kattalashishi bilan davom etadi, rangi zangsimon-qo‘ng‘ir ko‘rinish oladi. Mikroskopik tekshirishlarda Perls reakstiyasi yordamida jigar bo‘lagini periportal sohalaridagi hepatostitlarda aniqlaniladi. Hujayra ichida gemosiderin to‘planadigan joyi lizosomalardir. Pigment ishqoriy eritmalarda va kuchli kislotalarda erimaydi, o‘zida oqsil va uch valentli temir va b. tutadi. Gemosiderin o‘zida ortiqcha miqdorda temirni tutadi, u hujayra ichida (hepatostitlarda, RGS) - gemolitik anemiyalarda, gemoxromatozlarda, massiv gemotransfuziyalardan so‘ng gemoglobinni fermentli parchalanishi natijasida hosil bo‘ladi.




Rasm -7. Vilson – Konovalov kasalligida bosh miyada, ko‘z qorachig‘ida, periferik nervlarda, jigardagi makro-mikroskopik o‘zgarishlar.

**Gematin** – qo‘ng‘ir rangdagi pigment, oksigemoglobin gidrolizida hosil bo‘ladi. Bezugak kasalligida Kupfer hujayralarida to‘planadi, a’zoga qoramirkulrang rang beradi. Pigment plazmodiyilar bilan shikastlangan eritrostitlarda hosil bo‘ladi, gemolizlangandan so‘ng Kupfer hujayralari tomonidan fagostitlanadi.

**Porfirin** – gemdan oldin hosil bo‘luvchi pigment, temir saqlamaydi, tetrapirrol yadroga ega. Pigment qizg‘ish-qirmizi flyuresstenstiyaga ega, ba’zi porfiriyalarda jigar to‘qimasida aniqlanildi.

**Gematoidin** – gemoglobinni emirilish mahsuloti, kristallik shaklga ega va sarg‘ish – jigarrang rangga ega, hujayradan tashqarida eski qon quyilish

o‘chog‘larida joylashadi. Qon quyilish o‘chog‘larida, shikastlanishlardagi travmatik kistalar devorida va bo‘sning‘ida aniqlaniladi.




Rasm -8. Organizmda gemosiderin pigmenti almashinuvini buzilishlari.

**Bilirubin** – o‘t pigmenti, kristallik tuzilishga ega, flyuresstentlanmaydi, kumushni qaytayadi. Jigar to‘qimasida bilirubin xolestazlarda Galla-Nolle reakstiyasi yordamida aniqlaniladi.

## **Jigar hujayralarini yog‘ bosishi**

Jigarni yog‘ bosganida o‘lchamlari kattalashadi, kesilganda xira tortadi, sarg‘ish rangda bo‘ladi. Agar jigar parenximasini 50% yog‘ bosgan bo‘lsa, yog‘li gepatoz haqida gapiriladi. Yog‘lar gepatostitlarda, RGS hujayralarida to‘planadi. Ushbu yog‘lar endostellyulyar (hujayra organellalarini destrukstiya natijasidagi) yoki ekzostellyulyar (qon va limfa orqali olib kelingan) bo‘ladi. Yog‘ bosgan jigar hujayralari gemitoksilin eozin usuli bilan bo‘yalganda yumaloq yoki oval shaklda yorug‘ bo‘yalmaydigan vakuola ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Yog‘ tomchilarini o‘zaro qo‘silib butun stitoplazmani egallashi mumkin. Yog‘ bosish keskin namoyon bo‘lganda jigar hujayralari emiriladi, yog‘ tomchilarini o‘zaro qo‘silib, hujayradan tashqari yirik yog‘ to‘plamlarini - «yog‘ kistalarini» hosil qiladi. Jigarni yog‘ bosishini gistokimyoviy tekshirishlarda gepatostitlar stitoplazmasida asosan triglisteridlar to‘planishi bilan kuzatiladi, ayrim holatlarda fosfolipidlar (jigar fosfolipidozida) to‘planadi. Jigarni yog‘ bosishi gepatostitlarda glikogenni, RNK-ni, oqsillarni, quyi faollikdagini oksireduktazalarni kamayishi bilan davom etadi. Elektronogrammada chekkalari hoshiyali va to‘lqinsimon chiziqli elektronzich vakuolalar ko‘rinishida yog‘ tomchilarini aniqlaniladi. Turli o‘lchamdagagi yog‘ tomchilarini stitoplazmada erkin yotadi yoki EPT stisternalarda joylashgan bo‘ladi. Yog‘ bosishni degenerativ shakllarini dastlabida yog‘ tomchilarini mitoxondriyalarda kuzatiladi. Yog‘ bosish kuchayganda gepatostitlarni organellalari ezilishi va siljishi kuzatiladi.

Jigarni yog‘ bosishini quyidagi ko‘rinishlarga bo‘linadi: a)dissemirlangan yog‘ bosish, bunda ba’zi gepatostitlarda yog‘ kiritmalari paydo bo‘lib, bo‘lakda dissemirlangan bo‘ladi, bu yog‘ bosish asosan fiziologik holatlarda (jigarni tranzitor alimentar yog‘ bosishi) kuzatiladi b) zonal yog‘ bosish bunda jigar bo‘lagini markaziyligi, intermediar yoki periferik sohalarini gepatostitlari yog‘ bosishi yuz beradi; v) diffuz yog‘ bosish – bunda jigar bo‘lagini hamma sohalarini gepatostitlarini yog‘ bosishi kuzatiladi.



Rasm -9. Periportal soxa gepatostitlar stitoplazmasidagi mayda va yirik yog' kiritmalari. Gematoksilin- eozin usulida bo'yash.

Gepatostitlarni yog' bosishi boshqa patologik jarayonlar – gepatostitlarni oqsilli distrofiyasi va mezenximal – hujayrali reakstiyalar bilan birga bo'lishi mumkin.

I.V.Davidovskiy (1969) jigarni yog'li infiltrasiyasi va degenerativ semirishlarini (hujayrada normada ko'rilmaydigan yog'larni dekompozistiyasidagi) ajratgan. Jigarni yog'li infiltrasiyasi fiziologik va patologik ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Birinchi holatda ovqat hazm qilish jarayonida yog'larni ekzostellyulyar to'planishi bilan bog'liq bo'ladi. Ikkinchi tipida infiltrasiya ovqatlanish disbalansida, qandli diabetda va b. yuzaga keladi. Jigarni degenerativ yog' bosishiga Shixana sindromini misol keltirish mumkin.

Jigarni yog' bosishi qaytar jarayon. Sabablari bartaraf etilganda jigar parenximasini tuzilishi normal holatiga qaytadi. Lekin ba'zan jarayon kuchayib ketishi xam mumkin, bunda yuzaga keluvchi oqsilli distrofiya, gepatostitlarni nekrozi, mezenximal reakstiya - mikrostirkulyastyani buzilishiga, mikroangioarxitektonikani qayta qurilishi, biriktiruvchi to'qimani yangitdan hosil bo'lishi bilan birga davom etib, keyinchalik jigar stirrozi rivojlanadi. Jigar

to‘qimasida – lipoidlarni o‘tirishi (fosfatidlar, sterebrozidlar va b.) Goshe kasalligi va b. kuzatiladi.

### **Uglevodlar almashinuvini buzilishlari**

Klinikada gligogen almashinuvining buzilishi katta axamiyatga ega, u qandli diabetda va glikogenozlarda yorqin namoyon bo‘ladi.

Qandli diabetda jigarda glikogen zapasini sezilarli pasayishi kuzatiladi, miqdori 30-50martagacha kamayadi, jigar komasida u keskin kamayadi, ba’zan jigar parenximasidan butkul yo‘qoladi.

Glikogenozlarda jigar to‘qimasida glikogen miqdori keskin ortadi, gepatostitlar kattalashadi, yorug‘ ko‘rinish oladi, bunda stitoplazmasi, giperplaziyalangan silliq EPT, ko‘pchilik lizosomalar bo‘yoqlarga yaxshi bo‘yalmaydi.

Ba’zan glikogenni o‘tirishi yadroda izolyastiyalangan holatda bo‘ladi – gepatostitlar yadrolarini glikogenozi. Gematoksilin – eozin usulida bo‘yalgan preparatlarni kesimlari o‘rganilganda gepatostitlar yadrolarida yumaloq yoki noto‘g‘ri shakldagi diametri 4-8mkm, membrana bilan aniq chegaralangan, ishqorli bo‘yoqlarni yaxshi qabul qiluvchi bo‘sh vakuolalar ko‘rinishida kuzatiladi. Bu vakuolalar glikogen bo‘lishi hisobiga karmin Best va ShIF reaktivlarida yaxshi bo‘yaladi. Elektronnogrammada glikogen donador yoki to‘rsimon ko‘rinishda, ba’zan rozetkasimon shaklni hosil qiladi. Odatda gepatostitlar yadrosi bitta vakuola saqlaydi (bo‘lakni periportal sohasida). Yadro ichida glikogen vakuolalari saqlovchi gepatostitlar soni 1-2 dan 12-18tagacha bo‘ladi. Yadro glikogenozi ko‘pincha qandli diabetda, o‘t pufagi va me’da osti bezi kasalliklarida uchraydi. Yadro ichidagi vakuolalar stitoplazmatik kelib chiqishli bo‘lib, ularni paydo bo‘lishi me’da osti bezi va o‘t pufagi kasalliklariga xosligi qonuniydir.

Organizmda mukopolisaxaridlar oqsil bilan birikkan bo‘ladi (mukoproteidlar). Mukopolisaxaridlarni metabolizmi biriktiruvchi to‘qimani kollagen tolalari va asosiy modda bilan uzviy bog‘liq (masalan, nordon mukopolisaxarid – gialuron kislota – biriktiruvchi to‘qimani asosiy moddasini

«stementi» xisoblanadi. Surunkali gepatitlar va jigar stirrozlarida portal sohalarda biriktiruvchi to‘qimani shakllanishida nordon mukopolisaxaridlarni sezilarli ortishi kuzatiladi.


Oz miqdorda geksoza va geksozamin saqlovchi mukoproteidlar retikulyar tolalarni tarkibiga kiradi. Glikoproteidlar metabolizmini buzilishi jigarni surunkali kasalliklarida kuzatiladi. Fukoidozlarda jigar to‘qimasida mukopolisaxaridlari va fukkoza saqlovchi glikolipidlar o‘tirishi kuzatiladi.

Mustin – shilimshiqni tarkibiy qismi bo‘lgan neytral va nordon polisaxarid kompleksidir. Patologik sharoitlarda jigar ichi o‘t yo‘llari epiteliysi shilimshiq ishlab chiqarishi o‘t suyuqligini chiqishini qiyinlashtiradi.

### **Oqsilli distrofiyalar**

Gidropik distrofiya – gepatostitlarni yorug‘ bo‘kishi, bunda gepatostitlar hajmi ortadi, stitoplazmasi optik bo‘sdek ko‘rinadi. Stitoplazmatik oqsillarni qoldiqlari hujayra membranasida va perinuklear sohalarda aniqlaniladi, gistokimyoviy reakstiyalarni intnensivligi kamayadi. Pironinofil (RNP) moddalar miqdori ham kamayadi, RNP-larni izoelektrik nuqtasi nordon muhit tomonga siljiydi. Glikogen miqdori va oksireduktaza faoligi pasayadi, gidrolazalarni faoligi ortadi. Gidropik distrofiyani yorqinroq namoyon bo‘lish ko‘rinishi «ballon distrofiyadir» (bu terminni 1922yilda B.Fisher-Wasels kiritgan). Ballon distrofiya qaytmash jarayon va kollikvastion nekrozga olib boradi.


Elektron-mikroskopik EPT fragmentasiyasi va vakuolizasiyasi, parallel membranalarni yo‘qolishi, ergastoplazmani degranulyasiyasi kuzatiladi. Mitochondriyalar shishadi, matrikslari donadordek ko‘rinish oladi, kristalari yo‘qoladi. Yadroda xromatinni marginasiyasi kuzatiladi. Rivojlanish mexanizmi asosida organella membranalari tarkibiga kiruvchi oqsil-lipid komplekslarini emirilishi, stitoplazmani chekka sohalarini yorug‘lanishi va hujayra organellalarini to‘liq parchalanishi - kollikvastion nekrozi (stitoliz) yotadi.



Rasm -10. Gepatostitlarni gialin tomchili va vakuol distrofiyasi. Gematoksilin – eozin usulida bo‘yash.

Gepatostitlarni gidropik distrofiyasi VG (og‘ir va o‘rtacha og‘irlikdagi shakllarida), destruktiv surunkali gepatitlarda, jigar stirrozlaridagi distrofik o‘zgarishlarda, uzoq davom etgan jigar va jigardan tashqari xolestazlarda kuzatiladi.

**Gialin distrofiyalarda** – gepatostitlarni o‘lchamlari kichiklashgan, stitoplazmasi gomogen, gialinlashgandek namoyon bo‘ladi. Tinktorial xususiyatlarni o‘zgarishi hisobiga gepatostitlar nordon bo‘yoqlarga intensiv bo‘yaladi, shuning uchun xam bu distrofiya astidofil deb ataladi.



Rasm -11. Jigar amilidozi (makro-mikroskopik ko‘rinishi, aniqlashdagi sinamalar, etiologik omillari).

Astidofil distrofiya hodisasi kuzatilgan gepatostitlar gistokimyoviy tekshirilganda umumi oqsil va gistonlarga, pironifiliya va ShIK-musbat birikmalar miqdorini ortishi bilan intensiv reakstiyalari ortadi. Bu tuzilmalarni RNK-aza va amilazaga rezistentliliqi ularni RNK va glikogen miqdorini ortishi bilan bog‘liqligi yo‘qlidan guvoxlik beradi.

Elektron-mikroskopik tekshirishlarda gomogen astidofil tuzilmalar hujayra ichi membranasi komplekslarini to‘planishi ekanligi aniqlangan. Organellalar membranasi zichlashadi, kompakt joylashadi. Jarayon progressiyalanganda jarayonni qaytmasligini bildiruvchi organellalarni emirilishi yuz beradi.

Patogenetik gialin distrofiya hujayra membranasini o‘tkazuvchanligini ortishi, suyuqliklarni yo‘qotish va oqsillarni fizik-kimyoviy o‘zgarishlari bilan bog‘liq, natijada oqsilli substansiylar gomogen, zichroq bo‘lib qoladi.

Gepatostitlarni gialin distrofiyasi turli xil patogen ta'sirlarda – virus tabiatli (o'tkir virusli gepatitlarda va b.), mexanik sariqliklarda va jigarni boshqa shikastlanishlarida kuzatiladi.

### **JIGARDA QON AYLANISHLARINI BUZILISHLARI**


Jigarda qon aylanishlarini o'tkir va surunkali, umumiy va mahalliy buzilishlari a'zoni to'laqonliligi yoki kamqonliligiga olib borib, ko'p uchraydi va turlicha namoyon bo'ladi.

Jigarni venoz dimlanishdagi to'laqonliligi yurak va o'pkalarni kasalliklaridagi qon aylanishlarini buzilishlari bilan bog'liqdir. Qon aylanishini surunkali etishmovchiligi gepatomegaliyaga olib boradi. Bunda jigarni qirralari to'mtoqlashadi, qobig'i zichlashadi, yuzasini ba'zi sohalarida oqimtir dog'lar yoki chizimchalar paydo bo'ladi. Kesilganda jigar to'qimasi ola-bo'la ko'rinishda bo'lib, jigar bo'lagini markaziy qismini to'laqonliligi hisobiga, u muskat yong'og'i sur'atini eslatadi.

Mikroskop ostida ko'rilmagan jigar bo'lagini markaziy venalari va sinusoidlari kengaygan, bo'shlig'i qonga to'la bo'ladi. Yaqin atrofdagi gepatostitlar atrofiyalanadi, ba'zan nekrozlanadi (bo'lak markazi deparenximizastiyasi), stromasida kollaps kuzatiladi. Kolapsdan tashqari fibroblastlar tomonidan faol tarzda retikulyar tolalar hosil qilinadi, bu dimlanishlarda bo'lak markazida fibrozni yuzaga kelishida ahxamiyatga ega bo'ladi. Gepatostitlarni atrofiyasi va nekrozi - to'laqonli, kengaygan sinusoidlardagi mexanik bosim ta'siridan tashqari gipoksiya bilan xam bog'liq bo'ladi. Jigar to'qimasini gipoksiyasi parenximasini tarqoq yog' bosishiga olib boradi. Portal sohalarni fibrozi kamroq kuzatiladi. Chin holdagi kardiogen stirrozlar – nisbatan kam uchraydi. Venoz to'laqonliliklarda jigar parenximasidagi gistokimyoviy reakstiyalar va ultratuzilmalaridagi o'zgarishlar - patologik o'zgarishlarni xarakteri bilan aniqlanadi (nekroz, biriktiruvchi to'qimani o'sishi va b.).

**Jigarda o'tkir qon aylanishini etishmovchiligidida** xam shunga o'xshash o'zgarishlar kuzatilib, ular to'laqonlilikni darjasini va muddatiga bog'liq bo'ladi

Jigarni mahaliy to'laqonliliklari - bir yoki bir necha jigar venalarida qon oqishini buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. Bunday holatlar Kiari kasalligida va Badda – Kiari sindromida kuzatiladi.



Rasm -12. Jigarni surunkali venoz to'laqonliligidagi jigar fibrozi morfogenezini rivojlanishi sxemasi.


**Jigarni kamqonliligi** umumiy kamqonlilikda, atrof a'zolar bilan jigar ezib qo'yilganda kuzatiladi. Bunga shartli ravishda darvoza venani yoki uni tarmoqlarini trombozida(piletromboz) kuzatiladigan darvoza venalari sistemasidagi qon aylanishlarini buzilishlari kiritish mumkin bo'ladi. Bunday holatlarda jigar arteriyalariga qonni kelishi jigardagi umumiy qon hisobiga kompensastiya qilinadi. Jigar arteriyalari tiqinida a'zoni o'chog'li kamqonliligi – ishemik infarkti yuzaga keladi. Makroskopik infarkt sohasi atrof to'qimadan o'zining oqish-sarg'imtir rangi va gemorrargik xoshiyasi bilan farqlanib turadi. Mikroskopik infarkt sohasida hepatostitlarni nekrozi va leykostitlar, pigmentlarni ko'p miqdorda tutgan makrofaglardan iborat demorkastion yallig'lanish sohasi bilan namoyon bo'ladi.

## **JIGARDA YALLIG‘LANISH VA IMMUNOLOGIK REAKSIYALAR**

Jigarda yallig‘lanish mikrostirkulyastiyadagi o‘zgarishlar bilan biriktiruvchi to‘qimani kompleks reakstiya sifatida namoyon bo‘ladi (Strukov, 1971). Jigarda yallig‘lanish reakstiyasini biologik ta’siri 2 xil bo‘ladi: 1) patogen omilni ta’siridan himoyalash, u fagostitoz va immunitet hosil bo‘lishi bilan namoyon bo‘ladi. 2) to‘qimaga salbiy ta’siri bilan (nekroz rivolanishiga qadar).

Jigar to‘qimasidagi yallig‘lanish reakstiyasi birlamchi (masalan, retikulogistiostitar sistemaga tropizmi bo‘lgan qo‘zg‘atuvchilarni ta’siri bilan bog‘liq) va ikkilamchi (parenximani turli kelib chiqishli distrofik va nekrobiotik o‘zgarishlarida yuzaga keluvchi) bo‘lishi mumkin. Yallig‘lanishni belgilarida biri - qon plazmasi kolloidlari uchun tomirlar o‘tkazuvchanligi ortishi bilan bog‘liq stromani shishi hisoblanadi. Ekssudatni (aniqrog‘i yallig‘lanish infiltratini) asosiy qismini zardobning suyuk qismi (eng birlamchi albuminlar, keyinchalik globulinlar va fibrinogen), qonni shaklli elementlari (qonni migrastiyanuvchi neytrofillari, limfostitlar, monostitlar va b), endoteliy hujayralari va ko‘payayotgan biriktiruvchi to‘qima hujayralari (gistiostitlar, fibrostitlar) tashkil qiladi. Infiltrastiya bo‘layotgan hujayra elementlarini gistokimyoviy tekshirishlarda fermentlar faolligini yuqoriligi, DNK va RNK sintezini ortganligi kuzatiladi. Oksireduktazani yuqori faolligi – biologik nafas va oksidli fosforillanish jarayonlarini, gidrolazaniki esa – yallig‘lanish infiltratlari hujayralarini lizosomal sistemasini faolashuvini namoyon qiladi. Yallig‘lanish infiltrati hujayralarini funkstional faoliyatini yuqoriligi - kislород va oziq moddalarni sarflanishida gepatostitlarga raqobatchi bo‘ladi, bu gepatostitlarni shikastlanishini kuchaytiruvchi omillardan biri hisoblanadi. Jigar to‘qimasida yallig‘lanish infiltratlari bo‘lakni ma’lum bir sohasini (masalan infekstion gepatitlarda periportal), o‘chog‘li yoki bo‘lakni butunlay diffuz holda egallashi mumkin. Portal maydonlardagi infiltratlari chegaralangan yoki bo‘lak ichi hujayra infiltrastiysi bilan birga bo‘lishi mumkin bo‘ladi. Portal maydonlarda hujayra infiltratlari diffuz yoki portal triadani ba’zi elementlari atrofida (perivaskulit, perilimfangit, perixolangit) tanlab joylanishi mumkin. Portal maydonlardan hujayra

infiltratlarini terminal plastinka orqali bo‘lak parenximasiga o‘tishi, periportal gepatostitlarni alterastiyasi – «zinapoyasimon» nekroz bilan hamrox bo‘ladi. Bunday o‘zgarishlar o‘tkir gepatitlarda (eng birlamchi virusli gepatitlarda), surunkali destruktiv gepatitlarda va jigar stirrozini faol shakllarida kuzatiladi.



Rasm -13. Portal traktdagi limfo – makrofagal infiltrastiya. Gematoksilin – eozin usulida bo‘yash.

Jigarni virusli shikastlanishlarida hujayra infiltratlari tarkibida asosan limfostitlar va plazmatik hujayralar, bakterial infekstiyalarda esa neytrofillari kuzatiladi. VG dastlabki vaqtlarida infiltratda neytrofillar va eozinofillar kuzatiladi. Jigarni ba’zi medikamentoz shikastlanishlarida eozinofillar ko‘plab kuzatiladi. Eozinofillarni o‘chog‘li to‘planishi (eozinofil granulema) eozinofil granulematozlarda, ichak qurtlari invaziyasida ko‘riladi. Neytrophillarni o‘chog‘li to‘planishi (mikroabsstesslar) bakterial infekstiyalarda, askaridozlarda, jigar amebiozlarida kuzatiladi. Limfostitlarni o‘chog‘li to‘planishi (hatto «limloid follikulalarni» hosil bo‘lishi) jigarni surunkali kasalliklarida kuzatiladi (masalan, birlamchi billiar stirrozlarda).

Infiltratlar tarkibiga faol endotelial hujayralar, monostitlar va gistiostitlardan hosil bo‘luvchi makrofaglar xam kiradi. Makrofaglar stitoplazmasida hujayralarni

emirilish mahsulotlari hazm bo‘ladi. Makrofaglar noto‘g‘ri yumaloq yoki poligonal shaklda, chizimchalari bilan yirik hujayralar ko‘rinishida bo‘ladi. Ularni stitoplazmasida yog‘larga, glikoproteidlarga, temirga, o‘t suyuqligiga reakstiya beruvchi turli xil pigmentlarni granulalari bo‘ladi. Bu hujayralarda gidrolaza, nordon fosfotazani faolligi yuqori bo‘ladi. Elektron – mikroskopik tekshirishlarda makrofaglar stitoplazmasida kup miqdorda lizosomalar, pinostitoz pufakchalar mavjudligi, EPT va Goldji apparati yaxshi rivojlanganligi aniqlaniladi. Mitoxondriyalar miqdori ko‘p bo‘lmaydi, ularni matrikslari zichlashgan, kristalari sust rivojlangan bo‘ladi. Makrofaglar emirilish mahsulotlarini utilizastiyasida va immunologik reakstiyalarda katta rol o‘ynaydi. Bu hujayralar viruslarni, bakteriyalarni, turli toksinlarni yutadi. Makrofaglar lizosomasida antigenlar lizosomal gidrolaza ta’siriga beriladi, oqibatida antigenlar determinantlari ajraladi. Keyinchalik ular makrofaglarni RNK-si bilan kompleks hosil qiladi, va antigenlar haqidagi axborotlarni limfostitlarga beradi, limfostitlar transformastiyanib, antitanachalar ishlab chiqaruvchi plazmatik hujayralarga aylanadi. Immunogenetika jarayonida makrofaglar yuzalarida stitofil antitanachalar adsorbstiyalanadi, shular yordamida antigenlar faolroq tutiladi va parchalanadi.


Yallig‘lanish va immunologik reakstiyalar o‘rtasida aniq chegara o‘tkazish imkonи yo‘q. Shikastlanish o‘chog‘ida hujayra elementlarini to‘planishi nospestifik yallig‘lanish reakstiyasini namoyon qiladi. Shu bilan birga makrofaglar va limfostitlarni mavjudligi maxsus immun reakstiyani, xususan asta sekin namoyon bo‘luvchi o‘ta sezgirlik reakstiyasini aks etttiradi (Serov, Kakturskiy, 1973). Bu o‘zgarishlarni immun asosdagi yallig‘lanish reakstiyasi deb hisoblash mumkin bo‘ladi (Strukov, 1972).

Semiz hujayralar stitoplazmasida ishqoriy buyoqlarga yaxshi bo‘yaluvchi va gistamin, serotonin, geprin saqllovchi granulalar bo‘ladi. Gistoradiografiya tekshirishlarda semiz hujayralarni manbai biriktiruvchi to‘qimada gistiostitlar, katta limfostitlar va poliblastlar ekanligi aniqlangan.

Jigar to‘qimasini produktiv yallig‘lanishini ayrim ko‘rinishlarida o‘chog‘li hujayra infiltratlari – granulemalar hosil bo‘ladi. Granulemalar tarkibiga – limfold,


epiteloid, plazmatik hujayralar, ba’zan ko‘p yadroli gigant hujayralar kiradi. Granulematoz gepatitlarni ahamiyati jihatidan surunkali infiltrativ gepatitlarga (Blyuger, 1968) kiritish lozim bo‘ladi. Granulemalarni hujayra tarkibi turlicha bo‘ladi: a) sil kasalligida – granulema markazida nekrotik massa, uning atrofida gigant Pirogov – Langxans hujayralar aralashmasi bilan yorug‘ epiteloid hujayralar, periferik sohasida esa limfold hujayralar bo‘ladi, b) sarkoidozda – hujayra tarkibi jixatidan sildagi granulemaga o‘xshash, faqat markaziy sohasida alterativ o‘zgarishlar emas, balki fibroplastik o‘zgarishlar kuzatiladi. V) zaxm kasalligida – granulema asosan limfold va plazmatik hujayralardan iborat bo‘lib, periferik qismida tomirlar ko‘p bo‘ladi. Endoteliyni proliferasiyasiga tomirlar bo‘shlig‘ini obliterasiyasiga olib borishi mumkin bo‘ladi. G) brustellez kasalligida – granulema hujayra tarkibi bo‘yicha sildagi granulemaga o‘xshash bo‘lib, lekin diffuz infiltratlar bo‘lishi mumkin bo‘ladi. D) ich terlamada kasalligida – granulema tarkibida yirik retikulyar hujayralar – «tifoz hujayralar» ustun turadi, e) kollagenozlarda – portal traktdagi tomirlar atrofida granulemalar shakllanishi kuzatiladi, granulema tarkibida limfold va plazmatik hujayralar ustun turadi, j) hayvon parazitlar atrofida – yirik yot tana hujayralari aralashmasidan iborat polimorf hujayra elementlari tutuvchi granulyastion to‘qimani o‘sadi z) limfogranulematozlardagi (Xodjkin kasalligida) granulemalar odatda portal maydonda joylashib, hujayra tarkibi polimorf bo‘ladi: limfostitlar, epithelioid hujayralar, plazmostitlar, eozinofillar va Reda – Berezovskiy – Shternberg gigant hujayralaridan iborat bo‘ladi. Granulemalar bir-biriga qo‘shilib ketganida markazida nekroz rivojlanadi.

## Viral Hepatitis



Rasm -14. Surunkali hepatitlardagi o‘zgarishlar, jigar stirrozini rivojlanishi. Gematoksilin – eozin usulida bo‘yash.

Leykozlarda (leykozlarni turiga qarab) hujayralarni proliferasiyası portal traktda, jigar bo‘lagi ichkarisida kuzatiladi. Sinusoidlar bo‘shlig‘ida ko‘p miqdorda yosh hujayra elementlari uchraydi.



Rasm - 15. Jigarning exinokokkozdag'i granulematoz yallig'lanishi.

Jigarda yallig'lanishlar stiklik kechadi. Ekssudativ yallig'lanish so'nishi mobaynida infiltrat hujayralari biriktiruvchi to'qima etilishiga xarakterli bo'lgan ma'lum bir evolyustiyani bosib o'tadi. Bunda neytrofil leykostitlar degenerastiyalanadi va yo'qoladi, biriktiruvchi to'qimani yosh hujayralari fibroblast va gistiostitlarga aylanadi. Tolali tuzilmalar hosil bo'lishi stikli yallig'lanish o'chog'ini katta-kichikligiga, joylashuviga va boshka omillar ta'siriga (infekstiya, intoksikastiya, autoimmun jarayonlar va b.) bog'liq tarzda bir necha kun yoki xafsa davom etadi. Yallig'lanislarda keyin to'qimani tiklanishi to'liq yoki qisman bo'lishi mumkin. To'liq sog'aymaslikga - virusli hepatitdan keyin portal maydonlarni qoldiq fibrozi misol bo'ladi.

Surunkali yallig'lanishlar ko'p miqdorda chandiqli biriktiruvchi to'qimani hosil bo'lishi bilan ajrab turadi. Surunkali yallig'lanishni boshqa o'ziga xosligi fibrozlangan portal sohalarni limfostitlar, plazmatik hujayralar va gistiostitlar bilan diffuz infiltrasiyalanishidir.

Yallig'lanish infiltratlarini klinik baholashda bo'lak ichida hujayralarni o'chog'li to'planishi patologik jarayondan guvoxlik beradi. Shu bilan birgalikda

fiziologik holatlarda xam portal maydonlarni ba’zi joylarida oz miqdorda hujayralarni to‘planishini kuzatish mukin. Portal sohalarda sezilarli hujayra infiltratlarini bo‘lishi, bo‘lakni yaqin turgan parenximasiga kirib borishi va distrofik o‘zgarishlar bilan birga kelishi patologiyani namoyon bo‘lishi sifatida ko‘riladi.


## **XOLESTAZ**

Jigar to‘qimasida o‘t suyuqligini dimlanishiga xolestaz deyiladi, uni jigar va jigardan tashqaridagi ko‘rinishlari farqlaniladi.



Xolestazni dastlabki vaqtlarida jigar makroskopik o‘zgarmagan, yakunda esa jigar kattalashgan, zangori tusda olgan bo‘ladi. Jigar to‘qimasida xolestazni mikroskopik belgilari – gepatostitlar stitoplazmasida bilirubin zarrachalarini va kengaygan o‘t kanalchalari bo‘shlig‘ida o‘t koagulyantlarini bo‘lishidir (o‘t tromblari). O‘t kanalchalarini yorilib ketishi o‘t suyuqligini hujayralararo bo‘shliqga chiqishiga va «o‘t orolchalarini» hosil bo‘lishiga olib boradi. Xolestazni morfologik belgisi odatda jigar bo‘lagini markaziy sohasida yorqinroq namoyon bo‘ladi. Bu o‘zgarishlar uzoq davom etganda o‘t suyuqligini chiqishini intermediar va hattoki periportal sohalarda ham ko‘riladi. Jigar va jigardan tashqaridagi xolestazlarda jigar to‘qimasidagi o‘zgarishlarni o‘rganish xolestazlarni uch turga bo‘lishga imkon beradi: hujayra ichidagi, kanalchalar ichidagi va aralash xolestazlarga. Xolestazlarni dastlab muddatlarida va ularni keltirib chiqaruvchi omillarga bog‘liq tarzda xolestazlarni u yoki bu turlarini kuzatishga va ularni differential diagnostika qilishda ahamiyatga ega bo‘ladi. Xususan hujayra ichidagi xolestazlar medikamentoz (aminazin ta’sirida), jigar shikastlanishida, kanalchalar ichidagisi esa – mexanik sariqliklarda, aralash shakllari esa – virusli gepatitlarni sariqlik shakllariga xos bo‘ladi (Kartashova, 1971). Bo‘laklararo o‘t yo‘llarida o‘t koagulyantlari ko‘prok sekstion preparatlarda kuzatiladi.

Jigarda o‘tni dimlanishi asoratlanmagan infeksiyalar bo‘lmanan taqdirda ham sariqlikn 7-kunlariga borib gepatostitlarni shikastlab – gidropik va astidofil distrofiyasiga olib boradi. Ba’zan tromblangan o‘t kanalchalarini yaqinidagi

gepatostitlar stitoplazmasida pigment granulalarini saqlab – hepatostitlarni «ko‘piksimon» degenerastiyasiga yuz tutadi, bo‘yoqlarni sust qabul qiladi, to‘rsimon ko‘rinish oladi. Progressiyalanuvchi distrofik o‘zgarishlar parenximani nekrobiotik o‘zgarishlariga olib boradi. Xolestazlarda hepatostitlar nekrozini quyidagi shakllarini ajratish mumkin bo‘ladi: 1) hepatostitlarni fokal nekrozi (dastlab hujayralar bo‘yoqlarga bo‘yalishi kamayadi, keyinchalik yadro yo‘qoladi, o‘rnini leykostitlar egallaydi. 2) biliar va retikulyar(to‘rsimon) nekroz bilan yakun topuvchi «ko‘piksimon» degenerastiya holatidagi guruh hepatostitlarni nekrobiozi.



Rasm -16. O‘t kapillyarlarida o‘t suyuqligi dimlanishi. Gematoksilin – eozin usulida bo‘yash.




Rasm -17. Xolestazlar (o‘t kapillyarlarida o‘t suyukligini dimlanishi, ayrimlarini destrukstiyasi, o‘t orolchalari paydo bo‘lishi).

Gepatostitlarni stentrolobulyar zonal nekrozi (sekstion materiallarda kuzatiladi) jigardagi o‘lim oldi o‘zgarishlar blan bog‘liq bo‘ladi.

Parenximani alterastiyasi o‘t komponentlarini toksik ta’siri va kengaygan, tromblangan o‘t kanalchalarini mexanik bosimi ta’siriga bog‘liq deb xisoblanadi. O‘tni dimlanishi va gepatostitlarni nekrobiozi parenxima va stromani yallig‘lanish reakstiyasi - dimlanishni 10-kunlaridan boshlab, billiar stirrozni tashkillashtiruvchi

bo‘lakdagi retikulyar tolalarni giperplaziysi va portal sohalarda biriktiruvchi to‘qimani o‘sishi, xolangiolalarni proliferastiyasi bilan birqalikda namoyon bo‘ladi.



Rasm -18. Sariqliklarda ko‘z qorachig‘ida, terida, ichki a’zolarda, bosh miyadagi o‘zgarishlar.

O‘t dimlangan sohalardagi jigar to‘qimasi gistokimyoviy tekshirilganda gepatostitlarda glikogen va RNK-ni kamayishi, lipidlar va ShIK-musbat

glikoproteidlarni, oqsillar va faol guruhlarni miqdori ortadi. Gistoenzimologik tekshirishlarda oksireduktaz va KF, IF faolliklarni ortishi aniqlangan (Kartashova, 1965).

Elektron – mikroskopik tekshirishlarda xolestazlarda o‘t kanalchalarini bo‘shliqlari 1dan 8mm-gacha kengayishi aniqlangan. Ko‘pchilik holatlarda gepatostitlarni biliar qutbida vorsinkalar bo‘lmaydi, saqlanib qolgan joylarda ham ular qisqargan, ballon yoki pufak ko‘rinishida bo‘ladi. Gepatostitlarni kanalchalar atrofi sohasi ektoplazmasi kengaygan, ko‘p miqdorda tonofilamentlar saqlaydi. Gepatostitlardagi Goldji apparatini o‘lchami kattalashgan, silliq EPT giperplaziyalangan bo‘ladi. Lizosomalar miqdori ortgan, gepatostitlarda ular betartib joylashadi (peribilliar, vaskulyar qutblarda), Disse bo‘shlig‘iga ham chikadi. Mitoxondriyalar distrofik o‘zgarishlar belgilari bilan bo‘ladi. Hujayralarni o‘t kanalchalar bilan tegib turgan sohalari intakt ko‘rinishda bo‘ladi. Jigar va jigardan tashqari xolestazlarda ultrastruktur o‘zgarishlar o‘xhash bo‘ladi, farqi miqdoriy jihatdan bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda o‘tni ultrastruktuarasi yaxshi o‘rganilgan. O‘t tromblari donador komponentlar (xususiy o‘t) va xalqasimon - plastinkasimon hosila (shikastlangan hujayralarni membrana komponenti)dan iborat bo‘ladi. Erkin bilirubin lizosomada joylashgan dag‘al donador ko‘rinishda bo‘ladi. Erkin bilirubin mayda donador shaklga ega bo‘lib, EPT pufakchalarida mayda donachalar shaklida, ba’zan stitoplazmada erkin holatda bo‘ladi.


Xolestazlarda jigar tuzilishidagi o‘zgarishlarga asosiy kasallikni xarakteri sezilarli ta’sir qiladi (VG, medikamentoz xolestaz, o‘t yo‘llarini obturasiyasi va b.). VG uchun katalar va obturasiyalovchi xolangit, birlamchi billiar stirrozga esa - destruktiv xolangit xos, jigar osti sariqlikda esa perixolangit kuzatiladi. Jigarni tug‘ma fibrozi va o‘t yo‘llarini jigardan tashqari atreziyasidagi o‘ziga xos o‘zgarishlari jigar ichi o‘t yo‘llari giperplaziyalanishi va bo‘shliqlarini kengayishi bilan namoyon bo‘ladi. Jigarda o‘tni dimlanishi qonuniy tarzda xolangiollarni proliferastiya bilan birga bo‘ladi (duktulyar proliferastiya). Gematoksilin eozin usulida bo‘yalgan jigar to‘qimasi preparatlarida proliferastiyanayotgan o‘t

yo'llari 2 xil ko'rinishda bo'ladi. Birinchi ko'rinishda portal sohada o't yo'llari miqdori sezilarli ortadi (proliferastiyalanadi), lekin ko'rinishi odatdagidek bo'ladi. Ikkinci holatda esa proliferastiyalanayotgan o't yo'llari aniq tirkishga ega bo'lmaydi, cho'zinchoq yadroli bazofil stitoplazmali oval ikki qatorli hujayralardan tashkil topadi. Duktulyar hujayralar nozik argirofil bazal membranada joylashadi. Proliferastiyalanayotgan duktulyar hujayralar stitoplazmasida lipid tomchilari, glikoproteidlar va o't suyuqligini saqlaydi. Proliferastiyalovchi o't yo'llarini devorida IF faolligi yuqori bo'ladi. Elektron mikroskopik tekshirishlarda duktulyar hujayralarni yadrosida xromatinni gomogen joylashuvi, yadrochalarni eksstentrik joylashuvi xarakterli bo'ladi. Stitoplazmasida mitoxondriyalar ko'p (gepatostitlarnikidan kichikroq), Goldji apparati giperplaziyalangan, ERT yaxshi rivojlangan, erkin ribosomalari soni ortgan bo'ladi. Hujayralarni apikal va yonbosh yuzalarida ko'p miqdorda mikrovorsinkalar joylashadi. Bu o'zgarishlar kompensator – moslashuv xarakterida bo'lib, o't suyuqligini chiqishini korrekstiya qilishda ahamiyatga egadir. Qayta biopsiya materiallari tekshiruvi shuni ko'rsatadiki, o't suyuqligni dimlanish sabablari bartaraf etilganda, duktulyar reakstiya redukstiyalanadi, portal uchlik to'liq tiklanishi yuz beradi.

## JIGARDA NEKROZIDAGI O'ZGARISHLAR






Tirik organizmda distrofik o'zgarishlar qaytmas bo'lganda nekrobioz va nekroz yuzaga keladi. Nekrozni dastlabki vaqtlarida aniqlash qiyin bo'lib, morfologik o'zgarishlar hujayra o'limidan keyin autoliz jarayonlarini faollashganida yuzaga chiqadi. Nekrobiozni mikroskopik belgilari hujayra yadrosida (kariopiknoz, karioreksis, kariolizis) va stitoplazmasida (stitoplazmatik oqsillarni koagulyastiyasi va lizisi, emirilishi), detrit hosil bo'lishi xisoblanadi. Asosida nukleazalarni biokimyoviy siljishlari yotuvchi yadrodagagi o'zgarishlar ketma-ketlikda bo'ladi. Nukleaza ta'sirida nukleoproteidlardan nuklein kislotalar ajraladi. Yadroda nuklein kislotalarni tarqoq joylashuvi uni ishqoriy buyoqlar bilan intensiv bo'yalishiga sabab bo'ladi (kariopiknoz). Keyinchalik nuklein


kislotalarni uymulari - bo‘yoqlarga bo‘yalmaydigan fosfor kislotasiga, pentozaga, purin va pirimidin asoslariga parchalanadi (kariolizis).



Rasm – 19. Jigarning massiv nekrozi (makro-mikroskopik ko‘rinishi).

Yadro hujayrada modda almashinuvida hal qiluvchi rol o‘ynaydi, yadro emirilgandan keyin stitoplazmani emirilishi yuz beradi. Gepatostitlar stitoplazmasidagi nekrobiotik o‘zgarishlar - unda rN-ni pasaytiruvchi nordon birikmalar to‘planishiga olib boradi.





Rasm -20. Nekroz o‘chog‘larini joylashuviga qarab nomlanishi.

EPT va mitoxondriyalarni emirilishi, gepatostitlar stitoplazmasida dag‘al donachalarini, vakuolalarini va yog‘ tomchilarini paydo bo‘lishiga olib boradi. Stitoplazmadagi nekrobiotik o‘zgarishlar, gistokimyoviy reakstiyalarda aniqlanadigan o‘zgarishlar bilan kuzatiladi. Xususan, ribonukleoproteidlar va glikogen, oksireduktaza faoligi (SDG, StXO va b.) pasayadi, gidrolazalar (xususan KF va b.) faolligi ortadi.

Gepatostitlar uchun ikki xil nekroz xarakterli: koagulyastion va kollikvastion (stitoliz). Koagulyastion nekroz oqsillarga boy hujayralarda kuzatiladi. Koagulyastion nekrozni mexanizmi oqsillarni ivituvchi fermentlarni faollashtiruvchi to‘qimaga kalstiy ionlarini kirishi bilan bog‘lanadi. Gepatostitlar stitoplazmasini koagulyastion nekrozi qisman (parstial) yoki total bo‘lishi mumkin. Birinchi xolatda stitoplazmatik zichlashgan organellarni o‘ziga kiritgan gepatostitni koagulyastiyalashgan o‘chog‘lari - stitoplazmani boshqa sohalardan chegaralangan bir konturli membrana bilan o‘ralib - tipik autofagal vakuolalar shakllanadi, keyinchalik ular hujayradan chiqarib yuboriladi. Bu vakuolalarn T.Mallory(1911) yilda yozgan va Mallori tanachalari (yoki alkagolli gialin) deb ataladi. Ular gomogen, yumaloq shaklda bo‘lib, eozin bilan yaxshi bo‘yaladi. Bu tanachalar makrofaglar lizosomasi yoki o‘t suyukligi bilan chiqarilib, 12 b.i. epitelisida aniqlanishi mumkin bo‘ladi. Mallori tanachalari ko‘pincha mitoxondriyalardan, ba’zan EPT va mikrotanachalardan hosil bo‘ladi. Mallori

tanachalari ko‘pincha jigarni alkogolli shikastlanishida topiladi, lekin bu spesifik emas, uni gepatostellyulyar rak va b. xam topiladi. Elektron – mikroskopik tekshirishlarda Mallori tanachalarini 3 xil turi farqlaniladi: a) parallel yoki spiral joylashgan siyrak tolalar to‘plami ko‘rinishida (o‘lchami 100-210A), b) to‘rsimon fibrillalar ko‘rinishida (o‘lchami 115-200A, ko‘proq uchraydigan ko‘rinishi), v) amorf elektron zinch matriks ko‘rinishidagi afibril tuzilma ko‘rinishida, bu eski emirilgan gialinni ko‘rinishi hisoblanadi. Yuqorida aytib o‘tilgan ko‘rinishlar Mallori tanachalarini shakllanishini ketma-ketligi bosqichlari hisoblanadi. Total koagulyastion nekrozlarda gepatostitni zichlanishi va bujmayishi kuzatilib, bunda astidofil buyoqlarni yaxshi qabul qiluvchi gomogen tuzilma – Kaunsilmen astidofil tanachalari paydo bo‘ladi (uni W.Cauncilman 1890yilda sariq lixoradkaga yozib qoldirgan). Bu tanachalar Mallori tanachalariga o‘xshab patogen omil ta’siriga nisbatan hujayrani nospestifik reakstiyasi hisoblanadi (toksinlar, viruslar va b.). ultrastruktur tekshirishlarda hujayra koagulyastion nekrozini 2xil tipi ajratiladi. Bir xolatda gepatostitlar stitoplazmasida mitoxondriyalarni parchalanish qoldiqlari, EPTni fragmentlangan o‘chog‘lari, mielin parchalari va b. ko‘riladi. Boshqa holatlarda koagulyastion nekrozda gepatostitlarni mumyolanishi yuz beradi: StPMni mikrovorsinkalari cho‘ziladi va zichlashadi, bu hujayralarni yuzasida chuqur lakunalar paydo bo‘lishiga olib boradi. Ikkala holatda ham jarayon qaytmas bo‘lib, nekrozlangan to‘qimani Disse bo‘shlig‘iga yoki hujayralararo tirqishga ajratib chiqarishi bilan boradi.

Kollikvastion nekroz (stitoliz) oqsillarga kambag‘al va proteazaga boy bo‘lgan gepatostitlarda kuzatiladi. Stitoliz lizosomal fermentlarni faollashuvi natijasidir. Bunday hujayralarni o‘lchami kattalashadi, bo‘yoqlarni qabul qilmaydi, yadro tutmaydi va optik bo‘sh ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.

Sitolizada gepatostitlar stitoplazmasini elektron-mikroskopik zichligi kamayadi, uni membranasini tuzilishi butligi yo‘qoladi. Hujayralarda yirik vakuollalar kuzatiladi, stitoliz keskin namoyon bo‘lganda, fakat StPM saqlanib qoladi. Ba’zan gepatostitlarni periferik sohalarida (ko‘pincha vaskulyar qutbida) mikrovorsinkalarni bo‘kishi va shishi kuzatiladi. Bunday yirik shishgan

mikrovorsinkalar organellarni kiritmalari bilan hujayralardan Disse bo'shlig'iga ajralishi mumkin (masalan VG ba'zi shakllarida va jigarni b. shikastlanishlarida).


Jigar bo'lagida joylashuvi va namoyon bo'lishiga darajasiga qarab, jigarda nekrozlarni quyidagi turlari farqlaniladi: a) fokal – bunda bir yoki yonma-yon joylashgan bir necha gepatostitlar nekrozlanadi, u ko'pincha VG, surunkali gepatitlar va jigar stirrozlaridagi distrofik o'zgarishlarda kuzatiladi, b) zonal - - stentrolobulyar - ZG, gematogen gepatotoksik ta'sirlarda; periferik – (periportal) IG, surunkali destruktiv gepatitlarga xarakterli. Peroral gepatotoksik zaxarlanishlarda piece meal («pog'onasimon» nekroz kuzatiladi. Intermediar nekrozlar inson patologiyasida kuzatilmaydi. V) submassiv va massiv nekrozlar – bunda jigar bo'lagini butun parenximasi nekrozlanadi (bu nekroz - jigar komasini asosida yotuvchi jigar funkstiyasi etishmovchiligining morfologik substrati hisoblanadi). Parenximani nekroz o'chog'ida a'zoni retikulyar stromasini kollapsi kuzatiladi. Nekroz o'chog'ini chekka sohasida reaktiv va reparativ jarayonlar rivojlanadi, hujayralarni emirilish mahsulotlari tomirlardan - leykostitlarni emigrastiyasiga, mezenximal - hujayra elementlarini proliferastiyyasiga,nekrotik massalarni hazm qiluvchi ko'p miqdorda makrofaglarni to'planishiga ta'sir qiladi. Hujayra infiltrati nekroz sohasini chegaralaydi.

Shuni ta'kidlash lozimki: 1) nekrozlar gepatostitlarni fermentlar sistemasini faollashuvi bilan xam bog'liq bo'lishi mumkin (dorilar bilan shikastlanishlarda, trinitrotoluol bilan zaharlanishlarda) 2) nekrozlar yuqumli kasallikkarda makromikroorganizmlarni ferment sistemalarini o'zaro ta'siridan, hujayra elementlari tuzilmalari hisobiga viruslarni reprodukstiyasida (virusni stitopatik ta'sirida) bilan bog'liq bo'lishi mumkin, 3) ko'pincha nekrozni sababi to'qima va hujayralarni - sinusoidlarni mexanik tiqinlarida yoki qon aylanishlarini funkstional etishmovchiliklaridagi gipoksiyalar (anoksiyalar) hisoblanadi.

Nekrobiotik jarayonlar fiziologik holatlarda ham kuzatiladi («hujayrani» o'limi), patologik holatlarda bu jarayonlar yorqin namoyon bo'ladi, kengligi va tarqoqligi normadan chetga chiqadi, a'zoni funkstiyasini buzilishi bilan boradi.

## JIGARNING REGENERATSIYASI

Regenerastiya - shikastlanishlardan so‘ng organizm tuzilmalari elementlarini etarli darajada funkstional faoligini saqlanishini ta’minlovchi yangilanish va miqdoriy tiklanishi jarayoni bilan namoyon bo‘ladi. Regenerator jarayonlarni uch darajasi farqlaniladi: hujayra, hujayraichi va aralash darajalari. Jigar to‘qimasida tuzilmalarni yangilanishi va funkstiyasini kompensastiyasi hujayralarni bo‘linishi va hujayraichi organellalarini giperplaziyasiga hisobiga yuzaga chiqadi, hujayra ichi regenerastiyasi nisbatan universal sterotip reakstiya hisoblanadi (Sarkisov, 1970).



Rasm -21. Jigar stirrozidagi hepatostitlarni regenerastiyasi. A-regenerastiyalanayotgan hepatostitlar, b-ikki yadroli epatostitlar, v-biriktiruvchi to‘qimani o‘sishi (mikroskopik ko‘rinishi). Gematoksilin-eozin usulida bo‘yash.

Insonlarni hepatostitlarni hayot stikli (hosil bo‘lgandan tortib to halok bo‘lguncha yoki bo‘linguncha bo‘lgan davr) davomiyligi aniqlanmagan. Turli jonzotlarda u 120dan 420kungacha davom etadi. Jigar bo‘lagida doimiy ravishda hepatostitlarni fiziologik o‘limi yuz beradi, atrofdagi bo‘linayotgan hujayralar hisobiga bo‘lak arxitektonikasi kompensastiyalanib, buzilmaydi (fiziologik regenerastiya). Hujayralarni amitotik bo‘linishi va endomitozi natijasida jigar to‘qimasida ikki yadroli va poliploid hepatostitlar paydo bo‘ladi. Xayvonlarda di-,

tetra- va oktoploid gepatostitlarni nisbatlari turlicha bo‘lishi xos xisoblanadi. Xususan, oq kalamush jigarida diploid hujayralar -11%, tetraploid – 87% va oktoploid hujayralar -2%ni tashkil etadi. Inson jigarida diploid hujayralar ustun turadi, tetraploid hujayralar 2-18%, oktoploid hujayralar -3%ni tashkil etadi(Grundmann, 1960, Altman, 1966). Poliploid hujayralar soni yosh ortib borishi bilan ko‘payadi (70yoshdan so‘ng oktoploid hujayralar eng ko‘p kuzatiladi. Jigar regenerastiya hozirgi vaqtgacha faqat taqdijotlardagini o‘rganilmoxda, klinikida kam o‘rganilgan. Qari hayvonlarda yoshlarga nisbatan regenerastiyaga moillik sustroq namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlarda jigarni qisman olib tashlash va toksik shikastlanishlar o‘rtasida aloqadorlik tasdiqlangan. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jigar tezda, o‘rtacha uch xافتada o‘zini og‘irligi tiklaydi (xatoki 4/5 qismi olib tashlanganla xam), lekin odatdagi shaklini tiklamaydi. Jigarni regerenerastiya regenerastion giperstrofiya xarakterida bo‘lib, bunda hujayralarni bo‘linishi bilan birga, hujayraichi tuzilmalarini giperplaziyasi xam kuzatiladi. Avtoradiografiyada o‘rganilganda, shikastlanish bo‘lgan vaqtdan boshlab, gepatostitlar regenerastiyalana boradi, qisqa muddatda yuqori cho‘qqisiga chiqadi. Jigarni qolgan qismini og‘irligi birinchi kunida 30-45%, ikkinchi kunida esa 53%gacha ortadi, ya’ni jigarda reparativ jarayonlar shiddatli rivojlanadi.

Rezekstiyadan keyin jigarni regenerastiya jarayonlarini besh fazada kechishi farqlanilgan(Grudman,1961). 1) gepatostitlarni amitotik bo‘linishi (30-90minutdan so‘ng), 2) tetra va oktoploid hujayralarni ko‘payishi va diploid hujayralarni kamayishiga (ikki soatdan keyin) olib keluvchi gepatostitlar yadrolarini endomitozi 3)DNK premitotik sintezi (18 soatdan so‘ng), 4) gepatostitlar mitozi (36soatdan so‘ng eng ko‘p ko‘riladi), 5) poliploid hujayralar miqdorni qayta ko‘payishi va ikki yadroli hujayralarni redukstiyasiga olib boruvchi gepatostitlar yadrolarini endomitozi (54soatdan so‘ng).

Shundan ko‘rinib turibdiki, reparativ regenerastiyada gepatostitlarni amitotik bo‘linishi va ularni yadrolarini poliploidizastiyasi ketma-ket yuz beradi (hujayra va hujayraichi regenerastiyasini almashinishi). Amitoz birinchi reakstiya bo‘lib, u stitoplazma va yadrolarni ta’sirlanish yuzalarini tez ortishi tadbig‘i bo‘lib,

hujayrani funkstional faolligini ortganligidan guvoxlik beradi. Amitotik bo‘linish ikki yadroli gepatostitlarni paydo bo‘lishiga olib boradi, lekin stitoplazmani bo‘linmay qolishi bilan xam yakunlanishi mumkin (hujayrani bo‘linishi). Ikki yadroli gepatostitlarni yadrolari asinxron ishlashi mumkin, u hujayralarni funkstional faoliyatni uzaytiradi.


Insonlar jigaridagi kistalarni, yaxshi sifatli o‘smałarni va b. jigarni rezekstiyasidagi o‘zgarishlar uni reparativ xususiyatini yuqori ekanligini tasdiqladi. Shuning uchun jigarning yorug‘ va qoramtilar hujayralari xaqidagi savolni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qoramtilar hujayralar a’zoni kambial elementlaridan hisoblanib, jigar to‘qimasini regenerastiyasini asosiy manbai hisoblanadi. Hozirgi vaqtida qoramtilar hujayralarni katta funkstional potenstiyaga ega ekanligi aniqlanilgan, bunga ularning stitoplazmasida EPT membranalarni, lizosomalarni va b. stitoplazmatik organellalarini ko‘p miqdordaliligi guvoxlik beradi. Regenerastiyalanayotgan jigar to‘qimasida funkstional jihatdan yuqori bo‘lgan aynan shunday hujayralar miqdori ortadi. Ayrim tekshirishlarda virusli gepatitlarni dastlabki vaqtlarida – mitotik, kechki davrlarida amitotik bo‘linishlari ustunligi yozilgan. Kasallikni dastlabki vaqtlarida (gepatitlarni boshlanishini birinchi xafasida – klinik manifestasiyasida) jigar to‘qimasida mitoz figuralari kuzatiladi. Gepatostitlarni mitotik bo‘linishi jigar bo‘lagini periferik sohalarida kuzatiladi. U bu sohada mitotik bo‘linishini yo‘qotmagan kambial hujayralarni joylanishi bilan bog‘liqdir. Mitozlarga nisbatan, jigar to‘qimasida ikki yadroli va poliploid gepatostitlar miqdorini ortishi, giperxromaziysi aniqlaniladi. Ikki va ko‘p yadroli gepatostitlarni elektron mikroskopik tekshirishlarda stitoplazmatik organellalar, yadro va yadrochalarni giperplaziysi aniqlanilgan. Bu ma’lumotlar virusli gepatitlarda hujayra ichi regenerastiyasi ustunligini tasdiqlaydi. Yadrolarni amitotik bo‘linishi har doim ham hujayralarni bo‘linishi bilan bormaydi, bunda ikki yadroli hujayralar miqdori ortadi, ko‘p yadroli gepatostitlar paydo bo‘ladi. Xususan yangi tug‘ilgan chaqoloqlarni gepatitlari uchun gigant ko‘p yadroli gepatostitlarni hosil bo‘lishi xarakterlidir. O‘tkir va surunkali gepatitlarda gepatostitlarni proliferastiyasi

trabekulalarda gepatostitlarni ikki qator bo‘lib joylanishiga olib boradi. Jigar stirrozida gepatostitlarni bo‘linishi o‘chog‘li ortishi regenerat tugunlarini paydo bo‘lishiga olib keladi.


## **JIGAR TO‘QIMASINI FIBROZI**

Biriktiruvchi to‘qimani yangi hosil bo‘lishiga fibroz deb ataladi. Jigarda biriktiruvchi to‘qimani ortiqcha hosil bo‘lishi portal, periportal (gepatostitlar va proliferastiyalangan duktullar atrofida), bo‘lak markazida (jigar venasini atrofida) va intermediar – gepatostitlar atrofida kuzatiladi. Elektron mikroskopik va gistoavtoradiografiya tekshiruvlar jigar parenximasida biriktiruvchi to‘qima tolalarini hosil bo‘lishi fibroblastlarga tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Gepatostitlar nekrozi o‘chog‘ida retikulyar stromani kollapsi fibroz rivojlanishi mexanizmida ikkilamchi xarakterda bo‘ladi.

Fibroblastlar maxsus fukstiyalarni – ya’ni asosiy moddani shakllanishini (asosiy modda asosan oqsillar bilan bog‘langan turli xil mukopolisaxaridlar iborat) va skleroprotein sekrestiyasini (kollagendan oldin hosil bo‘luvchi, hujayradan tashqari kollagen tolalargacha etiluvchi) bajaradi. Skleroprotein fibroblastlarni EPT sintezlanadi, bu jarayon fermentlarni katalizlaydi (xususan kollagen prolingidroksilazani). Kollagenni etilishini mis tutuvchi aminoaksidaza katalizlaydi va polimerizasiyasini bilan yakunlanadi. Biriktiruvchi to‘qimani fibroblastik elementlarini faollahuvini gistologik, gistokimyoviy va elektron-mikroskopik usullar (mukopolisaxaridlarni tutishi, gidrolazani faolligi va b. fermentlar bilan, nurlangan prolin tutishi va b.) bilan aniqlaniladi. Fibroblastlarni faoliginini stimullovchi omillar oxirigacha aniqlanilmagan. Jigarda fibrogenezni faollahuvi gepatostitlar shikastlanishida, yallig‘lanishida, duktul proliferastiyyasida (ayniqsa surunkali gepatitlar va stirrozlarda) kuzatiladi. Fibrozni industirlovchi omillar gepatostitlar shikastlanishida ajralib chiquvchi fibrogenez jarayonida quyidagilar ma’lum rol o‘ynaydi.



Rasm –22. Portal traktda fibroz to‘qimani o‘sishi. Gematoksilin – eozin usulida bo‘yash. 1) redukstiyalangan mikrovorsinkalari bilan shikastlangan gepatostitlarni sinusoidal yuzasi peptidlar, makromolekulyar substansiylar yoki stitoplazmatik organellalar (lizosomalar) bo‘lishi mumkin. Shikastlanish uzoq davom etganda Disse bo‘shlig‘ida proliferastiyanayotgan gepatostitlar va sinusoidal hujayralar orasida basal membrana shakllanadi. Keyinchalik xalqa hosil bo‘ladi: 1) gepatostitlarni shikastlanishi fibrogenezni stimullaydi, fibrogenez esa oziqlanishni buzilishi natijasida gepatostitlarni shikastlanishini kuchaytiradi, 2) proliferastiyanayotgan mayda o‘t yo‘llarini basal membranalari rivojlanadi. Bazal membranani tolali qismi ezilgan biriktiruvchi to‘qimali argirofil tolalardan, gomogen ShIK-musbat qismi esa duktul hujayralarni epitelial komponentlaridan iborat bo‘ladi (Muravev, 1972). 3) temir saqlovchi makrofaglar.



Rasm -23 Regenerastiyalayotgan bo‘laklar atrofida fibroz to‘qimani o‘sishi. Soxta bo‘laklar xosil bo‘lishi. Gematoksilin – eozin usulida bo‘yash.

Jigar to‘qima kulturasida past oksigenastiyada fibrin hosil bo‘lishini stimullashuvi, fibrillalarni etilishi va to‘planishi, oqsillar va b. omillarni etishmovchiligi ko‘rsatib o‘tilgan. Proliferastiyalanayotgan biriktiruvchi to‘qimada semiz hujayralarni miqdori juda xam yuqoriligi (normada  $10*40$ marta kattalashtirishda 300ta ko‘rvu maydonida 20ta (faol fibrogenezda 240ta semiz hujayralar aniqlaniladi). Semiz hujayralar fibrogenezni stimullovchi biologik faol moddalarni, fermentlarni hosil qiladi.

Fibrozni darajasi kollagenni sintezi va emirilishi nisbatiga bog‘liq bo‘ladi. Fibrozning qaytarligi (biriktiruvchi to‘qimani yo‘qolishi) makrofaglarni mavjudligiga (kollagenni so‘ruvchi) va asosiy moddani kimyoviy tabiatiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘p miqdorda xondroitinsulfat V saqlovchi kollagen tolalar kam o‘zgaradi, bu moddalar mukopolisaxaridaza ta’sirida emirilmaydi. Fibroz o‘chog‘ida faol va nofaol biriktiruvchi to‘qimali septalar farqlaniladi. Faol septalar fibrogenez faol o‘chog‘larda fibroblastlar hosil qilgan yangi birikiuvchi to‘qimada

hosil bo‘lib, hujayra elementlariga boy bo‘ladi. Passiv septalar parenximani nekrozi o‘chog‘larida retikulyar stromani kollapsi natijasi hisoblanib, hujayralar kam tutadi. Biriktiruvchi to‘qimani qaytar o‘zgarishlari hujayra elementlari boy bo‘lgan sohalarda hujayra elementlari kam bo‘lgan sohalariga nisbatan yaxshiroq yuz beriladi. Jigar bo‘lagini portal sohasidan, kollaps sohasidan o‘sayotgan biriktiruvchi to‘qimali septalar parenximani alohida bo‘laklarga – yolg‘on bo‘laklarga bo‘ladi, jigar mikroangioarxitektonikasi o‘zgarib – stirrozga olib boradi. Jigarni septal stirroziga ingichka biriktiruvchi to‘qimali septalar, postnekrotik stirrozlariga esa biriktiruvchi to‘qimani keng taxlamlari yoki maydonlarini hosil qilishi xarakterlidir. Septalarni faol hosil bo‘lishi jigar stirrozlarida katta axamiyatga egadir. Septalar bo‘ylab qon tomirlar ham joylashib, bir tomondan portal vena va jigar arteriyasi, boshqa tomondan jigar venasini tarmoqlari bilan anastomozlar hosil qiladi. Bu jigar ichida qon oqimini shuntlanishiga olib keladi, oqibatida jigardan o‘tayotgan qon miqdori kamayadi (parenximatoz qon aylanishini redukstiyasi). Bu bir tomondan gepatostitlarga kislородни va oziq moddalarni kam kelishiga, boshqa tomondan esa jigar funkstiyalarni izdan chiqishiga olib keladi. Qonni jigar ichidan shuntlanishi kalta va tor tirqishlarda yuz berib, darvoza venasida bosimni ortishi bilan davom etadi. Jigar bo‘lagini markazidagi gepatostitlarni o‘limi bilan boruvchi venoz qonni passiv dimlanishlarida, surunkali davom etgan xolestazlarda, ba’zi bir zaharlanishlardagi shikastlanishlarida biriktiruvchi to‘qimani o‘sishi bo‘lak markazida xam kuzatiladi. Parenximani nekrozi o‘chog‘ida biriktiruvchi to‘qimani kollapsi yuz beradi, bu holatlarda biriktiruvchi to‘qimani ortiqcha hosil bo‘lishi kollapsga nisbatan faol fibrogenez ustunligi bilan tushintiriladi.

## **JIGAR KASALLIKLARINI KLASSIFIKASIYASI:**

### **Nasliy kasalliklari:**

**Anatomik tuzilishi buzilishlari va malformastiya** (o‘t pufagini gipoplaziysi atreziyasi, o‘t yo‘llarini kistoz patologiyalari, mnolobar jigar va b.

**Metabolik kasalliklari:** Vilson Konovalov kasalligi (mis birikmalarini jigarda o‘t suyuqligi tarkibida chiqara olmasligi), antitripsin  $\alpha_1$ -ni nasliy etishmovchiligi va b.

**Orttirilgan kasalliklari** (birlamchi va ikkilamchi(yuqumli kasalliklarda oziqlanishni buzilishlarida, qon aylanishini buzilishlarida):

- **Distrofik kasalliklari:** parenximatoz gialin-tomchili va gidropik disproteinozlar, parenximatoz yog‘li gepatoz, o‘tkir toksik nekrotik hepatodistrofiya, uglevodli fermentopatiyalı gepatozlar.
- **Disstirkulyator kasalliklari:** Muskat jigari, shok jigari.
- **Yallig‘lanishli kasalliklari:** Virusli hepatitlar, autoimmun hepatit, toksik hepatit, alkagolli hepatit, bakterial va parazitar hepatitlar.
- **Disregenerator kasalliklari:** Jigar stirrozlari: portal, postnekrotik va biliar.
- **O‘smalari:** Gepatostellyulyar rak, xolangiostellyulyar rak, aralash hujayrali rak.

Jigar kasalliklarini halqaro kasalliklar klassifikastiyasi bo‘yicha kodlanishi.

(K70-K77) JIGAR KASALLIKLARI (Istisno qilingan: Vilson kasalligi (E83.0) virusli hepatit (B15-B19) gemoxromatoz (E83.1) sariq kasalligi QRA (R17) Reyno sindromi(G93.7))

K70 Jigarning alkogolli kasalligi

K70.0 Jigarning alkogolli yog‘li distrofiyasi [yog‘li jigar]

K70.1 Alkogolli hepatiti

K70.2 Jigarning alkogolga oid fibrozi va sklerozi

K70.3 Alkogolga oid jigar stirrozi

K70.4 Alkogolga oid jigar etishmovchiligi

K70.9 Aniqlanmagan alkogolga oid jigar kasalligi

K71 Jigarning toksik shikastlanishi. Kiritilgan: dori ta'siridagi: - jigarning idiosinkrazik (oldindan aytib bo'lmaydigan) kasalligi - jigarning toksik (oldindan aytib bo'ladigan) kasalligi. (Istisno qilingan: jigar alkogol kasalligi (K70.-) Badda-Kiari sindromi (I82.0))

K71.0 Xolestaz bilan kechuvchi jigarning toksik shikastlanishi

K71.1 Jigar nekrozi bilan kechuvchi jigarning toksik shikastlanishi

K71.2 O'tkir gepatit tipida kechuvchi, jigarning toksik shikastlanishi

K71.3 Surunkali persistirlangan gepatit tipida kechuvchi jigarning toksik shikastlanishi

K71.4 Surunkali lobulyar gepatit tipida kechuvchi, jigarni toksik shikastlanishi

K71.5 Surunkali aktiv gepatit tipida kechuvchi, jigarning toksik shikastlanishi

K71.6 Boshqa ruknlarda tasniflanmagan gepatit ko'rinishli, jigarning toksik shikastlanishi

K71.7 Jigar fibrozi va stirroziga ega jigarning toksik shikastlanishi

K71.8 Jigarning boshqa buzilishlariga ega jigarning toksik shikastlanishi

K71.9 Aniqlanmagan jigarning toksik shikastlanishi

K72 Boshqa ruknlarda tasniflanmagan, jigar etishmovchiligi. Kiritilgan: gepatit: - xavfli - o'tkir - fulminant jigar sariq atrofiyasi yoki distrofiyasi jigar etishmovchilikli jigar (hujayralar) nekrozi jigar: - komasi QRA - enstefalopatiya QRA Istisno qilingan: alkogol ta'siridagi jigar etishmovchiligi (K70.4) jigarning toksik shikastlanishi bilan (K71.1) virusli gepatit (B15-B19) homila va chaqaloq sariqligi (P55-P59) jigar etishmovchiligi, asoratlovchi: - abort, bachadondan tashqari homiladorlikni (O00-O07, O08.8) - homiladorlik, tug'ruq va tug'ruqdan keyingi davrni (O26.6)

K72.0 O'tkir va nim o'tkir jigar etishmovchiligi

K72.1 Surunkali jigar etishmovchiligi

K72.9 Aniqlanmagan jigar etishmovchiligi

K73 Boshqa ruknlarda tasniflanmagan, surunkali gepatit Istisno qilingan: gepatit (surunkali): - alkogol ta'siridagi (K70.1) - virusli (B15-B19) -

granulematoz BRT (K75.3) - dori ta'siri natijasida(K71.-) - reaktiv nospestifik (K75.2)

K73.0 Boshqa ruknlarda tasniflanmagan, surunkali pesistirlangan hepatit

K73.1 Boshqa ruknlarda tasniflanmagan, surunkali lobulyar hepatit

K73.2 Boshqa ruknlarda tasniflanmagan, surunkali aktiv hepatit

K73.8 Boshqa ruknlarda tasniflanmagan, boshqa surunkali hepatitlar

K73.9 Aniqlanmagan surunkali hepatit

K74 Jigar fibrozi va stirrozi Istisno qilingan: jigar alkogol fibrozi (K70.2), jigar kardial sklerozi (K76.1) (jigar) stirrozi: - alkogol bilan bog'liq (K70.3) - tug'ma (P78.8) - jigar toksik shikastlanishi bilan bog'liq (K71.7)

K74.0 Jigar fibrozi

K74.1 Jigar sklerozi

K74.2 Jigar fibrozi jigar sklerozi bilan birga kelgan

K74.3 Birlamchi biliar stirroz

K74.4 Ikkilamchi biliar stirroz

K74.5 Aniqlanmagan biliar stirroz

K74.6 Boshqa va aniqlanmagan jigar stirrozi

K75 Jigarning boshqa yallig'lanish kasalliklari Istisno qilingan: hepatit:- virusli (B15-B19) - o'tkir yoki nim o'tkir (K72.0) jigarning toksik shikastlanishi (K71.-) boshqa ruknlarda tasniflanmagan surunkali hepatit (K73.-)

K75.0 Jigar absstessi Istisno qilingan: jigar amyobali absstessi (A06.4) jigar absstessisiz pileflebit (K75.1) jigar absstessisiz xolangit (K83.0)

75.1 Darvoza vena flebiti Istisno qilingan: jigar pileflebitik absstessi (K75.0)

K75.2 Nospestifik reaktiv hepatit

K75.3 Boshqa ruknlarda tasniflanmagan, granulematoz hepatit

K75.8 Jigarning boshqa aniqlangan yallig'lanish kasalliklari

K75.9 Jigarning aniqlanmagan yallig'lanish kasalligi

K76 Jigarning boshqa kasalliklari Istisno qilingan: jigar alkogol kasalligi (K70.-) jigar amiloid degenerastiyasi (E85.-) hepatomegaliya QRA (R16.0) jigar

(to‘g‘ma) kistoz kasalligi (Q44.6) jigar toksik shikastlanishi (K71.-) darvoza vena trombozi (I81) jigar venasi trombozi (I82.0)

K76.0 Boshqa ruknlarda tasniflanmagan, jigar yog‘li degenerastiyasi

K76.1 Jigarni surunkali passiv to‘laqonligi

K76.2 Jigarning stentrilobulyar gemorragik nekrozi Istisno qilingan: jigar etishmovchiligili jigar nekrozi (K72.-)

K76.3 Jigar infarkti

K76.4 Jigar peliozi

K76.5 Jigarni venookklyuzion kasalligi.

Istisno qilingan: Badda-Kiari sindromi (I82.0)

K76.6 Portal gipertenziya

K76.7 Gepatorenal sindrom.

Istisno qilingan: tug‘ruq bilan birga kelgan (O90.4)

K76.8 Boshqa aniqlangan jigar kasalliklari

K76.9 Aniqlanmagan jigar kasalligi

K77\* Boshqa ruknlarda tasniflangan kasalliklardagi, jigar shikastlanishlari

K77.0\* Boshqa ruknlarda tasniflangan infekstion va parazitar kasalliklarda, jigar shikastlanishlari

K77.8\* Boshqa ruknlarda tasniflangan boshqa kasalliklarda, jigarning shikastlanishi (K80-K87)

## O‘T PUFAGI, O‘T YO‘LLARI VA OShQOZON OSTI BEZI KASALLIKLARI

K80 O‘t tosh kasalligi [xolelitiaz]

K80.0 O‘tkir xolestistitli o‘t pufagi toshlari

K80.1 Boshqa xolestistitli o‘t pufagi toshlari

K80.2 Xolestistitsiz o‘t pufagi toshlari

K80.3 Xolangitli o‘t yo‘li toshlari

K80.4 Xolestistitli o‘t yo‘li toshlari

K80.5 Xolestistitsiz yoki xolangitsiz o‘t yo‘li toshlari K80.8 Xolelitiazning boshqa turlari

K81 Xolestitit Istisno qilingan: xolelitiaz bilan (K80.-)

K81.0 O'tkir xolestitit

K81.1 Surunkali xolestitit

K81.8 Xolestititning boshqa turlari

K81.9 Aniqlanmagan xolestitit

K82 O't pufagining boshqa kasalliklari Istisno qilingan: rentgenologik tekshiruvda o't pufagi kontrastligining yo'qligi (R93.2) postxolestistektonik sindrom (K91.5)

K82.0 O't qopining berkilib qolishi

Istisno qilingan: o't tosh kasalligi bilan (K80.-)

K82.1 O't pufagi istisqosi

K82.2 O't pufagining teshilishi

K82.3 O't pufagi oqmasi

K82.4 O't pufagi xolesterizi

K82.8 O't pufagining boshqa aniqlangan kasalliklari

K82.9 Aniqlanmagan o't pufagining kasalligi

K83 O't yo'llarining boshqa kasalliklari Istisno qilingan: qayd etilgan holatlar, tegishli: - o't pufagiga (K81-K82) - o't pufagi yo'liga (K81-K82) postxolestistektonik sindrom (K91.5)

K83.0 Xolangit Istisno qilingan: xolangit xoledoxolitiazli (K80.3-K80.4) jigarning xolangitik absstessi (K75.0) surunkali yiringsiz destruktiv xolangit (K74.3)

K83.1 O't pufagi yo'lining berkilib qolishi Istisno qilingan: xolelitiaz bilan (K80.-)

K83.2 O't pufagi yo'lining teshilishi

K83.3 O't pufagi yo'li oqmasi

K83.4 Oddi sfinkteri spazmi

K83.5 O'tli kista

K83.8 O't yo'llarining boshqa aniqlangan kasalliklari

K83.9 O't yo'llarining aniqlanmagan kasalligi

## GEPATOZLAR

"**Gepatoz**" terminini 1930yilda Ressle taklif etgan, bunda jigar parenximasida moddalar almashinuvi buziladi, mezenximal reakstiya kuchsiz namoyon bo‘ladi.

**Gepatoz** - hepatostitlarning distrofiyasi va nekrozi bilan tavsiflangan jigar kasalligi bo‘lib, u irsiy yoki orttirilgan bo‘lishi mumkin.

Irsiy gepatozlarning katta guruhi jigarning metabolik kasalliklari deb ataladi. Ular oqsillar va aminokislolar almashinuvining buzilishi (stistinoz va aminoastiduriya yoki Debre-de sindromi, Toni-Fankoni), yog‘lar (irsiy lipidozlar), uglevodlar (glikogenozlar), pigmentlar (irsiy pigmentli gepatozlar, porfiriylar), minerallar (gemoxromatoz, hepatosterebral distrofiya yoki Uilson-Konovalov kasalligi) almashinuvi buzilishi sababli yuzaga keladi. Irsiy gepatozlar to‘planish kasalliklari bo‘lib, ko‘pchilik xolatlarda jigar stirrozlari rivojlanishi bilan yakunlanadi.

### **Kechishiga karab:**

- 1.O‘tkir gepatozlar (jigarning toksik distrofiyasi).
- 2.Surunkali gepatozlar («yog‘li gepatoz», alkogolli gepatoz va b.)


### **Moddalar almashinuvining buzilishlariga qarab:**

- 1.Yog‘li gepatoz (steatoz, yog‘li distrofiya).
- 2.Xolestatik gepatoz
- 3.Pigmentli gepatoz

Ularda jigarning toksik distrofiyasi yoki jigarning progressiv massiv nekrozi, surunkali yog‘li gepatozlari ko‘proq kuzatiladi.

### **Jigarning toksik distrofiyasi**

Toksik distrofiya (progressiv massiv jigar nekrozi) - bu o‘tkir, kamroq surunkali, jigarini kuchayib boruvchi tarqoq nekrozi va jigar etishmovchiligi bilan tavsiflangan kasallik. Ushbu kasallikning anatomik o‘ziga xosligini 1824 yilda K.Rokitanskiy yozgan.



Rasm -24. Lipotrofik va lipogenetik omillar ta'sirida jigar parenximasи va stromasida yog'li distrofiya, jigar stirrozini rivojlanishi.


**Etiologiyasi va patogenezi.** Jigarning massiv nekrozi ko‘pincha ekzogen (sifatsiz oziq-ovqat mahsulotlari, zamburug‘lar, geliotrop moddalar (fosfor, margumush va boshqalar bilan zaharlanish) va (homiladorlik toksikozi, tirotoksikoz) zaharlanishlar bilan rivojlanadi. Virusli hepatitda ham uning malignativ (fulminant) shaklini ifodasi sifatida paydo bo‘ladi. Patogenezida

zaharning (virusning) gepatotoksik ta'siri birinchi darajali ahamiyatga ega. Allergik va autoallergik omillar ham muxim.

Uning etio-patogenezida jigarda:

- 1) gepatostitlarda «yog'li» nekroboz, oqsil almashinuvini buzilishi, autoliz
- 2) parenximasida regenerator jarayonlar
- 3) stirrotik o'zgarishlar kuzatiladi.

**Patologik anatomiysi.** Jigardagi o'zgarishlar kasallikning turli davrlarida farq qiladi, jarayon odatda taxminan 3 hafta davom etadi.



Rasm -25. Jigarning toksik distrofiyasi (uglerod to'rt xloridi ta'sirida) (makromikroskopik ko'rinishi).


Jigarning toksik distrofiyasini patomorfozida 2ta bosqichi tafovut qilinadi.

### **1. Sariq distrofiya davri.**

Birinchi kunlarda jigar biroz kattalashgan, zinch yoki xiralashgan bo'lib, yuzasi, kesim yuzasi yorqin sariq rangga ega bo'ladi. Kasallikni 3 - 4 kunida jigar kattalashadi, u ilvillab qoladi, yuzasi va kesilgan joyi sarg'ish tusga kiradi. Mikroskopik - dastlabki kunlarda bo'laklar markazlari gepatostitlarini yog'li degenerastiysi qayd etiladi, u tezda ularni nekrozi va autolitik parchalanishi bilan

almashinadi, ularda lestin va tirozin kristallari bilan yog‘li oqsilli detrit hosil bo‘ladi. Rivojlanayotgan, nekrotik o‘zgarishlar kasallikning 2-haftasi oxirigacha bo‘laklarning barcha qismlarini tarqaladi; faqat ularning chekkasida yog‘li degenerastiya holatidagi gepatostitlar qoladi. Keyin jigar (makroskopik) kichraya boshlaydi, vazni kamayadi, konsistenstiyasi ilvillab, qobig‘i burishib qoladi. ("ko‘z oldimizda eriydi"), xiralashadi; jigar to‘qimasi kulrang, loyga o‘xshaydi.

Bo‘laklar markazida keng nekroz o‘choqlari paydo bo‘ladi, nekroz sohasi keyinchalik butun bo‘lakni va hatto bir nechta bo‘laklarni o‘z ichiga oladi. Distrofik va nekrobiotik o‘zgarishlar kuchayadigan bu davr 10 – 12 kun davom etadi.



Rasm -26. Jigar to‘qimasidagi yog‘li distrofiya va nekrotik o‘zgarishlarni makromikroskopik ko‘rinishi.

## *2. Qizil distrofiya davri*

Kasallikni 12 – 14 kunida jigarni nekrotik to‘qimasi parchalanadi, so‘rilib ketadi. Bu jarayon bo‘laklarni markazida boshlanib, sekin-asta periferiyasiga yoyiladi. Kasallikning 3-haftasida jigar hajmi kamayishda davom etadi va u giperemiyalanadi. Bu o‘zgarishlar jigar bo‘laklarini yog‘-oqsil detritining fagostitozga uchraganligi va rezorbstiyalanganligi bilan bog‘liq. Retikulyar stromasidagi sinusoidlari qonga to‘ladi. Gepatostitlar bo‘lakni faqat periferiyasidagina saqlanadi. Makroskopik tekshirishda kasallikni 15 – 17 kuniga

borib, jigar ola-bula, so'ngra (kapillyarni qon bilan to'lib ketishi natijasida) qizil va kichkina bo'lib qoladi.

Kasallik o'tkir, nim o'tkir va surunkali kechishi mumkin.

**O'tkir shakli** (10-15kun) dastlabki kunlarda jigar bo'lagini markazi qismidagi gepatostitlarda keskin namoyon bo'lgan yog'li va oqsilli distrofiyasi, nekrobiozi, trabekulyar tuzilishini buzilishi, periferik qismini ba'zi sohalarida parenximasini o'zgarmay qolgani kuzatiladi. *Makroskopik* jigar to'q sarg'ish, ilvillagan, bujmaygan bo'ladi (sariq distrofiya davri). 3-4 kundan keyin esa jigar keskin kichiklasha boshlaydi. Yorilganda jigar diafragma yoyidan baland joylashishi, qirralari o'tkirlashgani, bujmayishi, ilvillaganligi, rangli qizg'ish («muskatsimon») rangda bo'ladi (qizil distrofiya davri). *Mikroskopik* 3-4 kunlarida jigar bo'lagi va trabekulalarini tuzilishida to'liq dezorganizastiya bo'ladi, «yalang'ochlangan» retikulyar tolalar, trabekulalar, yadrosiz gepatostitlarning qoldiqlari kuzatiladi. Talog'i va limfa tugunlari kattalashgan, ilvillagan bo'ladi. Terisi, shilliq va seroz qatlamlarda qon quyilishlar kuzatiladi. Ichki a'zolarda nekrobiotik va disregenerativ o'zgarishlar (buyrakda, me'da osti bezida, miokarda, MNS va b.) rivojlanadi.

**Nim o'tkir shaklida** o'zgarishlar ko'proq jigar bo'lagini markaziy qismida namoyon bo'ladi: markaziy qismida distrofiya, nekrobioz, nekroz, periferik qismida esa saklangan trabekulyar va bo'laklararo o't yo'llarini epiteliylari hisobiga regenerator jarayonlar kuzatiladi. Oqibatda bo'lak markazida tomirlar va o'sayotgan biriktiruvchi to'qima, periferik qismida esa regenerat tugunlari, kapillyarlarni noto'g'ri rivojlanishi, o'tni dimlanishi kuzatiladi. Bu shakli nisbatan ko'prok uchraydi.

**Surunkali shakli** kamrok uchraydi, regenerativ jarayonlar kuchli bo'ladi, jigar kichiklashadi, kesilganda yuzasi sarg'ish-kulrang tugunsimon donadorlik oladi (jigarning tugunsimon giperplaziyasi).

Jigar bo'lagining gepatostitlari xalok bo'lgan trabekulalarida tomirlar bo'shab qoladi, argirofil tolalar emiriladi, o'rniga fibroz to'qima o'sadi. Bu keyinchalik qon

oqishining buzilishiga, stirroz va o'sma jarayonlarini rivojlanishiga olib boradi. Surunkali shakllari har doim asstit, sariqlik bilan birgalikda namoyon bo'ladi

Jigarning massiv nekrozi, sariqlik, portal va taloq yaqinidagi limfa tugunlari giperplaziysi (ba'zan u septistemiyaga o'xshaydi), terida, shilliq va seroz pardalarda, o'pkada ko'p qon ketishlar, buyrak kanalchalari epiteliysining nekrozi, oshqozon osti bezi, miokard, markaziy asab tizimidagi distrofik va nekrobiotik o'zgarishlar qayd etiladi.

Jigarning progressiv nekrozi bilan bemorlar odatda o'tkir jigar yoki buyrak etishmovchiligidan halok bo'lishadi (gepatorenal sindrom). Toksik distrofiya natijasida jigarning postnekrotik stirrozi rivojlanadi.

Surunkali toksik jigar distrofiyasi kasallik takrorlanganda kamdan-kam hollarda kuzatiladi. Yakunida jigarning postnekrotik stirrozi rivojlanadi.

**Jigar – hujayra etishmovchiligi (1948y. E.M.Taraev)** kichik va katta ko'rinishlarga bo'linadi, u gepatostitlarni destruksiyasi va funkstiyasini turli darajada etishmovchiligi bilan namoyon bo'ladi.

**Jigar – hujayra etishmovchiligi (jigar etishmovchiligi)** - bu jigar funkstiyalarini organizmning normal ishlashi uchun zarur bo'lgan darajasidan pastga tushgan patologik holatidir. O'tkir jigar etishmovchiligi o'tkir virusli hepatitning fulminant kechishi, qo'ziqorindan zaharlanish yoki uglerod tetraxlorid bilan zaharlanish, o'tkir alkogolli zaharlanish va ba'zi dorilarni haddan tashqari dozasi ta'sirida rivojlanishi mumkin. Surunkali jigar etishmovchiligi turli xil jigar kasalliklarini surunkali kechishi natijasidir: stirroz, jigarda qon aylanishini surunkali buzilishi va portal gipertenziya. Jigar to'qimasi yuqori regenerativ qobiliyatga ega bo'lib, uning massasining katta qismi zararlanganda jigar faoliyati buziladi. Jigar etishmovchiligi organizmdagi barcha turdag'i metabolizmning og'ir buzilishlariga olib keladi. Oqsil almashinuvining buzilishi jigarda oqsillar - albuminlar,  $\alpha$ -,  $\beta$ -globulinlar sintezining pasayishi bilan namoyon bo'ladi, ularning qondagi darjasini pasayadi (gipoproteinemiya). Albumin sintezining pasayishi natijasida onkotik qon bosimi pasayadi, bu esa shish paydo bo'lishiga, shu jumladan asstitning rivojlanishiga olib keladi. Qon ivish tizimida ishtirok etuvchi

oqsillari - protrombin, fibrinogen ishlab chiqarish kamayadi, bu qon ketishiga olib kelishi mumkin (gemorragik sindrom). Gepatostitlarda funkstional jigar etishmovchiligi bilan mochevina sintezi pasayadi, qonda uning darajasi pasayib, ammiak konstentrastiyasi ortadi.

Jigar etishmovchiligidagi yog‘ almashinuvining buzilishi gepatostitlardagi yog‘larni utilizastiyasining pasayishi bilan namoyon bo‘ladi, natijada jigarning yog‘li distrofiya rivojlanadi. Yog‘larni to‘liq parchalanmagan mahsulotlari, ketokislotalar qonda to‘planadi. Xolesterinning sintezi va oksidlanishi, uning o‘t kislotalariga aylanishi va o‘t suyuqligi bilan chiqarilishi buziladi.

Jigar etishmovchiligidagi uglevod almashinuvining buzilishi glikogen sintezi va parchalanishining pasayishi, uglevod bo‘lmagan tabiatdagi moddalardan glyukoza hosil bo‘lishining buzilishi (glyukoneogenezi) bilan namoyon bo‘ladi, bu qonda glyukoza darajasining pasayishiga olib keladi (gipoglikemiya), gipoglikemik koma bilan og‘irlashishi mumkin bo‘ladi.

Jigar etishmovchiligi bilan jigarning barer funkstiyasi - ya’ni organizm to‘qimalari va ichaklarda so‘riladigan toksik mahsulotlarni, mikrob toksinlarini va boshqa toksik moddalarni zararsizlantirish (detoksikastiya) jarayonlari buziladi. Ushbu funkstyaning buzilishi jigar etishmovchiligi, isitma va og‘izdan jigar hidi kelishi belgilarini paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lib, ularni paydo bo‘lishi metionin aminokislotasini almashinuv mahsuloti bo‘lgan merkaptanni xavoga chiqishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Jigarning detoksikastiya funkstiyasining buzilishi qonda detoksikastiya qilinmagan parchalangan oqsil mahsulotlarini (ammiak, fenollar, merkaptanlar) to‘planishiga olib keladi, bu markaziy asab tizimining (jigar enstefalopatiyasi) faoliyatining pasayishiga, jigar komasiga olib keladi.


Jigar etishmovchiliginining namoyon bo‘lishida sariqlik va gemorragik sindromlar xam kuzatilib, ular xolemiya va qon ivishining pasayishi natijasida rivojlanadi.

**Sariqlik** - bu qonda va to‘qimalarda tanadan chiqariladigan o‘ting asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan bilirubinning ortiqcha miqdori (34 mkmol/l dan ortiq) to‘planishi natijasida rivojlanadigan sindrom. Klinik jihatdan sariqlik

terining, skleraning va shilliq pardalarning sariq rangga bo‘yalishi bilan namoyon bo‘ladi. Ko‘zga ko‘rinadigan sariqlik qondagi bilirubin konstentrastiyasi 51mkmol/l (odatda 8-20 mkmol/l) dan oshganda paydo bo‘ladi.

Jigar komasi - progressiv jigar etishmovchiligi rivojlanishini yakuniy bosqichi bo‘lib, u markaziy asab tizimi funkstiyalarini chuqur buzilishi, xushini yo‘qotish, refleks reakstiyalarini ingibistiya qilish va organizmning hayotiy faoliyatining buzilishi (birinchi navbatda nafas olishi va qon aylanishining buzilishi) bilan tavsiflanadi. Koma ko‘pincha bemorning o‘limi bilan tugaydi.

Jigar stirrozida taloq kattalashgan (splenomegaliya) bo‘lib, u retikuloendotelial hujayralar giperplaziyasiga va qorin bo‘shlig‘ida venoz dimlanish natijasida yuzaga keladi. Jigar stirrozining og‘ir asorati gepatorenal sindrom bo‘lib, unda nekrotik nefroz belgilari rivojlanadi. Jigar stirrozi fakultativ o‘sma oldi jarayondir.



Rasm -27. Bilirubin xosil bo‘lishi, uning konyugastiyasi, evakuastiyasini sxemasi.

## YOG'LI GEPATOZ

Yog'li gepatoz (sinonimlari: jigarning yog'li degenerastiyasi, yog'li infiltrastiysi yoki semirib ketishi; jigar steatozi) - gepatostitlarda yog'ning ko'payishi bilan tavsiflangan surunkali kasallik.

**Etiologiyasi va patogenezi.** Yog'li gepatozda toksik ta'sirlar jigarga ta'sir ko'rsatadi (alkogol, instektistidlar, ba'zi dorilar), endokrin-metabolik kasalliklar (qandli diabet, umumiy semizlik), ovqatlanishning buzilishi (lipotropik omillarning etishmasligi, kvashiorkor, oziq-ovqat bilan ortiqcha yog'lar va uglevodlarni iste'mol qilish) va gipoksiya (yurak-qon tomir, qon tomir, o'pka etishmovchiligi, anemiya va boshqalar).

Alkogolizmda etanol jigar gepatostitlariga ta'sir etib, triglisteridlarning sintezi kuchayadi, yog' kislotalarini yog' depolaridan mobilizastiyasi kuchayadi va yog' kislotalarining jigarda utilizastiyasi kamayadi.

Hosil bo'lgan triglisteridlар inert birikmalar bo'lib, gepatostitlarda sodir bo'lgan sintetik jarayonlarda ishtirok etmaydi. Bu spirtli ichimliklar bilan zaharlanishida jigar steatozining davomiyligini tushuntiradi.


Jigar steatozini rivojlanishida iste'mol qilingan alkogol miqdori va uni uzoq vaqt iste'mol qilish muhim ahamiyatga ega.

**Patologik anatomiya.** Steatozli jigar - katta, sariq yoki qizil-jigarrang, uning yuzasi silliq bo'ladi. Gepatostitlar stitoplazmasida triglisteridlар bilan bog'liq yog'lar aniqlanadi.

Gepatostitlarning yog' bosishi changsimon, kichik va katta tomchilar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Lipid tomchilari nisbatan buzilmagan organellalarini hujayraning chetiga suradi, hujayrauzuksimon ko'rinish oladi.

Yog'li kiritmalar gepatostitlarni tarqoq, zonal yoki butun jigar parenximasini (diffuz semizlik) qamrab olishi mumkin. Ba'zi holatlarda (intoksikastiya, gipoksiya) jigar hujayralarini semirishi asosan stentrilobulyar, boshqalarida (oqsil-vitamin etishmovchiligi, umumiy semizlikda) - asosan periportal sohalarda rivojlanadi. O'tkir yog'li infiltrastiya bilan jigar hujayralari nobud bo'ladi, yog'

tomchilari birlashadi va hujayradan tashqari yog‘li kistalarni hosil qiladi, ularning atrofida hujayra reakstiyasi paydo bo‘ladi, biriktiruvchi to‘qima o‘sadi.



Rasm -28. Jigarni yog‘li distrofiyasi va fibrozi(makro-mikroskopik ko‘rinishi). Gematoksilin-eozin usulida va sudan Sh bilan bo‘yash.

Yog‘li gepatozning 3 bosqichi mavjud: 1) oddiy yog‘ bosish, hepatostitlar shikastlanmagan va mezenximal-hujayra reakstiyasi ifodalanmagan; 2) hepatostitlar nekrobiozi va mezenximal hujayra reakstiyasi bilan birgalikda yog‘ bosish; 3) jigarning bo‘lak tuzilishini qayta qurish boshlanishi bilan yog‘ bosishi,

disregenerastiyasi. Jigar steatozining uchinchi bosqichi qaytmas bo‘lib, stirroz oldi hisoblanadi. Steatoz fonida stirroz rivojlanishi bilan gepatostitlardan yog‘lar yo‘qoladi. Jigar steatozi bilan sariqlik kuzatiladi. Ba’zi hollarda yog‘li gepatozlar - surunkali pankreatit, nevrit bilan birga kuzatiladi.

### **JIGAR HUJAYRA ETISHMOVCHILIGI BELGILARI:**

- Zardobda gepatostitlar sintezlardigan moddalarni kamayishi va detoksikastiya qiladigan moddalarni ortishi,
- Qonda gepatostitlar o‘lganda ajralib chiqadigan aminotransferazalarni qisqa muddatga (bir necha kunga) ortishi (10-20martagacha),
- Gepatosttlarda o‘t hosil qilinishi va chiqarilishi buzilganda ishqoriy fosfataza miqdorini zardobda ortishi,
- Jigar kattalashi hisobiga o‘ng qovurg‘a ostida og‘riq paydo bo‘lishi,
- «Jigar hidi» oqsillar metabolizmi to‘liq bo‘lmaganidan,
- Terisida tomirlar yulduzchasi, palmar eritema, kaftni qizarishi (gepatostitlar inaktivastiya qiladigan estrogenlar miqdorini ortishi hisobiga arteriovenoz anastomozlar restektorlari o‘zgarishi hisobiga),
- «Malinasimon til» - vitaminlar almashinushi buzilishi hisobiga,
- Terisida qichishish - qonda gistamin va o‘t kislotalari miqdorini ortishi hisobiga,
- Gemorrargik sindrom (gepatostitlar tomonidan heparin, fibrinogen sintezini buzilishi oqibatida),
- Me’da ichak yo‘llarida yaralar paydo bo‘lishi (gistamin ko‘p ishlab chiqarilishi hisobiga).
- Sariqlik (qonda o‘t kislotasi va bilirubin miqdorini ortishi hisobiga).
- Enstefalopatiya (toksik moddalar miya to‘qimasiga toksik ta’siri, kumulyastiyasi, adrenergik moddalar o‘rnini egallashi oqibatida, yakunida miya komasi rivojlanadi).

## GEPATITLAR

**Gepatit** - bu jigarn yallig'lanishi kasalligi bo'lib, u parenximasida distrofik, nekrobiotik o'zgarishlar va stromasida yallig'lanish infiltrastiyasi bilan namoyon bo'ladi. Gepatit birlamchi ya'ni mustaqil kasallik sifatida yoki boshqa kasallikni namoyon bo'lishi sifatida ikkilamchi rivojlanishi mumkin.

### *Etiologiyasi va patogenezi.*

**Birlamchi hepatitni** hosil bo'lishi ko'pincha - hepatotrop viruslarni (virusli hepatit), alkogolni (alkogolli hepatit) yoki dorilarni ta'siri bilan bog'liq bo'ladi (medikamentoz yoki dorilar ta'siri ostidagi hepatit).

Hujayradan tashqari xolestazga va jigar osti sariqligiga olib boruvchi omillar xolestatik hepatitga sabab bo'ladi.

**Ikkilamchi hepatitlar** infekstiyalar (sariq lixoradka, stitomegaliya, ich terlama, dizenteriya, bezgak, sil, sepsis), intoksikastiyalar (tireotoksikoz, hepatotoksik zaxarlar), me'da-ichak yo'llarini shikastlanishi, biriktiruvchi to'qimani sistemali kasalliklari va boshqalarda kuzatiladi.

Gepatitlarni kechishi - o'tkir va surunkali bo'ladi.

O'tkir va surunkali hepatitning patologik anatomiyasi har xil bo'ladi.

**O'tkir hepatit** ekssudativ va produktiv bo'lishi mumkin.

**Ekssudativ hepatitda** - ekssudat seroz (masalan, tirotoksikozda) xarakterga ega bo'lib, jigar stromasiga singigan (seroz hepatit), boshqalarda - yiringli ekssudat (yiringli hepatit) portal yo'llarga diffuz ravishda kirib borishi mumkin (masalan, yiringli xolangit va xolangiolitda) yoki abssteslarni hosil qiladi (yiringli appendistitdagi pileflebitli jigar absstessi, amebiaz; septikopiemyadagi metastatik abssteslar).

**Produktiv hepatitlar** hepatostitlarni distrofiyasi, nekrozi va jigarning retikuloendotelial tizimining reakstiyasi bilan tavsiflanadi. Natijada, proliferastiyalanayotgan yulduzsimon retikulo-endoteliostitlarni (Kupfer hujayralari), gematogen elementlarni o'chog'li yoki diffuz infiltratlari hosil bo'ladi.

O'tkir gepatitda jigarning ko'rinishi rivojlanayotgan yallig'lanishning tabiatiga bog'liq.

**Surunkali gepatit** - parenxima elementlarini buzilishi, stromasini hujayra infiltrasiyasi, sklerozi va jigar to'qimalarini yangilanishi bilan xarakterlanadi. Ushbu o'zgarishlar turli xil kombinastiyalarda bo'lishi mumkin, bu surunkali gepatitning uchta morfologik turini ajratishga imkon beradi: faol (agressiv), persistik va xolestatik gepatitlar.

**Surunkali faol gepatitda** - gepatostitlarni og'ir distrofiyasi, nekrozi (destruktiv gepatit) va kuchli hujayrali infiltrasiyasi kuzatiladi, portal va periportal maydonlarni sklerotik o'zgarishlar egallaydi.

**Surunkali persistik gepatitda** - gepatostitlarda distrofik o'zgarishlar engil kechadi; faqat portal maydonlarini diffuz hujayrali infiltrasiyasi xarakterli bo'ladi.

**Surunkali xolestatik gepatitda** - xolestaz, xolangit va xolangiolit namoyon bo'ladi, ular stromasini infiltrasiyasi va sklerozi, shuningdek, gepatostitlarning distrofiyasi va nekrobiozi bilan birga kuzatiladi.

Persistik va xolestatik turlaridan tashqari, ayrim tadqiqotchilar jigarning virusli infekstiyalarida surunkali bo'lakli hepatitni farqlashadi, bu gepatostitlar guruhlarining intralobulyar nekrozi va limfold hujayralar infiltrasiyasi bilan tavsiflanadi. "Lobulyar hepatit" atamasi faqat tavsiflovchi (gistotopografik) bo'lib, faqat jigar bo'laklari ichidagi o'zgarishlarni joylashuvini ta'kidlaydi.


Surunkali gepatitda jigar odatda kattalashgan va zich bo'ladi. Uning qobig'i o'chog'li yoki diffuz qalinlashgan, oq rangga ega bo'ladi.

**Etiologiyasi va patogenezi.** Birlamchi hepatitning paydo bo'lishi ko'pincha hepatotrop virus (virusli hepatit), alkogol (alkogolli hepatit) yoki giyohvand moddalar (dorilar yoki dori vositalaridan kelib chiqqan hepatit) bilan bog'liq bo'ladi. Xolestatik hepatitning sababi hujayradan tashqari - omillardir xolestaz va mexanik sariqlik; dorilar (metiltestosteron, fenotiozin hosilalari va boshqalar). Birlamchi hepatitlar orasida eng muhimi virusli va alkogolli hepatitlardir.


**Ikkilamchi hepatitlar** - boshqa kasallikning ko'rinishi (nospestifik reaktiv hepatit) juda xilma-xildir. Bularga: infekstiya (sariq isitma, stitomegaliya, ich

termama, dizenteriya, bezgak, sil, sepsis), intoksikastiya (tirotoksikoz, gepatotoksik zaharlar), oshqozon-ichak traktining shikastlanishi, biriktiruvchi to‘qimalarning tizimli kasalliklari va boshqalar kiradi.

**Gepatitlarni yakunlanishi:** tabiat va kechishiga, jarayonning tarqalishiga, jigarning shikastlanish darajasiga va uning tiklanish qobiliyatiga bog‘liq. Engil holatlarda jigar to‘qimalari tuzilishini to‘liq tiklashi mumkin. Jigarning o‘tkir massiv shikastlanishida postnekrotik stirroz rivojlanishi mumkin.



Rasm -29. Jigar absstessi, uni limfo- va gematogen tarqalishi. O‘ngda normal jigar, uni joylashuvi ko‘rsatilgan.



Rasm -30. Gidatidoz exinokokkoz, uni tabiatda tarqalishi, jigardagi fibroz qobiq(makro-) va o'ngda xayvon paraziti atrofidagi granulematoz yallig'lanishi.

### Virusli hepatitlar

**Virusli hepatit** - bu asosan jigar va ovqat hazm qilish traktining shikastlanishi bilan tavsiflangan virusli kasallik. S.P Botkin 1888 yilda kasallikni etiologiyasi va patogenezi (yuqumli sariqlik) haqida ilmiy asoslangan konstepsiyani ilgari surgan (Botkin kasalligi).

- Virusli hepatit, bu - hepatotrop viruslarni stitotoksik va autoimmun ta'siri natijasidagi jigarning yallig'lanish kasalligidir.
- **Etiologiyasi:** A, V, S, D, E, F, G hepatotrop viruslar kasallikni keltirib chiqaradi.
- A virusli hepatit doimo o'tkir kechadi, fekal-oral yo'l bilan yuqadi, virus bevosita stitotoksik ta'sir ko'rsatib, jigar hujayralarini nekrozlaydi.

- E virus ham fekal-oral yo‘l bilan yuqib o‘tkir virusli gepatit qo‘zg‘atadi.
- V va S virusli gepatitlar o‘tkir hamda surunkali kechadi, parenteral yo‘l bilan, hamda yo‘ldosh orqali onadan bolaga o‘tadi. Virus bilan kasallangan gepatostitlar immun reakstiyalar orqali yo‘q qilinadi.
- D virus faqat V virus bilan kasallanganlarga yuqadi.
- F, G viruslar, V va S borligida yuqadi va gigant hujayralar paydo qiladi.

**Postnekrotik stirroz** jigar parenximasining massiv nekrozi natijasida rivojlanadi. Nekroz bo‘lgan joylarda retikulyar stromaning cho‘kishi va biriktiruvchi to‘qimalarni proliferastiyasi (kollapsdan keyin stirroz) yuzaga keladi, keng tolali maydonlarni hosil qiladi. Stromaning cho‘kishi natijasida portal triadalar va markaziy tomirlar birlashadi, markaziy vena yo‘q yoki periferiyaga siljigan, “triadalarni yaqinlashuvi fenomeni”, bir ko‘rish maydonida uchtadan ortiq triadalar topiladi, bu postnekrotik stirrozning patognomonik morfologik belgisi hisoblanadi. Soxta bo‘laklar asosan yangi hosil bo‘lgan jigar to‘qimalardan iborat bo‘lib, ularda ko‘p yadroli jigar hujayralari mavjud bo‘ladi. Gepatostitlarni oqsilli distrofiyasi va nekrozi xarakterlidir, jigar hujayralarida lipidlar odatda yo‘q bo‘ladi. Regenerastiyalanayotgan gepatostitlar ko‘p bo‘ladi. Ko‘pincha xolangiollarni ko‘payishi, xolestaz kuzatiladi. Postnekrotik stirrozli jigar - zich, hajmi kichik, katta tugunlari keng va chuqur donadorlik bilan ajratilgan (katta-tugunli yoki aralash stirroz).



Rasm -46. Triadalarni yaqinlashuvi fenomeni. 1-bo‘lak markazi qismi, 2-portal trakt.

Postnekrotik stirrozlar tez rivojlanadi (ba’zan bir necha oy ichida), jigar to‘qimalarining nekroziga olib keladigan turli sabablar bilan bog‘liq, lekin ko‘pincha bu jigarni toksik distrofiyasi, keng nekrozli virusli gepatit va kamdan-

kam holatlarda algogolli gepatit bo‘ladi. Bu erta gepatostellyulyar etishmovchilik, kech portal gipertenziya bilan tavsiflanadi.


Jigar stirrozlari: a’zoni diffuz, surunkali shikastlanishidan so‘ng rivojlanadi. Portal trakt oralig‘iga kirib boruvchi fibroz septalar hosil bo‘ladi, normal angioarxitektonikani buzadi, qon kelishi, ketishi qiyinlashib, keyinchalik portal gipertenziyaga olib boradi. Parenximasida regeneration tugunlar hosil bo‘ladi. Stirroz rivojlanishi uchun minimum 10 yil kerak bo‘ladi. Jigarda normada 4-tipdagi kollagenni sintezlanadi, ular nozik retikulyar to‘rni hosil qiladi, patologiyada perisinusoidal yulduzsimon hujayralar faollahib, 1- va 3-tipdagi kollagenlarni ko‘p miqdorda sintezlab, fibroz septani hosil qiladi. Yillar davomida stirroz simptomsiz kechadi, yakunida portal gipertenziya bilan og‘irlashadi, portokavol anatomozlarni to‘laqonliligi, asstilar bilan namoyon bo‘ladi. Xajmini kichiklashuvi metabolistik funkstiyasini pasayishishiga olib boradi

**Portal stirrozlar** - sklerotik portal va periportal maydonlardan tolali septalarning lobulalarga tiqilib qolishi natijasida hosil bo‘ladi, bu markaziy tomirlarning darvoza tomirlari bilan bog‘lanishiga va kichik (monolobulyar) soxta bo‘laklarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Gepatostitlar oqsilli(balonli) va yog‘li distrofiya xolatida U bir xil gistologik manzara – siyrak tolali biriktiruvchi to‘qima tarmog‘i va oz miqdordagi soxta bo‘laklar bilan xarakterlanadi. Septalarda polimorfyadroli leykostitlar, limfostitlar va makrofaglarni infiltratlari aniqlaniladi. O‘t kapillyarlari proliferastiyalanadi. Makroskopik jigar o‘lchamlari boshlanishida kattalashgan, keyinchalik kichiklashgan, kattiklashgan, og‘irligi 500g-gacha, yuzasi mayda donador, tugunlari to‘q- sarg‘imtir rangda, biriktiruvchi to‘qima qatlami bilan chegalangan. Oxirida jigar qizg‘ish-jigarrang rangda, tugunlari o‘lchamlari 3-10mm gacha kattalashadi. Bu stirroz asta – sekin rivojlanadi, alkogolizm va ovqatlanish disbalansi, virusli gepatit, yog‘li gepatozlardan keyin kelib chikadi. Portal gipertenziya erta, jigar hujayralari etishmovchiligi kech rivojlanadi.




Rasm -47. Jigarning portal, postnekrotik va billar stirrozlari. Tashqi va kesim yuzalaridagi ko‘rinishlari.

Surunkali yallig‘lanishning morfologik belgilari va gepatostitlarning yog‘li degenerasiyasi portal stirrozda juda keng tarqalgan. Portal stirrozida jigar kichik, zich, donador yoki mayda tuberkulyar (kichik tugunli stirroz) bo‘ladi. Portal stirrozlari sekin (ko‘p yillar davomida), asosan surunkali alkogolizmda (alkogolli stirroz) rivojlanadi.



Rasm -48. Jigarni portal stirrozi: 1. Makroskopik ko‘rinishi, 2 - biriktiruvchi to‘qima bilan chegaralangan soxta bo‘laklar (mikroskopik ko‘rinishi). Gematoksilin – eozin usulida bo‘yash.



Rasm -49. Jigarni billiar stirozi: makroskopik va mikroskopik ko‘rinishi. Yuzasi kulrang-zangori, mayda donador, zichlashgan, gistologik xolestaz, o‘t stazlari, o‘t orolchalarini aniqlaniladi. Gematoksilin – eozin usulida bo‘yash.


Yiringli bo‘lmanan destruktiv (nekrotik) xolangit va xolangiolitga asoslangan stirroz - **birlamchi biliar stirrozdir.**

Birlamchi stirrozni 2 turi bo‘ladi. **Birlamchi billiar stirrozni** asosida yiringli bo‘lmanan destruktiv xolangit va xolangiolit yotadi. Destrukstiyaga javob sifatida o‘t yo‘llari chandiqlanishi va proliferastiyasi, periportal maydonni sklerozi va infiltrastiysi, bo‘lak chekkasidagi gepatostitlarni xalok bo‘lishi, septa va yolg‘on bo‘laklarni hosil bo‘lishi kuzatiladi. Bunda jigar kattalashgan, qattiqlashgan, kulrang – zangori rangda, yuzasi silliq yoki mayda donador bo‘ladi. Bu stirroz ko‘pincha autoimmun kasalliklarda, ayollarda klimaks vaqtida kuzatiladi.


Mikroskopik o‘zgarishlarda kichik o‘t yo‘llarini epiteliysi nekrozlanadi, ularning devoridagi biriktiruvchi to‘qima limfostitlar, plazmatik hujayralari va makrofaglar bilan infiltrastiylanadi. O‘t yo‘llarini to‘silishi, ko‘payishi va chandiqlanishi, periportal maydonlarni infiltrastiysi va sklerozi, bo‘laklar periferiyasida gepatostitlarni o‘limi, septa va soxta bo‘laklarni shakllanishiga javoban stirroziga xos o‘zgarishlar yuzaga keladi.

Jigardan tashqari o‘t yo‘llarini (tosh, o‘sma), o‘t yo‘llarining infekstiyasi - yiringli xolangit va xolangiolit (xolangiolistik stirroz) obstrukstiyasi xolestazga olib keladi (xolestatik stirroz). **Ikkilamchi biliar stirroz** o‘t kapillyarlarini kengayishi va yorilishi, "safro ko‘llari", xolangit va perixolangitni, periportal sohalarda va bo‘laklar ichida biriktiruvchi to‘qimalarning rivojlanishi, yolg‘on bo‘laklarning shakllanishi bilan tavsiflanadi (portal tipdagi stirroz). Bunda jigar kattalashgan, zich, yashil rangda, kengaygan, o‘t yo‘llari dimlangan bo‘ladi.

**Aralash stirrozlarni** shakllanishi ba’zi hollarda portal stirrozga xos bo‘lgan o‘zgarishlarga massiv jigar nekrozining qo‘shilishi (odatda disstirkulyastyiga genezli), boshqalarida postnekrotik stirrozga xos bo‘lgan fokal nekrotik o‘zgarishlarga mezenxima-hujayra reakstiyasini qo‘shilishi bilan bog‘liq bu septa shakllanishiga olib keladi.



Rasm -50. O‘t yo‘llarini obstruksiyasi oqibatida o‘t suyuqligi ta’sirida portal periportal sohalaridagi yallig‘lanishlar.



Rasm -51. Ikkilamchi billiar stirrozdagi makro-mikroskopik o‘zgarishlar (sariqlik, surunkali yallig‘lanish, fibroz to‘qimani o‘sishi).

Jadval -2.

<b>Sirrozlarni belgilari</b>	<b>Jigar stirrozlarini belgilari</b> <i>(«nozospestifik bosqichida»)</i>			
	<b>Postnekrotik</b>	<b>Portal</b>		<b>Biliar</b>
		<b>alkogolli</b>	<b>Venoz dimlanishdagi</b>	
<b>Jigarni rangi</b>	kulrang	Sarg‘ish jigarrang	Kizg‘ish jigarrang	Zangori
<b>Tugunlarni o‘lchami</b>	Yirik (>3cm)	Mayda tugunlar ko‘proq	Mayda va yirik tugunlar	Mayda tugunlar
<b>Biriktiruvchi to‘qimani o‘sishi</b>	Turli o‘lchamdagи septalar, notejis	Bo‘laklar atrofida xalqasimon	Bo‘lak maydasida chandiq ko‘rinishida	«orolchalar» sklerozi va o‘t yo‘llari atrofida
<b>Markerlari</b>	Kaunsilmen tanachalari	Mallori tanachalari	Gemosideroz, venalar trombozi	Xoleztazlar, xolangitlar manzarasi
<b>Jigar stirrozlarini belgilari</b> <i>(«nozonospestifik » bosqichida)</i>				
Jigarni o‘lchami 1 kg-dan kichik, to‘qimasi zichlashgan, regenerat tugunlari turlicha o‘lchamda va shaklda, og‘irlashuvlarni qo‘silishi – qizilo‘ngach yoki me’daning kengaygan venalaridan qon ketishi, asstitni peritonitga o‘tishi, darvoza venasini trombozi, rakning rivojlanishi.				

Jigar stirrozi bilan ekstragepatik o‘zgarishlar juda xarakterlidir: sariqlik va gemorragik sindrom, hepatostellyulyar etishmovchilikning namoyon bo‘lishi, xolestaz va xolemiya, skleroz, portal gipertenziya, porto- koval anastomozlarni

kengayishi, asstitlar. Retikuloendoteliy giperplaziyasi va skleroz natijasida taloq kattalashgan, zich bo‘ladi (splenomegaliya).

Jigar stirrozi fonida gepatorenal sindromning rivojlanishi bilan buyraklarda o‘tkir etishmovchilik ko‘rinishlari (naychalar epiteliysining nekrozi) aniqlanadi. Ba’zi hollarda stirroz - glomeruloskleroz (aniqrog‘i, immunokompleks) glomerulonefrit) patogenezida ma’lum ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Miyada parenximasi hujayralarida degenerativ o‘zgarishlar rivojlanadi.

Jigar stirrozining klinik va funkstional xususiyatlari quyidagilarni hisobga oladi:

- 1) gepatostellyulyar etishmovchilikni (xolemiya, gipoalbuminuriya, gipoprotrombinemiya, vazoparalitik moddalarni mavjudligi, gipoonkiya, gipotensiya, qon ketishlar, jigar komasi);
- 2) portal gipertenziyani (asstit, qizilo‘ngach-oshqozondan qon ketishi); 3) jarayonning faolligi (faol, o‘rtacha faol va nofaol); 4) kechishini xarakteri (progressiv, barqaror, regressiv).

### **Stirrozlarda jigardan tashqari o‘zgarishlar:**


Dekompensastiyada asstit kuzatilib, u venoz oqim qiyinlashuvi oqibatida kollateral yo‘llarni rivojlanishidan hosil bo‘ladi:

- 1) Kindik venasidan kindik sohasiga va yuqorigi kovak vena /porto-abdominal yo‘l/.
  - 2) Me’daning kardial sohasidagi venalardan diafragma venalari va qizilo‘ngach venalariga /porto-eozofagal yo‘l/.
- 3/ Porto-ileostekal yo‘l – ileostekal sohasi venalari orqali.
- 4/ Porto-lyumbal yo‘l – bel venalari orqali pastki kovak venalarga
- 5/ Porto-pulmonal yo‘l - jigar qobig‘i va diafragma o‘rtasida bitishmalar hosil bo‘lganda ochilib stirkulyastiya qiladi.


Nisbatan ko‘proq porto-abdominal yo‘l stirkulyastiya qiladi (nisbatan fiziologik, bunda bir qism qon jigardan o‘tadi), va u gepatofetal yo‘l deyiladi, jigardan tashqari oqsa gepatofugal yo‘l deyiladi.

Diagramma -2.

## PORTAL GIPERTENZIYANI ETIOLOGIYASI



**Hepatic and extrahepatic changes in portal hypertension**




Rasm -52. Portokaval anostomozlar.

Gepatostellyulyar etishmovchilik va portal gipertenziyaning og‘irligini hisobga olgan holda, jigar funkstiyasini kompensastiyalangan va dekompensastiyalangan stirrozlari haqida gapiriladi.

Jigar stirrozining faollashishi odatda uning dekompensasiyasiga olib keladi.

### **Og‘irlashuvlari.**


- jigar komasi,
- darvoza venasi trombozi
- asstit-peritonit (asstit patogenezida portal gipertenziya, limfa oqishini buzilishi, gipoproteinemiya, buyrakda qon aylanishini pasayishi, suv va natriyni ushlanib qolishi, jigar funkstiyalarini buzilishi oqibatida aldosteronni ortishi, gipersekrestiya ahamiyatga egadir).
- Sariqlik (parenximani etishmovchiligi oqibatida).
- Anemiya
- Taloqning kattalashishi
- Moyakni, tuxumdonni, qalqonsimon bezni atrofiyasi, kaxeksiya, sochni to‘kilishi
- Me’da osti bezini sklerozlanishi
- Vitaminlar va b.moddalar almashinuvining buzilishlari va ularning oqibatlari (kaxeksiya, qon ketishlar, polinevritlar, ko‘rishni buzilishi va b.)



Rasm -53. Jigar stirrozlarini og'irlashuvlari.



Rasm –54. Asstit va teleangiektaziya. Meduza boshchasi



Rasm -55. Splenomegaliya (chapda norma). Qizilo'ngach venalarini varikoz kengayishi va yorilishi.




Rasm –56. Qo'llaridagi Palmar eritremiya, giekomastiya manzarasi.

## JIGAR VA O'T YO'LLARINI O'SMALARI

Jigarni birlamchi o'smalari 85% xolatlarda gepatostellyulyar karstinoma (rak), 5-10% xolatlarda xolangiostellyulyar rak (adenokarstinoma) ko'rinishida kuzatiladi. Gepatostellyulyar rak gepatostitlardan, xolangiostellyulyar rakkalar o't yo'llari epiteliylarida yuzaga keladi. Gepatostellyulyar rakkarni kelib chiqishida HBV VA HCV - infekstiyalari bilan bog'liq jigar stirrozi fonida, kamroq aflotoksin ta'sirida (Aspergilillis flavus). Jigar rakkari portal va postnekrotik stirrozlardan keyin ko'proq yuzaga keladi (ko'pincha virus-stirroz-rak ko'rinishida). 90% bemorlar kasallikni dastlabki 6 oyida vafot etishadi. Makroskopik zangori tugun ko'rinishida (o'sma hujayralari) o't suyuqligini ishlab chiqaradi. Jigarni og'irligi 2-3kg-gacha ortishi mumkin bo'ladi.

Gistologik tekshirilganda o'sma hujayralari normal gepatostitlardan katta, stitoplazmasi eozinofil, yadrolari miqdori ortgan, trabekulyar ko'rinish xoil qilgan bo'ladi. Doim o'sma to'qimasida nekroz o'chlg'lari, qon quyilishlar, ba'zan xolestazlar aniqlaniladi. O'sma to'qimasi venalarga invaziv o'sadi, darvoza venalarini tromboziga olib boradi. 50% xolatlarda gematogen metastazlarni beradi.



Rasm -57. Gepatostellyulyar rak (makro-mikroskopik manzarasi).

Jigarda a'zoni tuzilmalaridan yuzaga keluvchi - birlamchi va metastatik - ikkilamchi o'smalari farqlaniladi. Jigarni birlamchi o'smalar gepatostitlardan

(gepatomalar) va o‘t yo‘llarini epiteliysidan (xolangiomalar) rivojlanadi. Ular yaxshi va yomon sifatli o‘smalarga bo‘linadi. Birlamchi o‘smalarga nisbatan metastatik o‘smalar 10-20marta ko‘proq kuzatiladi. Ikkilamchi o‘smalarni manbai tanani har qaysi joyida bo‘lishi mumkin. Erkaklarda - me’da, ichaklar, o‘pkalar, siyidik chiqaruv a’zolari, ayollarda esa - sut bezlari, bachadon, ichaklarni raklari ko‘proq metastaz beradi. Jigarni birlamchi va ikkilamchi o‘smalari tugunsimon va multilokulyar (diffuz) shakllarda bo‘ladi. Jigarni intakt sohalari o‘smalarda shikastlanishida ushbu sohalarda «paraneoplastik nospestifik gepatit» yuzaga keladi, u parenximada distrofik, stromasida yallig‘lanish reakstiyalari bilan namoyon bo‘ladi. 89% xolatlargacha birlamchi gepatostellyulyar raklar jigar stirrozlari fonida yuzaga keladi (shundan 83% alkogolli tabiatga ega, kamroq gemaxromatozda rivojlanadi). Xolangiogen raklar jigar stirroziga aloqador bo‘lmaydi. Boshqa turdagи o‘smalardan jigarda limfangioma, gemangiomalar(ko‘proq kavernozli), sarkomalar kuzatiladi. Kupfer hujayralaridan sarkoma rivojlanishi adabiyotlarda yozilgan.


Jigar o‘smalari nisbatan kam uchraydigan o‘sma hisoblanadi. Odatda jigar stirrozi fonida rivojlanadi, u o‘smalardan oldingi holat hisoblanadi; jigarda o‘smalaridan oldingi o‘zgarishlar orasida gepatostitlar displaziysi eng katta ahamiyatga ega. Dunyoda Osiyo va Afrika davlatlari - jigar o‘smalari yuqori bo‘lgan mintaqalardir - o‘smalar ko‘pincha o‘zgarmagan jigarda rivojlanadi; jigar o‘smalari kam uchraydigan mintaqalar Evropa va Shimoliy Amerika hisoblanadi, bu erda o‘smalar odatda jigar stirrozlaridan rivojlanadi.

Jigar o‘smalarining morfologik tasnifi ularni makroskopik shakliga, o‘sma o‘sishining tabiatiga va xususiyatlariga, gistogeneziga, histologik turlariga bog‘liq bo‘ladi.

**Patologik anatomiysi.** Jigar o‘smalarining makroskopik shakllari: nodulyar - bir yoki bir nechta tugunlar bilan ifodalanadi; massiv - o‘simta jigarning katta qismini egallaydi va diffuz - butun jigar ko‘plab birlashuvchi o‘simta tugunlari bilan band bo‘ladi. Maxsus shakllar kichik va pedunkulyar o‘smalarni o‘z ichiga oladi.

O'sma kasalligida jigar keskin kattalashadi (ba'zan 10 marta yoki undan ko'p), uning massasi bir necha kilogramm bo'lishi mumkin. Tugunli o'smalar - notekis, o'rtacha zichlikda, diffuz o'sma bilan - ko'pincha toshsimon zichlikda bo'ladi.


O'sma o'sishining tabiatи tarqoq, infiltrastion va aralash (tarqoq-infiltrativ) bo'lishi mumkin. Jigar o'smalarini o'sishining xususiyatlari sinusoidlar bo'yab o'sish va diffuz o'sishini o'z ichiga oladi.




Rasm -58. Jigar o'smalarini uni- va multistentrik o'sishi, makroskopik



Rasm -59. Jigar stirrozi fonidagi adenoma va raklar. Jigardagi o'sma metastazlardagi nekroz o'chog'lari.




Rasm -60. Gepatostellyulyar rak, metastaz o'chog'lari.




Rasm -61. Xolangiostellyulyar rak.


**Gistogenez** xususiyatlariga ko‘ra jigar o‘simalari quyidagilarga bo‘linadi:  
 1)gepatostellyulyar (gepatostellyulyar); 2) o‘t yo‘llarining epiteliysidan (xolangiostellyulyar); 3) aralash (gepatoxolangiostellyular ); 4) hepatoblastoma.




Rasm -62. 1-Jigar hujayrali adenoma, o'sma hujayralari yirik va yorug', trabekulyar tuzilmalar xosil qilgan, tomirlari notejis to'laqonlili. 2-gepatostelyulyar rak. Sinusoidlarni kengayishi va ularni atrofida o'sma hujayralarini rozetkasimon joylashuvi. X140.




Rasm -63. Gepatostellyulyar rak. 1-polimorf varianti 2- fibroz to'qimasida yorug' yog' saqllovchi hujayralar. X140



Rasm -59. Gepatoblastoma. Mayda embrional tipidagi arg'amchisimon o'sma hujayralari fetal tipdagi o'sma hujayralar bilan o'rالgan. Osteoid o'chog'lari mavjud. X150.



Rasm -64. Xolangiokarstinoma. 1- oz miqdorda shilimshiq xosil qilib, betartib joylashgan bezli tuzilmalar, chekkasida nekroz sohasi, 2-zich stromasi bilan yaxshi shakllangan bezli tuzilmalar, nekroz o‘chog‘lari. X110.



Rasm -65. 1-xolangiokarstinoma. Papillyar tuzilmalar. Jigar to‘qimasi qoldiqlarni ezilishi. 2-o‘t yo‘llarini raki. Mukoepidermal varianti. X140

Jigar o‘smalarining gistologik turlari orasida trabekulyar, tubulyar, astinar va b. ajralib turadi. Gistologik turlarning har biri turli darajada farqlanishi mumkin.


Jigar o‘smalari limfogen (peritoneal limfa tugunlari, qorin pardalari) va gemitogen (o‘pka, suyaklar) yo‘llar bilan metastazlanadi. Metastazlar, gepatostellyulyar o‘smalarning asosiy tuguniga o‘xshab, ba’zan yashil rangga ega

bo‘lib, bu o‘sma hujayralarining safro ajratish qobiliyatini saqlab qolishi bilan bog‘liq bo‘ladi.


Xolangiostellyulyar raklar jigar stirrozi va NBV infekstiyalar bilan bog‘liq emas, ko‘pincha surunkali xolangioxolit, opistorxoz fonida yuzaga keladi. Surunkali toshli, tohsiz xolesistit fonidagi o‘smlar adenokarstinoma ko‘rinishida bo‘ladi. Makroskopik zinch oqish tugun sifatida, mikroskopik adenokarstinoma ko‘rinishida bo‘ladi. Shilimshiq ishlab chiqarish xarakterli, limfogen metastazlar beradi.

O‘smlar jigar parenximasida, o‘t pufagida, o‘t yo‘llarida joylashishi mumkin, ular mexanik sariqlikni keltirib chiqaradi, jigar funkstiyasini buzadi.

Eng ko‘p uchraydigan asoratlар va o‘lim sababi gepatargiya, parchalanadigan o‘simta tugunlaridan qorin bo‘shlig‘iga qon ketishi, kaxeksiya bo‘ladi.



Rasm -66. Xolangiostellyulyar rak.




Rasm -67. Xolangiostellyulyar rak.


## O‘T PUFAGI KASALLIKLARI

O‘t pufagida yallig‘lanish, toshlarning shakllanishi va o‘smlar kuzatiladi.


Xolestistit yoki o‘t pufagini yallig‘lanishi turli sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Bu o‘tkir va surunkali bo‘lishi mumkin.o‘tkir yallig‘lanishi – kataral, fibrinoz, yiringli (flegmonoz) ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. O‘t pufagi chiqish qismi tosh yoki b. narsa bilan berkilib qolsa o‘t pufagi istisqosi, devorini yupqalashuvi, ba’zan transudatni yiringlashi kuzatiladi. O‘tkir yallig‘lanish keyinchalik surunkali tus oladi. O‘t pufagi devorida makro-mikroskopik o‘zgarishlarni uni atrofiyasi, sklerozi, yallig‘lanish infiltrasiyasi, qalinlashishi, zichlashish kuzatiladi (farfor ko‘rinishida)




Rasm - 68. O‘t yo‘llarini anomaliyalari.




Rasm -69. Surunkali xolestistit.



“Farfor o‘t pufagi”.



Rasm - 70. Surunkali toshli xolestistit (mikro-makroskopik ko‘rinishi).




Rasm -71. O‘t pufagi xolesterizi (shilliq ostki qatlamida stitoplazmasida ko‘p miqdorda xolesterin saqlagan ko‘piksimon hujayralar). Makro-mikroskopik ko‘rinishi.


**O‘tkir xolestistitda** kataral, fibrinoz yoki yiringli (flegmonoz) yallig‘lanish rivojlanadi. O‘tkir xolestistit o‘t pufagi devorining teshilishi va o‘t peritonitlari bilan murakkablashadi, pufak yo‘li yopilganda va bo‘shlig‘ida yiring to‘planadi, o‘t pufagi empiemasi, yiringli xolangit va xolangiolit, bitishmalar paydo bo‘lishi, perioxlestistitlar bilan og‘irlashadi




Rasm -72. O‘t pufagi va o‘t yo‘llaridagi toshlar.



Rasm -73. Xolelitiazdagi klinik – morfologik o‘zgarishlar.



Rasm - 74. Mexanik sariqlikdagi klinik-morfologik o‘zgarishlar.



Rasm -75. Surunkali xolestistitlardagi patomorfologik o‘zgarishlar (makromikroskopik ko‘rinishi). Kasallik qo‘zishidagi o‘zgarishlar.

**Surunkali xolestistit** o‘tkir xolestistit natijasida rivojlanadi, shilliq qavat atrofiyasi, gistolimfostitar infiltrastiya, skleroz va ko‘pincha o‘t pufagi devorining sklerozi, atrofiyasi sodir bo‘ladi.

O‘t pufagidan tosh jigar yoki umumiy o‘t yo‘liga tushib, uning bo‘shlig‘ini yopadigan holatlarda mexanik sariqlik rivojlanadi. Ba’zi hollarda o‘t pufagidagi tosh yallig‘lanishni ham, o‘t kolikasi xurujlarini ham keltirib chiqarmaydi va autopsiyada tasodifan topiladi.

O‘t tosh kasalligi (xolelitiaz) o‘t pufagi tosh hosil bo‘lishi bilan boruvchi kasallik. Tosh hosil bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatadi: pigmentlarni ko‘pligi,xolesterinni ko‘pligi, yallig‘lanish, xolestaz va b. O‘t pufagidagi toshlar tarkibiga qarab: xolesterinli, pigmentli, oxakli, aralash bo‘ladi. Og‘irlashuvlari: yallig‘lanish (o‘tkir va surunkali), fater so‘rg‘ichini, umumiy o‘t yo‘llarini obstruksiyasi, o‘t pufagi devorini yorilishi – o‘t peritonitini yuzaga kelishi va b.

Jadval -3.

### JIGAR O‘SMALARINI GISTOLOGIK KLASSIFIKASIYASI

A.Xavfsiz	A.Gemangioma	Klassifikastiya
1.Jigar hujayrali adenoma (gepatostelyulyar adenoma)	B.Infantil gemangioendotelioma	qilinmaydigan o‘smalari
2.Jigar ichi o‘t yo‘llari adenomasi	V.Gemangiosarkoma	Qon yaratuvchi va limfold to‘qimasini o‘smalari
3.Jigar ichi o‘t yo‘llarini stistadenomasi	G.Embrional sarkoma	Metastatik o‘smalar
B.Xavfli	D. Boshqalari.	Epiteliy anomaliyalari
1.Gepatostelyulyar rak (jigar hujayra raki)	Turli boshqa shakldagi o‘smalari	A.Jigar hujayralarini displaziyasi
2.Xolangiokarstinoma (jigar ichi o‘t yo‘llarini raki)	A.Teratoma	B.O‘t yo‘llarini anomaliyalari
3.O‘t yo‘llarini stistadenokarstinomasi	B.Karstinosarkoma	
4.Aralash gepatoxolangiostelyulyar rak	V.Boshqalari.	
5.Gepatoblastoma		

6.Differensiallashmagan rak			
-----------------------------	--	--	--

### **O‘T PUFAGI VA O‘T YO‘LLARI O‘SMALARINI GISTOLOGIK KLASSIFIKASIYASI**

A.Xavfsiz 1.Adenoma (papillyar adenoma) B.Xavfli 1.Adenokarstinoma 2.Yassi hujayrali rak 3.Differenstiallashmagan rak	A.Donador hujayrali o‘sma (mioblastoma) B.Embrional rabdomiosarkoma (Botrioid sarkomasi) Boshqa shakldagi o‘smalar A.Karstinosarkoma B.Boshqalar		Klassifikastiya qilinmaydigan o‘smalar Qon yaratuvchi va limfold to‘qimani o‘smalari Metastatik o‘smalar
--	--	--	--

### **JIGAR VA O‘T YO‘LLARI KASALLIKLARINI TIRIKLIKDAGI PATOMORFOLOGIK DIAGNOSTIKASI**

Jigar kasalliklarida tiriklikdagi morfologik tekshirishlar uchun biopsiya tekshiruvi o‘tkaziladi. Bunda jarayonni faolligi, bosqichi, davolash natijasini aniqlash, differenstial diagnostika o‘tkazish imkoniyati bo‘ladi. Biopsiyalar bevosita tashrix vaqtida (instiziston biopsiya) yoki laporaskopik tekshirish vaqtida, punkstion ngnalar orqali olinadi. Laparaskopik tekshirishlarda, tashrixlarda bioptat subkapsulyar soxadan olinadi, punkstion biopsiyalar esa xar qaysi soxasidan olinishi mumkin. punkstion biopsiya Mengini ninasida 8-9 qovurg‘alar ora qo‘ltiqosti o‘rtaloxda bajariladi. Biopsiya olish jarayonida quyidagi og‘irlashuvlar kelib chiqishi mumkin: plevrit, perigepatit, qon ketishi jigarichi gematomasi yuzaga kelishi, gemobiliya, arteriovenoz fistula, o‘t peritoniti va b.

### **Mavzuni o‘rganish bo‘yicha testlar:**

1.Jigarning toksik distrofiyasi rivojlanishidagi endogen omilni ko‘rsating:

- \* gepatotrop zaharlar bilan zaharlanish
- \* tireotoksikoz
- \* homiladorlik toksikozi
- \* har xil etiologiyadagi shok
- \* sirka kislota bilan zaharlanish

2.Uzoq vaqt davot etgan jigar toksik distrofiyasining oqibatini ayting:

- \* a’zoni tiklanishi
- \* rak
- \* sariqlik
- \* gemosideroz
- \* jigar stirrozi

3.Alkogol gepatitga xos maxsus morfologik belgilarni ayting:

- \* Kaunsilmen tanachalari
- \* nekroz o‘chog‘lari
- \* amiloid o‘chog‘lari
- \* Mallori tanachalari
- \* granulemalar

4.Alkogolli gepatitda jigardagi infiltratning asosiy tarkibi qanday?

- \* plazmostitar
- \* limfoidli
- \* leykostitar
- \* makrofagal
- \* epitelioid hujayrali

5.Har hil etiologiyali surunkali faol gepatitga xos oqibatni ayting:

- \* rakga o‘tish
- \* tuzalish
- \* stirroz rivojlanishi
- \* xolestaz rivojlanishi

\* yog‘li distrofiya rivojlanishi

6.Jigar stirrozining asosiy etiologik shaklini ko‘ursating:

\* infekstion

\* toksik

\* biliar

\* alimentar-almashinuvli

\* hamma javob to‘g‘ri

7.Yirik tugunli jigar stirrozining ko‘proq uchraydigan etiologiyasini ayting:

\* alkogol

\* V-virusli hepatit

\* medikamentlar

\* disstirkulyator o‘zgarishlar

8. Birlamchi billiar stirroz qaysi kasalliklar guruhiga kiradi?

\* qon kasalliklari

\* autoimmun kasalliklar

\* onkologik kasalliklar

\* distrofik kasalliklar

\* yig‘ilish kasalliklari

9.V virusli hepatitning qaysi turi oqibatida postnekrotik stirroz rivojlanadi? 1.surunkali persistirlovchi 2.surunkali faol massiv nekroz o‘choqlari bilan 3.o‘tkir hepatit 4.xolestatik hepatit 5.sariqsiz turi

\* 1, 3

\* 2, 3

\* 1, 4

\* 2, 4

\* 2, 5

10.Virusli hepatit bilan zararlanish yo‘llarini ko‘rsating:

1.fekal-oral 2.parenteral 3.transplastentar 4.perinevral 5.havo-tomchili

\* 2;3;

\* 3;4;

- \* 3;5;
- \* 4;5;
- \* 1;2;

11.V virusli gepatitdagи gepatostitlar distrofiyasiga ko‘proq qaysi turi xos?

1.yog‘li 2.gidropik 3.lipofusstinoz 4.ballonli 5.gemosideroz

- \* 2;4;
- \* 1;3;
- \* 3;5;
- \* 1;5;
- \* 2;3;

12.Jigar toksik distrofiyasi rivojlanishidagi ekzogen omillarni aytинг: 1.fosfor va geliotrop bilan zaharlanish 2.zamburug‘lar, sifatsiz oziqa bilan zaharlanish 3.har xil etiologiyadagi shok 4.sulema bilan zaharlanish 5.tireotoksikoz

- \* 3;4;
- \* 3;5;
- \* 2;4;
- \* 1;2;
- \* 4;5;

13. Gepatozlar turlarini ko‘rsating: 1.birlamchi, ikkilamchi 2.umumiyl, mahalliy 3.infekstion, noinfekstion 4.nasliy, orttirilgan 5.o‘tkir, surunkali

- \* 1;2;
- \* 2;3;
- \* 1;3;
- \* 2;5;
- \* 4;5;

14.Jigar toksik distrofiyasiдаги о‘лим сабабларини ko‘rsating: 1.jigar etishmovchiligi 2.jigar - buyrak etishmovchiligi 3.asfiksiya 4.miokard infarkti 5.bosh miya infarkti

- \* 1;2;

\* 3;4;

\* 2;3;

\* 3;5;

\* 4;5;

15.Kechishiga ko‘ra alkogolli gepatit turlarini ayting:

1.o‘tkir 2.surunkali 3.uzoq vaqt davom etgan 4.chaqmoqsimon 5.aralash

\* 2;3;

\* 1;2;

\* 3;4;

\* 4;5;

\* 1;3;

16.Surunkali gepatitning morfologik shaklini ayting:

1.faol 2.persistirlovchi 3.o‘chog‘li 4.diffuz 5.oddiy

\* 1;2;

\* 3;4;

\* 2;3;

\* 3;5;

\* 4;5;

17.Surunkali gepatitning etiologik shakllarini sanab o‘ting:

1.virusli 2.alkogolli 3.medikamentoz 4.maxsus 5.parazitar

\* 1;4;

\* 1;2;3;

\* 2;4;5;

\* 4;5;

\* 3;5;

18. Pileflebitik absstesslar nima va ular qachon, qaerda hosil bo‘ladi? 1.oshqozon yara kasalligining asorati-o‘pkada absstesslar 2.appendistitning destruktiv shaklining asoratlari-jigarda absstesslar 3.tutqich arteriyasining trombozida 4.tutqich venalarining yiringli tromboflebitida 5.oyoq-qo‘llar venasiningyiringli tromboflebitida

\* 1, 3

\* 2, 3

\* 1, 4

\* 2, 4

\* 1, 5

19.Jigar stirrozining asosiy morfogenetik shaklini ko'rsating:

1.postnekrotik 2.portal 3.biliar 4.fao 5.persistirlovchi

\* 1, 3;4;

\* 2, 3;5;

\* 3, 4;5;

\* 1;2, 3;

\* 2;4;

20. Stirrozning makroskopik shaklini ayting: 1.yirik tugunli 2.mayda tugunli 3.postnekrotik 4.biliar 5.portal

\* 3;4;

\* 3;5;

\* 1;2;

\* 4;5;

\* 2;5;

21.Jigar stirrozining morfogenetik tipini ayting:

1.postnekrotik 2.portal 3.stirkulyator 4.biliar 5.atrofik

\* 1, 2,3

\* 2, 3,4

\* 1, 4,5

\* 2, 3,5

\* 1, 2,4

22.Virusli jigar stirrozining makroskopik xarakteristikasini bering: 1.jigar o'lchamlari kichiklashgan 2.yuzasi yirik tugunli 3.regenerat tugunlarning o'lchamlari 1sm.dan katta 4.yuzasi yashil rangda 5.konsistenstiyasi xilvillagan

\* 1, 2.3

\* 2, 3.4

\* 1.4, 5

\* 2, 3,5

\* 1, 3,5

23. Virusli jigar stirrozining mikroskopik xarakteristikasini bering: 1.gidropik distrofiya ustun turadi 2.multilobo‘lyar tuzilishdagi soxta bo‘lakchalar 3.monolobulyar tuzilishdagi soxta bo‘lakchalar 4.yog‘li distrofiya ustun turadi 5.uchlikning (triada) oralig‘ining yakinlashishi

\* 1.2, 3

\* 2, 3.4

\* 1, 4,5

\* 2, 3,5

\* 1, 3,5

24. Virusli (postnekrotik) jigar stirrozining mumkin bo‘lgan o‘lim sabablarini ayting: 1.pnevmoniya 2.asfiksiya 3.jigar etishmovchiligi 4.jigar - buyrak etishmovchiligi 5.oshqozon va qizilo‘ngach kengaygan venalaridan qon ketish

\* 1, 2

\* 1, 2,3

\* 1, 2.3,4

\* 2.3.4.5

\* 3,4,5

25.Jigar stirrozining mikroskopik turlarini ayting:

1.multilobulyar 2.monolobulyar 3.portal 4.postnekrotik 5.yirik tugunli

\* 3;4;

\* 2;5;

\* 1;2;

\* 3;5;

\* 4;5;

## **AMALIY MASHGULOTDA ECHISH UCHUN MASALAR:**

1.Jigar stirrozi asstit bilan asoratlangan 33 yoshli bemorda ko‘p miqdorda «kofe loyqasiga» o‘xhash qayt qilish yuzaga keldi, kollaps rivojlandi va o‘lim yuz berdi. Jasadi yorilganda me’da – ichak yo‘llari bo‘shlig‘i suyuq qoramtil qon massasi bilan to‘lganligi topildi. Me’dani kardial bo‘limi va qizilo‘ngachni pastki 1/3 qismi shilliq qatlami ostida venalari kengaygan, burmalangan. Me’da va qizilo‘ngach venalaridagi o‘zgarishlari tushintiring?

2.Qo‘ziqorin bilan zaxarlangandan keyin bemorda o‘tkir jigar etishmasligi yuzaga kelgan, jigarni o‘lchamlari tezda kichraya boshlagan. Bemorda qanday kasallik yuzaga kelgan, uning asosida nima yotadi? Kasallikni morfologik bosqichini ayting.

3.7 yil oldin virusli gepatitni og‘ir shaklini boshidan kechirgan bemorda jigar stirrozi aniqlandi. Laparoskopiyada jigarni o‘lchamlari kichiklashgan, yuzasi donador, tugunlarning diametri 5sm-gacha keladi. Ushbu stirrozni morfologik turini ayting? Qanday gistologik o‘zgarishlar topiladi? Qanday og‘irlashuvlar o‘limga sabab bo‘lishi mumkin?

4.Bemor uzoq yillar davomida alkogol istemol qilgan, surunkali alkogolizm bilan og‘riyan. Alkogolni ko‘p iste’mol qilganda, sariqlik kuzatildi, jigar punktati tekshirilganda esa alkogolli gepatitni qaytalanishi aniqlangan. Ob’ektiv tekshirilganda jigarni konsistenstiyasi zinchashgan, qirralari notekis, qorinni oldingi devorida venalar keskin kengayganganligi ham aniqlandi. Jigarda qanday patologik jarayon rivojlangan? Qanday gistologik o‘zgarishlar topilishi mumkin? Mumkin bo‘lgan og‘irlashuvlarini ayting?

5.Bemorga qon quyilgandan 4 oy o‘tgandan keyin sariqlik kelib chiqdi, palpasiyada jigari kattalashgan, qonda jigar transaminazalari miqdori ortganligi topildi. Bemorda qanday kasallik rivojlangan. Jigardagi makro-mikroskopik o‘zgarishlar qanday?

## **TESTLARNI TO‘G‘RI JAVOBLARI:**

- 1.Jigarning toksik distrofiyasi rivojlanishidagi endogen omilni ko‘rsating: \*  
gepatotrop zaharlar bilan zaharlanish
- 2.Uzoq vaqt davot etgan jigar toksik distrofiyasining oqibatini ayting:  
\* jigar stirrozi
- 3.Alkogol hepatitga xos maxsus morfologik belgilarni ayting:  
\* Mallori tanachalari
- 4.Alkogolli hepatitda jiga dagi infiltratning asosiy tarkibi qanday?  
\* leykostitar
- 5.Har hil etiologiyali surunkali faol hepatitga xos oqibatni ayting:  
\* stirroz rivojlanishi
- 6.Jigar stirrozining asosiy etiologik shaklini ko‘rsating:  
\* hamma javob to‘g‘ri
- 7.Yirik tugunli jigar stirrozining ko‘proq uchraydigan etiologiyasini ayting: \*  
gepatotrop zaharlar bilan zaharlanish
8. Birlamchi billiar stirroz qaysi kasalliklar guruhiba kiradi?  
\* autoimmun kasalliklar
- 9.V virusli hepatitning qaysi turi oqibatida postnekrotik stirroz rivojlanadi? \* 2,  
3
- 10.Virusli hepatit bilan zararlanish yo‘llarini ko‘rsating: \* 1;2;
- 11.V virusli hepatitdagи hepatostitlar distrofiyasiga ko‘proq qaysi turi xos? \*  
2;4;
- 12.Jigar toksik distrofiyasi rivojlanishidagi ekzogen omillarni ayting? \* 1;2;
13. Gepatozlar turlarini ko‘rsating: \* 4;5;
- 14.Jigar toksik distrofiyasi dagi o‘lim sabablarini ko‘rsating? \* 1;2;
- 15.Kechishiga ko‘ra alkogolli hepatit turlarini ayting? \* 1;2;
- 16.Surunkali hepatitning morfologik shaklini ayting? \* 1;2;
- 17.Surunkali hepatitning etiologik shakllarini sanab o‘ting: \* 1;2;3;
18. Pileflebitik absesslar nima va ular qaerda hosil bo‘ladi? \* 2, 3
- 19.Jigar stirrozining asosiy morfogenetik shaklini ko‘rsating? \* 1;2, 3;

20. Stirrozning makroskopik shaklini ayting: \* 1;2;
- 21.Jigar stirrozining morfogenetik tipini ayting: \* 1, 2,4
- 22.Virusli jigar stirrozining makroskopik xarakteristikasini bering: \*1, 2.3
23. Virusli jigar stirrozining mikroskopik xarakteristikasini bering: \* 1, 3,5
24. Virusli (postnekrotik) jigar stirrozining mumkin bo‘lgan o‘lim sabablarini ayting: \* 3,4,5
- 25.Jigar stirrozining mikroskopik turlarini ayting: \* 1;2;

### **AMALIY MASHGULOTDA ECHISH UCHUN MASALALAR:**

1. Javob: Portal gipertenziya. Qizilo‘ngach venalarida qon ketishi.
- 2.Javob: 2-davri: qizil distrofiya davri.
- 3.Javob: Jigarni postnekrotik stirrozi. Regenerastiya jarayonini buzilishi. Portal gipertenziya kech, jigar hujayralari etishmovchiligi erta rivojlanadi
- 4.Javob: Jigarni portal stirrozi. Regenerastiya jarayonini buzilishi. Portal gipertenziya erta, jigar hujayralari etishmovchiligi kech rivojlanadi
5. Javob: Virusli hepatit V. Virusli hepatit g‘ yallig‘lanish, distrofik o‘zgarishlar, hepatostitlar nekrozi. .

## **FOYDALANILGSHAN ADABIYOTLAR**

- 1.Abdullaxo‘jaevaM.S.Patologik anatomiya]. Darslik.1,2-qism, lotin shriftida, 2012.
2. Абдуллаходжаева М.С. АТЛАС по патологии. Ташкент. 2013 г.-333 стр.
- 3.Струков А.И. и др. «Патологическая анатомия». - М. Медицина. 2015 г.
4. Ma‘rupov A.I. mumiy patologik anatomiyanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun qo‘llanma. 2011 у.
5. Ma‘rupov B.A. dva b. Onkomorfologiya (o‘quv qo‘llanma). Toshkent. 2022yil. 263s.
- 6.Магрупов Б.А. ва б. Секцион курс. Фан нашриёти. Тошкент -2016. -1916.
7. Mamataliev A.R va b. Hujayra patologiyasi. Distrofiyalar. O‘quv qo‘llanma. 2021yil -137s
8. Основы патологии заболеваний по Роббинсу и Котрану / Кумар В. И др. пер. с англ.; под ред. Е.А. Коган. В 3 т. Том 1-3: М.: Логосфера, 2014.
- 9.Общая патологическая анатомия (общий курс). п/р. О.В.Зайратьянца. Москва. 2007.-С.264.
10. Пауков В.С. и др. Патологическая анатомия: Атлас / - М.: ООО «Издательство «Медицинское информационное агентство», 2015. — 392 с.4.
- 11.Пальцев М.А. и др. Руководство к практическим занятиям по пат. анатомии. - М.: Медицина, 2002 г.
- 12.Повзун С.А. Общая патологическая анатомия. Санкт-Петербург. СпецЛит. 2015.-319c.
- 13.Maximilian L. Buja. et all. Netter’s Illustrated Human Pathology. Second edition. Copyright 2014, 2005 by Saunders, an imprint of Elsevier Inc.
- 14.Pathology / Arthur S. Schneider, Philip A. Szanto ; with special contributions by Anne Mills, Sandra I. Kim, and Todd A. Swanson. - 5th ed. p. ; cm. - (BRS). Wolters Kliwer.Lippincott Williarms & Wilkins. 2014. 474s.
15. Ramadas Nayak. Exam Preparatory Manual for Undergraduates- Pathology First Edition: 2015. Second Edition: 2017.
16. Husan A. Sattar. Pathology. Chicago. 2021.460s.

## O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi,  
Andijon davlat tibbiyot instituti rektorining 2023 yil "30" oktabrdagi  
"01/08/339-Sh"-sonli buyrug'iiga asosan

*A.R.Mamataliyev*

(mualifning familiyasi, ismi-sharifi)

Davolash ishi-60910200, Pediatriya ishi - 60910300,  
Tibbiy profilaktika ishi - 60910400

(ta'lif yo'nalishi (mutaxassisligi))

ning  
talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan.

*Jigar va o't yo'llari kasalliklarini patomorfologiyasi  
nomli o'quv qo'llanmasi*

(o'quv adabiyyotining nomi va turi: darslik, o'quv qo'llanma)

ga  
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan  
litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat  
berildi.

Rektor



M.M.Madazimov

(imzo)

Ro'yxatga  
olish raqami:  
100271



## Mundarija

№	MAVZULAR NOMLANISHI	Saxifas i
<b>1</b>	Kirish	5
<b>2</b>	Jigar va o‘t yo‘llarini anatomik, histologik va fiziologik xususiyatlari	6
<b>3</b>	Jigarda moddalar almashinuvlaring buzilishlari	28
<b>4</b>	Jigarda qon aylanishlarini buzilishlari	37
<b>5</b>	Jigarda yallig‘lanish va immunologik reakstiyalar	39
<b>6</b>	Xolestazlar	45
<b>7</b>	Jigarda nekrozidagi o‘zgarishlar	50
<b>8</b>	Jigarning regenerastiyasi	56
<b>9</b>	Jigar to‘qimasini fibrozi	59
<b>10</b>	Jigar kasalliklarini klassifikasiyasi	63
<b>11</b>	Gepatozlar	68
<b>12</b>	Jigar hujayra etishmovchiligi belgilari	79
<b>13</b>	Gepatitlar	80
<b>14</b>	Jigar stirrozlari	107
<b>15</b>	Jigar va o‘t yo‘llari o‘smalari	127
<b>16</b>	O‘t pufagi kasalliklari	135
<b>17</b>	Jigar va o‘t yo‘llari kasalliklarini tiriklikdagi patomorfologik diagnostikasi	143
<b>18</b>	Mavzuni o‘rganish bo‘yicha testlar, ziddiyatli masalalar	144
	Foydalanylган адабиётлар	153

**O'QUV QO'LLANMA**

**MAMATALIEV A.R.**

**"JIGAR VA O'T YO'LLARI KASALLIKLARINI  
PATOMORFOLOGIYASI"**

**Muharrir: Maxmudov A.**

**Korrektor va dizayn: Maxmudov T.**

Tasdiqnoma № X-25171, 300325805, 15.06.2023.

Bosishga 2023 yil "28-avgust" ruxsat berildi.

Format 60x84/14. Garnitura Times New Roman.

Muqova uchun rasm manbasi:

<https://omih.com.ua/about/news/operatsii-pecheni-i-zhelchnykh-putei>

Shartli bosma tabog'i 7.67., 156 sahifa, Adadi 6 dona, Buyurtma №5

"KAFOLAT TAFAKKUR" nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.

Manzil: Andijon viloyati, Andijon tumani, Oq Yor QFY, Sh.Umarov 78 uy.

Telefon: +99888 973-51-13

e-mail: [kafolattafakkur@gmail.com](mailto:kafolattafakkur@gmail.com)

